

DJUMAYEVA H.M



**TALABALARНИ  
ТА’ЛIM-TARBIYA  
JARAYONIDA VARIATIV  
TAHDIDLARDAN HIMOYALASH  
TEXNOLOGIYASI**

ISBN: 978-9910-9507-4-2



9 789910 950742



2514

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

**DJUMAYEVA HULKARXON MUHAMMADJONOVNA**

**TALABALARNI TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA  
VARIATIV TAHDIDLARDAN HIMOYALASH  
TEXNOLOGIYASI**  
**(Monografiya)**

**Termiz – 2023**

**UDK. 378.371.035.4**

**ББК: 74.00**

**J 92**

Talabalarni ta’lim-tarbiya jarayonida variativ tahdidlardan himoyalash texnologiyasi. Monografiya. H.M.Jumayeva – Termiz.: “IRFON-PRINT” nashriyoti, 2023-y. -104 b.

Mazkur monografiyada talabalarni ta’lim-tarbiya jarayonida variativ tahdidlardan himoyalash muammosining nazariy-metodologik asoslari, Globallashuv jarayonida talabalar tarbiyasida yuzaga kelayotgan ijtimoiy-pedagogik muammolar tahlili, uning tarkibiy komponentlari, tamoyillari va o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risidagi ilmiy-nazariy yondashuvlar o‘z aksini topgan. Shuningdek, ta’lim-tarbiya jarayonida talabalarni ichki tahdidlardan himoyalash texnologiyalari va pedagogik mexanizmi hamda olib borilgan tadqiqot ishi natijalarining mazmuni yoritilgan.

Ushbu monografiyadan pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi o‘qituvchilari, talabalar, professor-o‘qituvchilar, tadqiqotchi-izlanuvchilar hamda keng jamoatchilik ham foydalanishlari mumkin.

Monografiya Termiz davlat universiteti Kengashining 2023 yil 7-oktyabrdagi №.2.6.2-sonli yig‘ilish qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

**Mas’ul muharrir:**

**Mahmudov Yusup G‘aniyevich** – pedagogika fanlari doktori, professor.

**Taqrizchilar:**

**Muxtorova Lobar Abdumannobovna** - Termiz davlat pedagogika instituti dotsenti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

**Kadirova Dilbar Normo‘minovna** – Termiz davlat universiteti “Boshlang‘ich ta’lim” kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi.

ISBN:978-9910-9507-4-2

© Djamayeva Hulkarxon Muhammadjonovna  
© “IRFON-PRINT” nashriyoti, 2023-y.

## KIRISH

Jahonda yosh avlodning ma’naviy kamoloti yo‘lida olib borilayotgan ta’lim-tarbiya o‘ta muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki globallashuv jarayonida chuqur ildiz otib borayotgan barcha sohalardagi tizimli islohotlarning samaradorligi, shuningdek, kelajakning bardavom hamda barqaror bo‘lishidek o‘ta mas’uliyatlari va muhim vazifaning qay darajada hal etilishi aynan talabalar ma’naviyatiga bevosita bog‘liq. Talabalarning ichki ma’naviyati bu borada ustuvor hisoblanadi. Shu bois talabalarni ichki tahdidlarga qarshi tura olish ruhida tarbiyalash masalasining paysalga solinishi yoki bunga panja orasidan qarash, buni qandaydir mavhum yoki o‘z-o‘zidan amalga oshib boraveradigan holat sifatida tushunish va shunday baholash mumkin emasligini anglab yetish lozim.

Dunyoning rivojlangan davlatlari amaliyotida talabalarni ichki tahdidlardan himoyalash har bir millat kelajagi xavfsizligini ta’minlashning asosiy ijtimoiy manbai sifatida ilmiy jihatdan chuqur o‘rganishni nazarda tutadi. Ichki tahdid ma’naviyat bilan bog‘liq. Shu bois ma’naviy tarbiya o‘z-o‘zidan pedagogik muammo hisoblanadi. Shu sababli bugungi kunda dunyoning taraqqiy etgan davlatlarida talabalarni turli tahdidlardan himoya qilishning bir qator dasturlari faoliyat ko‘rsatmoqda. Jumladan, “Молодёжное правозащитное движение” (Россия), “Youth Defense League”, “Students Against Hunger,”(AQSH) “European Youth Center” (Frantsiya).“Look Out,” “Help” , “Salvation Army”(AQSH) va boshqalar.

Mamlakatimizda ham jamiyat taraqqiyotida asosiy omillardan biri talabalarga ta’lim-tarbiya berish orqali ularning ma’naviy va intellektual salohiyatlarini oshirish bo‘lib xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Taraqqiyot strategiyasida “Yoshlarning ma’naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko‘maklashish, yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg‘usi, bag‘rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta’sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo‘lgan qat’iy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash asosiy vazifa sifatida”<sup>1</sup> belgilangan. Mazkur vazifani amalga oshirish uchun talabalarning aqliy hamda ma’naviy dunyosini boyitish,

<sup>1</sup>Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг Тараккиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон. – Ўзбекистон Республикаси конун хужжатлари тўплами, 2022 й., 70-максад.

ichki tahdidlarga qarshi tura olish kompetentsiyasini rivojlantirish chora-tadbirlarini kuchaytirish, samarali ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va ularni o'quv-tarbiya faoliyatida qo'llash imkoniyatlarini kengaytirish dolzarb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son[1] Farmoni, 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori[2], 2017 yil 5 iyuldagagi "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston Yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi PF-5106-son[4] Farmoni, 2018 yil 14 avgustdagagi «Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3907-son[5] Qarori, 2019 yil 8 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Kontseptsiyasi[7], 2019 yil 31 dekabrdagi "Uzluksiz ma'naviy tarbiya kontseptsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-1059-son Kontseptsiyasi[6] va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjalarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning maqsadi** talabalarni ta'lim-tarbiya jarayonida variativ tahidlardan himoyalash texnologiyasini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

### **Tadqiqotning vazifalari:**

talabalarni globallashuv jarayonida ichki tahidlardan himoyalash texnologiyasini takomillashtirish xususiyatlari, ko'rinishlari hamda omillarini aniqlashtirish;

talabalarni ta'lim-tarbiya jarayonida ichki tahidlardan himoyalashning tizimli-funksional modelini ishlab chiqish;

dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda talabalarni ichki tahidlardan himoyalash texnologiyasini takomillashtirish mexanizmini ishlab chiqish;

talabalarni ta'lim-tarbiya jarayonida ichki tahidlardan himoyalash texnologiyasini takomillashtirish samaradorligini baholash.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot-ning ilmiy ahamiyati ma'naviy tarbiyani shakllantirish bilan bog'liq "tahdid", "xuruj", "ma'naviy xuruj", "ma'naviy zaiflik", "maqsadga yo'nalganlik" kabi tushunchalarga mualliflik yondashuvi asosida ta'riflar-ning shakllantirilganligi, ular mazmun-mohiyatining ochib berilganligi,

talabalarni ichki tahdidlardan himoyalashga xizmat qiluvchi omillarning tahlil etilganligi, mavjud nazariy-fundamental bilimlarning kengaytirilganligi, ichki tahdidlardan himoyalashning psixologik-pedagogik xususiyatlari aniqlanganligi, talabalarni ichki tahdidlardan himoyalash modelining ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati tadqiqot natijasida oliy ta’lim pedagogikasida talabalarni ichki tahdidlardan himoyalashga oid yondashuvlar, ilmiy-metodik tavsiyalar bilan boyitilganligi, talabalarda ichki tahdidlarga kurashuvchanlikni rivojlantirishga xizmat qiladigan didaktik usul va tamoyillar, Internet saytlarining ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi. Shuningdek, tadqiqot natijalaridan o‘qituvchilar, malaka oshirish kurslari tinglovchilari, oliy ta’lim muassasalarining boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalari ma’naviy tarbiyasini rivojlantirishda dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlar jarayonida foydalanish mumkinligi bilan tavsiflanadi.

## **I BOB. TALABALARNI GLOBALLASHUV JARAYONIDA ICHKI TAHDIDLARDAN HIMoyalashning NAZARIY ASOSLARI**

### **1.1. Globallashuv jarayonida talabalar tarbiyasida yuzaga kelayotgan ijtimoiy-pedagogik muammolar tahlili**

Bugun dunyo shu darajada globalizatsiyaning yuksak cho‘qqisi tomon bormoqdaki, uni jamiyat taraqqiyotining har bir sohasida uchratish mumkin. Bu tibbiyot sohasi bo‘ladimi, ijtimoiy yoki iqtisodiy sohami har biri globalizatsiyaning ham ijobiy, ham salbiy jihatlari bilan yuzma-yuz kelmoqda. Dunyo hamjamiyati tomonidan yaratilayotgan fan-texnikaning eng so‘nggi yutuqlari, tezkor va sifatli axborot texnologiyalari globalizatsiya tufayli dunyoning eng chekka hududlarigacha kirib bormoqda.

Biroq globalizatsiya qaysidir jihatni bilan shaxs dunyoqarashiga o‘z salbiy ta’sirini o‘tkazib ulgurdi. Ayniqsa, dunyo aholisining qariyb 60 foizini tashkil etadigan yoshlar ongi va ma’naviyatining shakllanishiga keskin ta’sir o‘tkazmoqda. Globalizatsiya tufayli bugungi talabalarda ichki tahdidlarga qarshi kurashchanlik immuniteti pasayib bormoqda. Shu bois barkamol avlodni shakllantirishdek muhim va mas’uliyatli vazifani amalga oshirish davom etayotgan hozirgi davrda talabalarini globallashuv jarayonida ichki tahdidlardan himoyalash dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Bu esa o‘z navbatida jamiyatning faol a’zolari, chunonchi, ziyoli va pedagoglar oldiga mas’uliyatli vazifalarni yuklamoqda.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017 yil 15 iyundagi “Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash - davr talabi” mavzusidagi anjumanda so‘zlagan nutqi diqqatga sazovor: “Agar farzandlarimizga to‘g‘ri tarbiya bermasak, har kuni, har daqiqada uning yurish-turishi, kayfiyatidan ogoh bo‘lib turmasak, ularni ilmu hunarga o‘rgatmasak, munosib ish topib bermasak, bu omonatni boy berib qo‘yishimiz hech gap emas”-degan edi [8;21-b.].

Darhaqiqat, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, talabalar tarbiyasi kechiktirib bo‘lmaydigan masala. Ularga munosib tarbiya berishimiz, yurish-turishi, xatti-harakatidan ogoh bo‘lishimiz, nima bilan band ekanligini bilishimiz, biror-bir kasb-hunar-ga yo‘naltirishimiz asosiy maqsadimiz bo‘lmog‘i lozim. Negaki, globallashuv davrida voyaga yetayotgan yoshlarimizga bizdan ko‘ra, “tarbiyachilik”

qilishni xohlovchi tashqi va ichki tahdidlar, vosita va omillar nihoyatda ko‘p.

Xo‘sh, globallashuv o‘zi nima? Unga berilgan ta’riflarning mazmuni qanday?

Globallashuv atamasi ilk bor XX asrning 80-yillari boshida iqtisodiy sohada qo‘llanila boshlangan. Uni ilk bor amerikalik olim T.Levitt 1983 yilda nashr qilgan maqolasida ishlatgan edi. Maqolada ta’kidlanishicha, “Globallashuv - transmilliy korporatsiyalar ishlab chiqaradigan turli - tuman mahsulot bozorlarining birlashuv jarayoni” [34; 27-b.]. Bu tushunchaga ana shu paytdan boshlab to hozirga qadar turlicha qarashlar davom etib kelmoqda.

2002 yilda nashr etilgan O‘zbekiston milliy entsiklopediyasida global va globallashuv tushunchasiga quyidagicha ta’rif berilgan: “Global-frantsuzcha global, umumiy, lotincha globus-shar co‘zlaridan olingan bo‘lib, butun yer sharini qamrab oluvchi, har tomonlama, to‘liq, yalpi, universal degan ma’nolarni bildiradi [107; 363-b.]. Darhaqiqat, globalizatsiya jarayonlarida har qanday yangilik, axborot yoki muammo tezda tarqaladi va butun dunyoni o‘rgimchak to‘riday qamrab oladi.

Rus olimi L.E.Grinning fikricha, “Globallashuv mintaqalar va umuman, jahon integratsiyasi yaqinlashuvining natijasi. Globallashuv - bu jarayon, uning natijasida dunyo o‘zining barcha sub’ektlariga yanada aloqador va yanada bog‘liq bo‘ladi” [34; 811-b.].

Darvoqe, L.E.Grinin ta’kidlaganidek, globallashuv - bu jarayon bo‘lib, u muttasil harakat, o‘zgarish va rivojlanish hamda aloqadorlikda namoyon bo‘ladi. Shubhasiz, dunyodagi har bir soha boshqa mamlakatlar bilan integratsiyaga kirishmasdan rivojlana olmaydi.

Rus olimi A.G.Kosichenko globallashuvga jarayon sifatida qaraydi. U shunday yozadi: “Globallashuv ko‘p o‘lchamli jarayon, u o‘z ta’sir doirasiga turli usul va vositalar bilan barcha sohalarni qamrab oladi” [34; 815-b.].

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning “Yuksak ma’naviyat-engilmas kuch” asarida globallashuv jarayonlari haqida teran fikr-mulohazalar bildirilgan: “Kimdir uni yuksak texnologiyalar zamoni desa, kimdir tafakkur asri, yana birov yalpi axborotlashuv davri sifatida izohlamoqda. Albatta, bu fikrlarning barchasida ham ma’lum ma’noda haqiqat, ratsional mag‘iz bor. Chunki ularning har biri o‘zida bugungi serqirra va rang-barang hayotning qaysidir belgi - alomatini aks ettirishi tabiiy. Ammo ko‘pchilikning ongida bu davr globallashuv davri tariqasida taassurot uyg‘otmoqda” [10; 110-b.].

I.A.Karimovning ta’rif va fikrlarini yanada chuqurroq o‘rganadigan bo‘lsak, u kishi globallashuvning har ikki jihatiga to‘xtalib o‘tganligini ko‘ramiz: “Globallashuv - bu hayot sur’atlarining beqiyos darajada tezlashuvi demak. Har bir ijtimoiy hodisaning ijobjiy va salbiy tomoni bo‘lgani singari, globallashuv jarayoni ham bundan mustasno emas” [10; 112-b.].

Globallashuv davlatlar va xalqlar o‘rtasidagi hamkorlik jarayoni va integratsiyaning kuchayishiga olib kelmoqda. Chunonchi, bu integratsiya nafaqat tovar ayirboshlash, ilm – fan, texnika yutuqlarining tezkorlik bilan tarqalishiga yordam beribgina qolmasdan, balki millatlararo hamdo‘stlik, birodarlik, ishonch kabi umuminsoniy qadriyatlarning shakllanishiga ham sabab bo‘lmoqda. Buni, ayniqsa, so‘nggi yillarda insoniyat boshiga tushgan ko‘plab ofatlar, kasalliklarning tarqalishida dunyo xalqlarining o‘zaro jipslashgani, bir-biriga insoniylik va hamdardlik yordam qo‘lini cho‘zayotgani kabi ko‘plab holatlarda ko‘rish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, globalizatsiya jarayonining ikkinchi tomoni, ya’ni yoshlar ma’naviyatiga ko‘rsatayotgan salbiy ta’siri dunyo hamjamiyatini tashvishga solmoqda. Aniqrog‘i, fan - texnika va axborot texnologiyalarining tezkor rivoj-lanishi natijasida insoniyat uchun qulay shart - sharoitlar va imkoniyatlarning yaratilishiga olib keldi. Biroq bu imkoniyatdan aniq bir maqsad, ezgu harakat uchun foydalanish o‘rniga shunchaki vaqtini o‘tkazish, o‘z - o‘zini ovuntirish, shov-shuvlardan xabardor bo‘lib turish, virtual do‘sizlash kabi ko‘plab bema’ni maqsadda foydalanayotgan yoshlar ham yo‘q emas. Afsuski, keyingi yillarda dunyo bo‘yicha bunday yoshlar soni keskin ortib, ularning xatti-harakatlarida axborotlarga tobelik, dangasalik, beparvolik, loqaydlik, jangarilik, betgachoparlik, jizzakilik kabi illatlar tez-tez ko‘zga tashlanmoqda. Ayniqsa, katta shaharlarda voyaga yetayotgan yoshlar o‘rtasida bunday xulq-atvorga ega bo‘lgan yoshlarni ko‘plab uchratish mumkin. Yoshlarning tuni bo‘yi o‘rtoqlari bilan ko‘cha sang‘ishi, o‘zlarini virtual olamda yashayotganlardek his etishlari, reallikdan uzoqlashayotganliklari ota - onalar va jamoatchilikda ham bezovtalikni keltirib chiqarmoqda.

2005 yilda “Akademiya” nashriyoti tomonidan O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim bakalavriat bosqichi uchun nashr qilingan “Milliy istiqlol g‘oyasi” darsligida alohida “Globallashuv jarayonida milliy g‘oyaga ehtiyojning ortishi” mavzusi kiritilgan. Unda mazkur atamaga “Globallashuv - turli mamlakatlar iqtisodi, madaniyati, ma’naviyati,

odamlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir va bog‘liqlikning kuchayishi degan ta’rif berilgan [34; 81-b.].

Globallashuv tushunchasi haqida mamlakatimiz olim va siyosatchilari o‘zlarining fikr - mulohazalarini bildirmoqdalar. Jumladan, faylasuf olim A.Erkayev globallashuv va uning yuzaga kelishi haqida quyidagi fikrni ilgari suradi: “Globallashuv - jahon taraqqiyotining asosiy tendentsiyalaridan biri. Savdo va ishlab chiqarish, iqtisodiy, moliyaviy aloqalarning dunyo miqyosida g‘oyat kuchayishi, tezlashishi globallashuvning vujudga kelishiga zamin yaratdi. Globallashuv - ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, siyosiy aloqalarning haddan tashqari jadallahuvi, yangi axborot texnologiyalari va umuman, axborotning jahon miqyosida shiddat bilan tarqalishi, xalqaro standartlashuv va maishiy turmushda, iste’molda, jumladan, nomoddiy iste’molda umumiyl qolip hamda andozalarning paydo bo‘lishi” [28; 240-b.].

Siyosiy olimalarimizdan biri N. Umarova “Globallashuv sharoitida yoshlar ongi va qalbini egallahsga urinishlar” mavzusidagi maqolasida quyidagi fikrni keltirib o‘tgan: “Globallashuv nomi bilan tarixga kirgan bu jarayon shiddati chegara bilmasligi va oqibatlarining noaniqligi tufayli kishilik jamiyatining asosli xavotiriga sabab bo‘lmoqda. Dastlab iqtisodiy integratsiya asosida yagona moliyaviy maklonni shakllantirishga yo‘naltirilgan bu jarayon jamiyat hayotining boshqa sohalariga ham dahldor bo‘lmoqda. Globallashuv yalpi, kompleks tabiat kasb etib, uning ta’siri axborot sohasiga, ma’naviy hayotga, siyosatga, ijtimoiy sohaga yoyilmoqda” [87; 12-13-b.].

“Aqliy imkoniyat belgilarining begonalashuvi” maqolasining muallifi, professor S.Choriyev shunday yozadi: ”Globallashuv sharoitida aqliy imkoniyat belgilarining aqldan begonalashuvi umumbashariy tavsif kasb etmoqdaki, yoshlarga ta’lim va tarbiya berish jarayonida ushbu tendentsiyani chetlab o‘tib bo‘lmaydi” [111; 17-b.]. Basharti professor S.Choriyev aytganidek, globallashuv jarayonlarida aql bilan ish tutmoq, unga tayanish muhim ahamiyat kasb etar ekan, shubhasiz, bu jarayonda aql bilan bajarilgan ish o‘z samarasini beradi. Ayniqsa, talabalar tarbiyasi masalasiga jiddiy e’tibor berish birlamchi vazifa bo‘lib qolmoqda.

Demak, globallashuv jarayonidan ikki xil maqsadda, ya’ni ezgulik va yovuzlik maqsadida foydalanish mumkin. Ezgu maqsad yo‘lida foydalanilgan harakatlar insoniyatning og‘irini yengil qilishga, farovon hayot kechirishiga, davosiz kasalliklar davosining topilishiga, millatlar o‘rtasida hamkor-likning kuchayishiga, tinchlikning barqaror bo‘lishiga, rivojlanmagan davlatlarning rivojlanishiga xizmat qilsa, yovuzlikni

maqsad qilgan globalizatsiya esa buzg‘unchilik, tahdid, vayronkorlik, o‘zgalarni tobe qilish, kishilarni maqsadsiz yashashga o‘rgatish, davlatlar va millatlar o‘rtasida urush-janjallarni keltirib chiqarish kabi yovuz maqsad yo‘lida barpo etiladi. Masalan, birgina axborot texnologiyalarining ish samarador-ligini pasaytirish yoki mavjud ma’lumotlarni yo‘q qilish natijasida mo‘may pul ishlashni istaydigan kishilar tomonidan turli “viruslar” va “antiviruslar” yaratiladi. Qarabsizki, bu viruslar bir pasda butun dunyoga tez va oson tarqab ketadi.

Shu bilan birga, globallashuv jarayonining shaxs, inson ongi bilan bog‘liq jihat shundaki, bu jarayonda insonning bilishga bo‘lgan qiziqishlari mislsiz yuksalib boraveradi, u yangi ma’lumot va axborotlarni qabul qilishga intiladi, qaysidir ma’noda uning jamiyatdagi ma’lum qoida va qadriyatlarga e’tiqodi oshib boraveradi. Ayniqsa, talabalarning ilmiy-texnikaviy bilimlarni o‘zlashtirishga ehtiyojlari va qiziqishlari ortib boradi.

Darhaqiqat, bilishning cheki va chegarasi yo‘q. Dunyodagi barcha yangiliklar, taraqqiyot, tsivilizatsiya - bu bilish mahsuli. Bugungi globallashuv - bilish natijasi. Talabalar ana shunday bilishga ehtiyoj kuchli bo‘lgan bir davrda voyaga yetmoqdalar. Ular xuddi globallashuv davri kabi barcha yangiliklarni tez va oson o‘zlashtirib bormoqdalar. O‘z navbatida dunyodagi eng so‘nggi texnologiyalarning yangi ko‘rinishlari yoshlar tomonidan ixtiro qilinmoqda.

Umuman olganda, barcha tadqiqotchi olimlarning fikr-mulohazalarini tahlil qilgan holda, shuni ta’kidlash joizki, globallashuv - bu faqat ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy sohadagi o‘zgarish, rivojlanish emas, balki jamiyatda yashovchi shaxslar dunyoqarashi, ma’naviyati, psixologiyasiga ta’sir ko‘rsatuvchi va qaysidir ma’noda (ijobiy yoki salbiy) o‘zgarishlarga sabab bo‘luvchi bir qancha omillar va vositalarning taraqqiy etib borishi.

Bizningcha, ushbu omil va vositalar sirasiga birinchi navbatda axborot texnologiyalarini kiritish mumkin. Chunki globallashuvning barcha jihatlari aynan axborot texnologiyalari orqali ijtimoiy hayotimizga kirib kelmoqda. Afsuski, ayrim davlatlardagi turli siyosiy kuchlar, partiyalar, diniy oqimlar, sektalar, mazhablar va boshqa qatlamlar globallashuv jarayonlaridan “samarali” foydalanib, o‘z manfaatlarini amalga oshirishga harakat qilib kelmoqdalar. Ular uchun ta’sir o‘tkazishning eng qulay vositasi axborot texnologiyalari. Natijada, talabalar ma’naviyatiga ta’sir etuvchi ma’naviy tahdidlar insoniyat oldiga yangi muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Globalashuv jarayonlarida voyaga yetayotgan, ta’lim-tarbiya olayotgan, axborotlar bilan muloqotga kirishayotgan bugungi talabalarning

ma’naviy qiyofasi jamiyatda amalga oshirilayotgan ishlar natijasida shakllanadi. Garchi bugungi kunda talabalarga munosib tarbiya berishga, ularni to‘g‘ri yo‘lga boshlashga intilsak-da, hamon ularning ma’naviyatida bo‘sqliqlar, sayozliklar kuzatilmoxda. Bu hol o‘z navbatida ular bilan yanada faol, samarali ishslashni talab etadi. Ayniqsa, ular yashayotgan hamda ko‘rayotgan bunyodkor va vayronkor, osoyishta va tahlikali zamonda talabalarni har qanday xuruj va tahdidlardan himoyalash mexanizmlarini ishlab chiqishning ayni vaqtin.

Pedagog olimlardan M.Xujayev[93], G‘.Pirnazarov[71], Sh.Taylakova [79], Z.Saliyeva[76], A.Isanova[38]lar talabalarda g‘oyaviy-mafkuraviy kompetentlikni rivojlantirish, talaba-yoshlarning huquqiy madaniyatini oshirishning zamonaviy texnologiyalari, o‘quvchi-yoshlar ma’naviyatini ommaviy axborot vositalari asosida takomillashtirish, talabalarning ma’naviy madaniyatini rivojlantirish, diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi profilaktik ishlarning ijtimoiy-pedagogik tizimini ilmiy-tadqiqot ishlarida yoritib berdilar.

Xususan, O‘zbekiston yoshlari dunyoqarashini boyitishda milliy g‘oyaning roli (I.Kuvandikov [43]), inson ma’naviy borlig‘iga sinergetik yondashuv (Z.Muminova [55]) falsafiy jihatdan, globallashuv jarayonida yoshlar siyosiy tolerantligi (Sh.Agabayev [21]), tahdidbardosh jamiyatni shakllantirish muammolari (K.Avazov [22]) siyosiy jihatdan tahlil qilingan.

K.Avazov O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurishda tahdidbardosh jamiyatni shakllantirishning sotsiokreativ xususiyatlarini ta’minlashda ijtimoiy mas’uliyatning immanent belgilari hamda ularning ijtimoiy mohiyati, globallashuv sharoitida jamiyat tahdidbardoshligini ta’minlashning gumanistik missiyasining rivojlanish tendentsiyalarini tahlil etgan [22; 13-b].

Talabalarning amaliy faoliyatlarini kuzatish va o‘rganish natijasida shuni aytish o‘rinliki, bugun tarbiyalanayotgan ayrim talabalarda ko‘proq ichki tahdidlarga beriluvchanlik kuzatilmoxda. Ya’ni bular: qanday qilib bo‘lsa ham mo‘may pul topishga intilish, tashabbuskorlikning yetishmasligi, dangasalik, boshqalar mehnatini qadrlamaslik, egoistlik, beparvolik, loqaydlik, o‘z ustida ishlamaslik va boshqalar.

Ushbu masala Prezident Sh.M.Mirziyoyev nutqlarida bot-bot tilga olinmoqda: ”Ba’zi yoshlarimiz uchun mehr-oqibat, axloq-odob tushunchalari butunlay begona bo‘lib borayotgani, ularda befarqlik, mas’uliyatsizlik, mehnat qilmasdan kun ko‘rishga intilish kabi illatlar paydo bo‘layotgani achchiq bo‘lsa-da, haqiqat” [8; 21-b.].

Bizningcha, ichki tahdidlarga berilgan talabalar faoliyatida uchrayotgan kamchiliklar quyidagi sabablar bilan bevosita va bilvosita bog‘liq:

1. Talabalarning ijtimoiy faoliyati maqsad asosida qurilmagan, ya’ni o‘z hayoti va faoliyati haqida mustaqil qaror qabul qilmagan, kelajakdagi faoliyati haqida to‘liq tasavvurga ega emaslar.
2. Talabalarda insoniy fazilatlar yetarli darajada shakllanmagan, e’tiqodi sust, milliy va umummilliylar qadriyatlar ruhida tarbiyalanmagan.
3. Talabalarga o‘z yaqinlari tomonidan barcha narsalar tezda muhayyo qilingan.
4. Talabalarning o‘z-o‘zlariga ishonch va tashabbuskorliklari o‘z vaqtida qo‘llab-quvvatlanmagan.
5. Talabalarda huquqiy bilimlar, ayniqsa, burch va majburiyatlar haqida yetarli bilim, ko‘nikma, malaka va kompetentsiyalar shakllanmagan.

Achinarli tomoni shundaki, bu salbiy illatlar talabalar xatti-harakatlarida kuzatilmoqda. Ayniqsa, talabalardagi beparvolik, loqaydlik, tashabbuskorlikning o‘ta darajada pastligi, korruptsiyaga moyillik kabi illatlar barchani birdek tashvishga solmoqda. O‘z nomi bilan mana shu kabi illatlar shaxs ma’naviyatiga ta’sir ko‘rsatuvchi ichki tahidilar hisoblanadi. Keyingi paragrafda bu haqida batafsil fikr bildirib o‘tamiz.

To‘g‘ri, barcha talabalarga shunday baho berish noto‘g‘ri, albatta, biroq dono xalqimiz aytganidek, “Birniki mingga, mingniki olamga” deganlaridek, bunday talabalarning bo‘lishi oila, millat va jamiyat taraqqiyoti uchun katta xavf tug‘diradi.

Zero, Prezident Sh.M.Mirziyoyevning barcha sa’y-harakati xalqimiz salomatligini asrash va mustahkamlash, hayotini yanada farovon qilish, tinchlik va osoyishtalikni ta’minlash masalasi bo‘lib turganda, talabalarimizdan yanada o‘z ustlarida ishlashlarini, vatanparvar, shijoatli, fidoyi, mehnatvevar, tashabbuskor kabi qator fazilat egalari bo‘lishlarini talab etadi.

Demak, talabalarimizni har qanday tahidlardan himoyalashda biz dono ota-bobolarimiz, ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan boy madaniy meros, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayanmog‘imiz va suyanmog‘imiz darkor. Shuningdek, globallashuv jarayonida talabalarda quyidagi ko‘nikma, malaka va kompetentsiyalarni shakllantirib borish lozim:

1. Talabalarni shiddatkor zamonda axborotlardan maqsadli foydalanishga o‘rgatish.

2. Ta’lim muassasalarida ma’naviy-mafkuraviy ishlarni zamon talablari asosida yangilab borish.

3. Talabalarda tevarak-atrofimizda yuz berayotgan voqealar, hodisalar va jarayonlarga befarq bo‘lmaslik, oila va yurtga dahldorlik hissini oshirish.

4. Talabalarning tashabbuskorlik, ishbilarmonlik, tadbirkorlik kabi harakatlarini qo‘llab-quvvatlash va mazkur harakatlarga ularni faol jalb etish.

5. Oila, mahalla va ta’lim muassasalari o‘rtasidagi aloqalar mexanizmini yaratish, ayniqsa, bu borada oila mas’uliyatini oshirish.

6. Talabalarning bo‘sh vaqtini samarali tashkil etishning turli shakllari va metodlarini izlab topish.

7. Talabalarning o‘rtasida sog‘lom turmush tarzi madaniyatini targ‘ib qilish, ularni o‘z sog‘liklariga ehtiyyotkorlik bilan munosabatda bo‘lishga yo‘naltirish.

Tan olish zarurki, keyingi yillarda talabalar tarbiyasida anchagina sustkashlik va beparvolikka yo‘l qo‘yildi. Ular uchun, barcha imkoniyat va sharoitlar yaratdildi, ammo ular oliy maqsadlar bilan yashashga o‘rgatilmadi. Ularning oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirishlari, kelajakda kim bo‘lishlarini ota-onalari hal qila qolishdi. Oqibatda ularning hayotiy qiziqishlari, maqsadlari o‘zlarini kabi pasayib boraverdi. Shu tariqa ayrim talabalarimizda tashabbuskorlik va shijoat so‘nib boraverdi. Vaholanki, ota-bobolarimiz o‘z bilimi va tafakkuri, shijoati bilan dunyoni lol qoldirganlar. Masalan, Forobiy, ibn Sino, Xorazmiy, Beruniy, Amir Temur, Alisher Navoiy, Ulug‘bek, Bobur, Najmiddin Kubro, Jaloliddin Manguberdi, Abdulla Avloniy, Behbudiy kabi mutafakkir va allomalarimiz nomlarini ko‘plab keltirishimiz mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning talabalar uchun yaratayotgan shart-sharoitlarini ko‘z ko‘rib quvonadi va beixtiyor shunday jamiyatda yashayotganidan g‘ururlanadi. Hatto talabalar masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Ularni jismoniy, ma’naviy, axloqiy, ruhiy kamol toptirishning nafaqat moddiy ta’minoti, balki huquqiy asoslari ham qonunlarimiz doirasida belgilab qo‘yildi. Masalan, birgina oliy ta’limga yoshlarni qabul qilish masalasida to‘xtalib o‘tiladigan bo‘linsa, yildan yilga ular uchun ko‘plab yangi imkoniyatlar eshigi ochilmoqda. Qanchadan-qancha iqtidorli, bilimli yoshlar talaba bo‘lish baxtiga tuyassar bo‘lmoqdalar. Shu bilan birga mamlakatimizda yoshlar uchun yangi ish o‘rinlari yaratilmoqda.

Ayrim talabalarimiz ana shunday jarayonlarga aralashib, o‘z g‘oya va tashabbuslarini hayotga tatbiq etmoqda. O‘z navbatida hukumatimiz ham bu yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlamoqda. Bu mashg‘ulotlar, albatta, talabalarlarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi, o‘z xulq-atvordan qoniqish hissini uyg‘otadi, jamiyatdagi voqealarda ongliroq ishtirok etishga qiziqishini oshiradi.

Hattoki, talabalarimizning mamlakat ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy sohalarida faol ishtirok etish huquqlari mavjud. Ayrim talabalarimiz mana shunday jarayonlarda qatnashib, o‘z fikr va tashabbuslarini ro‘yobga chiqarib kelmoqdalar. O‘z navbatida hukumatimiz ham bunday yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlab turibdi. Bu ishlar, albatta, talabalarda o‘z-o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshirib, xatti-harakatlaridan mammunlikni his qilib, ularning jamiyatdagi voqea-hodisalarga ongli munosabatda bo‘lib, yanada jadal ishtirok etishlariga bo‘lgan qiziqishlarini kuchaytiradi.

Bu imkoniyatlar natijasi o‘laroq ko‘plab talabalar o‘zlarining yuqori intellekti, shijoati tufayli respublika va xalqaro olimpiadalar, sport musobaqalari, san’at, madaniyat sohalaridagi ko‘rik-tanlovlarda katta muvaffaqiyatlarga erishib, mamlakatimiz sharafini dunyoga tanitmoqda.

Talabalar o‘rtasida salbiy holatlarning oldini olish, oila, mahalla va oliy ta’lim muassasa (OTM)larida sog‘lom muhitni shakllantirish masalalariga bugun barchamiz jiddiy yondashmog‘imiz lozim. Talabalarni ba’zi zararli odatlardan saqlashda oila asosiy o‘rin tutib, oilaning yoshi ulug‘lari talabalarning mustaqil qarorlarini qo‘llab-quvvatlashlari, komil inson sifatida shakllanishi va o‘z maqsadlariga erishishlariga ko‘maklashishi kerak. Aks holda talabalarning o‘z-o‘ziga ishonchi yo‘qolib, ularda o‘z faoliyatidan qoniqmaslik, iroda zaifligi, biron-bir ishga nisbatan sustkashlik rivojiana boshlaydi.

Xalqimizda farzand tarbiyasiga barcha davrlarda katta e’tibor bilan qarab kelingan. Ko‘proq yoshlarni halol, vijdonli, g‘ururli, irodali va mard insonlar bo‘lib yetishishlari uchun mehnatga jalg qilishgan. Dono xalqimiz doimo mehnat insonni ulug‘laydi, shioriga amal qilganlar. Darhaqiqat, mehnat insonni ulug‘laydi, mehnat bilan mashg‘ul bo‘lgan kishi bekorchi narsalarga vaqt sarflamaydi, o‘z vaqtini oqilona taqsimlash va rejalashtirishni biladi.

Afsuski, biz yashayotgan davrgacha ham, yengil-yelpi hayot kechirishni istaydigan, e’tiqodi sust, biror kasbning boshini tutmagan talabalar uchrab turgan. Ammo hozirgi globallashuv davrida voyaga yetayotgan yoshlar o‘rtasida ularning soni yanada ortganday. Bizningcha, bugungi kunda kompyuter, Internet, telefon kabi vositalardagi mazmunan

qashshoq, inson ruhiyatiga zarar keltiruvchi filmlar va videokliplar, hatto kattalarni ham bir pasda o‘ziga bog‘lab oluvchi turli o‘yinlar yoshlar tarbiyasiga salbiy ta’sir qiluvchi vositalarning ko‘paygani hech birimizga sir emas. Ochig‘ini aytganda, bular o‘z navbatida talabalar o‘rtasida tarbiyasizlik. odobsizlikning avj olishiga olib kelmoqda.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilgan salbiy holatlarning sodir bo‘lmasligi uchun xushyorlik va ehtiyyotkorlikni yanada oshirishimiz, muammoni o‘ta muhim deb qarashimiz darkor. Zero, talabalar mamlakatimizning buguni va ertasi.

Darhaqiqat, talabani qimmatli vaqtini o‘zi va xalqi uchun sarflashga o‘rgatishimiz, oila va Vatan degan tushunchaning muqaddas ekanligini yana bir bor his ettirishimiz biz pedagoglarning oldimizga qo‘yilgan burchimiz va maqsadimiz bo‘lmog‘i lozim.

Talaba yoshlarning ma’naviy xavfsizligiga ta’sir etuvchi omillarning murakkab tabiat, globallashuv jarayonida ularning tengligi jamiyat hayotining barcha jabhalarida kechayotgan jarayonlarni aks ettirgani uchun ustuvor yo‘nalishlarni ajratib ko‘rsatishga imkon bermaydi, chunki ular jamiyatning har bir sohalarida sodir bo‘layotgan jarayonlarni aks ettiradi (ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy, mafkuraviy, oilaviy, ma’rifiy). Biroq barcha omillar yig‘indisi talabalarning ijtimoiy muhitda shaxs, jamiyat va davlat tinchligi va osoyishtaligini ta’minalashga qaratilgan milliy yuksalish tizimi tushunchasiga mos keladi. Shu bois biz aynan shu omillarni talabalarning ma’naviyatiga ta’sir etuvchi omillar tizimida muhim ekanligini e’tirof etamiz. Shu munosabat bilan talablarning ichki tahdidlarga duchor bo‘lishi bu jamiyat taraqqiyotiga tahdid ekanligini va ularning funktional imkoniyatlarini pedagogik tahlil qilish zarurligini ko‘rsatadi.

Bizning fikrimizcha, globallashuv jarayonida talaba-yoshlar ma’naviyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan asosiy tahdidlarni ajratib ko‘rsatish mumkin: madaniyatning g‘arbiylashuvi va uni ommalashtirish; demografik inqiroz; xalqimiz xulq-atvori va ongini soxtalashtirish; ijtimoiy tengsizlikning kelib chiqishi; talabalarning ijtimoiy qatlamlarining qutblanishi; xalq farovonligining pasayishi.

Bunday xavfli vaziyatlarni bartaraf etish uchun ta’lim tizimi tomonidan taklif etilayotgan dasturlar, olib borilayotgan sa’y-harakatlarga tizimli yondashuv zarur. Ammo ular o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir doirasi bir tomonidan, ijtimoiy ishonchga; ikkinchi tomondan, talabalar farovonligini ta’minalash uchun deklarativ loyihalar bilan tavsiflanishi lozim.

## **1.2. Talabalar ma’naviyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi ichki tahdidlar va ularning ko‘rinishlari**

Ma’lumki, shaxs sifatida o‘z-o‘zini shakllantirayotgan, jamiyat rivojida qaysidir ma’noda ishtirok etayotgan talabalar ma’naviyatini yuksaltirish o‘ta nozik, qiyin, mas’uliyatlari masala hisoblanadi. To‘g‘ri, talabalar tarbiyasiga o‘zbek xalqi barcha davrlarda jiddiy yondashib kelishgan. Biroq biz tarbiyalayotgan talabalar boshqa davrlardan farqli o‘laroq, yuksak texnologiyalar, imkoniyatlar, turli g‘oyalar, bir so‘z bilan aytganda, ham salbiy, ham ijobjiy xususiyatlar ega bo‘lgan bir zamonda yashamoqdalar. Ochig‘ini aytganda, talabalarga ota-onasi, ta’lim muassasalari mahalladan ko‘ra, ko‘proq “tarbiyachilik” qiladigan tashqi ta’sirlar - ichki va tashqi tahdidlar mavjud.

Aslida farzandlarimizni bu tarbiyachilarga o‘zimiz qo‘sh-qo‘llab topshirib qo‘ymoqdamiz. Chaqaloqqa alla o‘rniga televizor yoki boshqa turli texnika vositalarida yangrayotgan, qulqoni qomatga keltiradigan qo‘schiqlarni eshittirish, qo‘liga o‘yinchoq o‘rniga telefon berish, ertak aytib berish o‘rniga DVD disklaridagi “tayyor” ertaklarni ko‘rishga undash kabi holatlar ko‘p uchramoqda. Ayrim hollarda buning nimasi yomon degan, savol ham o‘rtaga tashlanadi. Negaki, bu kabi axborot vositalarining qulayliklari juda ko‘p, ota-onaning ishi ham talay, u hamma yumushlarga ulgurishi kerak.

E’tibor qilaylik, masala qanchalik murakkab. Biroq eng muhim masala farzandlarimiz, talabalarimiz tarbiyasiku, ularni “begona”, hissiz tarbiyachilarga berib qo‘ysak, ertaga ular bizdan uzoqlashib, begonalashib ketmaydimi yoki turli axborot tahdidlariga duch kelmaydilarimi? degan savol har birimizni o‘ylantirishi tabiiy.

Yuqoridagi paragrafda to‘xtalib o‘tganimizdek, globallashuvning imkoniyatlari cheksiz bo‘lgani kabi uning o‘ta xavfli jihatlari, oqibatlari ham cheksiz. O‘ta xavfli jihat - bu ma’naviyatga tahdid, inson ongiga tahdid hisoblanadi. Dissertatsiya ishimizda tahdid tushunchasining etimologiyasi o‘rganildi va uning ma’nosini ochib berishga harakat qilindi.

2008 yilda nashr qilingan “O‘zbek tilining izohli lug‘ati (4-jildi)” da tahdid tushunchasining ma’nosini shunday yoritilgan: ”tahdid - arabcha so‘zdan olingan bo‘lib, do‘q qilish, qo‘rqitish yoki biror falokatning, qo‘rqinchli voqeanning sodir bo‘lish xavfi; xavf-xatar” [106; 41-b.].

Demak, ma’naviy tahdid nafaqat talabalar ma’naviyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, balki ularning faoliyatdan chetlashlariga, o‘zligi, oila, Vatanga daxldorlik hissini unutishlariga, dunyoqarashi va ongingin manqurtlashib

borishiga olib keladi. Ko‘pincha “tahdid” tushunchasi bilan yonma-yon “xuruj” tushunchasi tilimizda qo‘llaniladi.

“Xuruj” tushunchasining tarixi ancha uzoq davrlarga borib tutashadi. Ya’ni hijriy 38, milodiy 658 sanaga borib taqaladi. Xuruj (xavorij) arab tilidan olingan so‘z bo‘lib, “qarshi chiqish” ma’nosini ifoda etadi. “Xuruj” - bu shaxsga, jamiyatga va davlatga ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalarda qabul qilingan qarorlarga ta’sir ko‘rsatish, ijtimoiy faktlar va jamoatchilik ongini o‘ziga kerakli yo‘nalishda shakllantirishga urinish.

Ma’naviy tahdid tushunchasiga I.A.Karimov quyidagicha ta’rif bergan: “Ma’naviy tahdid deganda, avvalo, tili, dini, e’tiqodidan qat’i nazar, har qaysi odamning tom ma’nodagi erkin inson bo‘lib yashashiga qarshi qaratilgan, uning aynan ruhiy dunyosini izdan chiqarish maqsadini ko‘zda tutadigan mafkuraviy, g‘oyaviy va axborot xurujlarni nazarda tutish lozim” [10; 13-b.].

Shunday ekan, mamlakatimizda “xuruj”, ”tahdid” va uni bartaraf qilishning ilmiy-amaliy hamda metodik tomonlarini yoritib berish bevosita pedagoglar faoliyati bilan bog‘langan.

Siyosatchilar, faylasuflar, psixolog va pedagoglar “xuruj”, “ma’naviy xuruj”, “tahdid”, “ichki tahdid” kabi tushunchalarni turlicha talqin etadilar va bu borada ular bir to‘xtamga kelmaganlar. O‘zbek tilining izohli lug‘ati (4-jildi)da xuruj tushunchasiga quyidagicha ta’rif berilgan: “Arabcha so‘zdan olingan bo‘lib, olg‘a chiqish, otlanish; so‘zga chiqish ma’nosida qo‘llaniladi. 1. To‘satdan hujum qilish, hujum. 2. Issiq, sovuq kabi tabiat kuchlarining hamlesi; avjiga chiqishi. 3. Kasallikning kuchayishi. 4. Biror salbiy narsaga berilib ketish, ruju qo‘yish” [102; 671-b.].

J.Nurullayev va boshqalar tomonidan nashr etilgan “Ma’naviy tahdidlarning asosiyo yo‘nalishlari” uslubiy qo‘llanmasida ma’naviy tahdidlarni uch turga bo‘ladilar, ya’ni:


a) mafkuraviy; b) g‘oyaviy; v) axborot [64; 12-b.].

Ma’naviy tahdid va xurujlarni ko‘rinishi, ta’sir o‘tkazish doirasiga ko‘ra, ikki guruhga ajratish lozim, ular: tashqi va ichki tahdidlar.

Shaxs ma’naviyatini yemirishga qaratilgan tashqi tahdidlar qatoriga g‘oyaviy-mafkuraviy tahdidlar, narkotik moddalar va odam savdosi, ommaviy madaniyat, terrorizm, missionerlik, shovinizm, egotsentrizm, axborotlar tahdidi kabilarni kiritish mumkin. Shubhasiz, bu tahdidlar ayrim shaxslar va kuchlar tomonidan yuzaga keltirilmoqda. Bunday kuchlar tinch aholiga ta’sir etishning turli usullari va vositalarini ishlab chiqib, o‘zlarida mavjud bo‘lgan barcha imkoniyatlarni: moddiy, texnik va texnologik

manbalarni ishga solmoqdalar. Bu jarayonning nozik tomoni shundan iboratki, tashqaridan qaraganda ularni sezmaslik mumkin, lekin ular o‘zlarini namoyish qilmasdan faoliyat olib boradilar. Biroq ular shaxs ongi, dunyoqarashi, qalbi, hatto “tani”ni oson egallab, butun mamlakat, millatni bir-biriga dushmanga aylantiradi.

Mazkur tashqi tahdidlar barcha tahidlarning asosiy manbalari hisoblanadi. O‘z navbatida tashqi tahdidlar ichki tahidlarni keltirib chiqaruvchi omil hisoblanadi. Masalan, axborot tahidlari tashqi tahid hisoblanadi. Uning natijasida talabalarda axborotlarga tobeklik, yalqovlik, befarqlik kabi ularning kelajagiga rahna soluvchi ichki tahidlar paydo bo‘ladi.



**1-rasm. Ma'naviy tahdid turlari.**

Ichki tahdidlar o‘zining qamrovi va keltirib chiqaradigan salbiy oqibatlari bilan tashqi tahidlardan ham xavfliroq hisoblanadi. Uning xatarli jihatni shundaki, u jamiyatni ichdan yemiradi, davlatning rivojlanishi va taraqqiyotiga to‘sinqilik qiladi. Shu bilan birga, ichki tahid jamiyatda yashovchi turli millat vakillari o‘rtasida ziddiyatlarni vujudga keltiradi.

Xususan, ichki tahdidiga berilgan nazariy fikrlarni e'tirof etgan holda, uni quyidagicha ta'rifladik: "ichki tahdid - mentalitetimizga yot bo'lgan turli g'oyalarga asoslangan shaxs faoliyati orqali mavjud axborot resurslari (telefon, turli behayo kinolar, su'ratlar va b..)dan ko'proq foydalanish asosida shaxs ma'naviy olamiga kirib borish hamda uning me'yordagi axloqiy harakatlarini izdan chiqarishga qaratadigan omil".

Shu bilan birga "ichki tahdid"- shaxs ma'naviyatiga salbiy ta'sir qiladigan, o'zligi va qadr-qimmatini himoya qilishga layoqatsizlik, irodasiz va o'zgalar fikriga qaramlik majmuasi. Ichki tahdid - o'z-o'zidan shaxs ichki olamiga, uning insoniy sifatlariga "qarshi chiqish".

Ichki tahdid-shaxs axloqiy ongida salbiy tushunchalar, tuyg'ular, xususiyatlar va sifatlarni hosil qiluvchi illatlar majmui. Ichki tahdid shaxsni aqliy va axloqiy jihatdan buzishga qaratilgan maqsadli xatti-harakatlar hisoblanadi.

Ichki tahdid - talabalarning ma'naviyati, barqaror faoliyatining barcha jabhalari (o'qish, mehnat, faoliyat) faollashuviga asoslangan yaxlit tizim sifatida rivojlanishiga imkon bermaydigan omil sifatida tushuniladi.

Tarixdan ma'lumki, Xitoy qo'mondoni (ml. av. IV asr) Sunn Szin har bir davlatni bosib olishda quyidagi aqidaga qattiq amal qilgan. Agar kurashda g'olib bo'lmoqchi bo'lsangiz: "Siz raqib mamlakatdagi barcha yaxshi narsalarni buzing, ayniting; raqib davlat rahbariyatining obro'sini to'king, qulay paytda ularning jamiyat oldida sharmandasini chiqaring. Bu ishda o'sha mamlakatdagi eng past, maraz odamlar bilan sheriklik qiling; raqib mamlakat odamlari orasida kelishmovchilik, janjal chiqaring; yoshlarni keksalarga qarshi gjij-gijlang; hukumatni yaxshi ish yuritishiga har qanday yo'l bilan qarshilik ko'rsating; dushmaningizning an'analarini qadrsiz-lantiring, xudolariga bo'lgan ishonchini sindiring", - degan fikrlari ham buni tasdiqlaydi [30; 16-b.].

Bundan ko'rinadiki, har qanday kuchli raqibning ma'naviy tafakkuri ni shikastlash uning yengilishi uchun yetarli asos bo'la oladi. Ichki tahidilar ana shu jihatdan ham global muammo hisoblanadi. Bu borada mutafakkir Abu Nasr Forobiyning "Fozil odamlar shahri" asarida: "Jaholatdagi shaharlar, (aholisini) maqsadlarini ko'zlaydigan (obro'-izzatga, mol-dunyoga, boylikdan rohatlanishga intiladigan) odamlar esa alohida toifa. Bunday odamlar fozillar shahrida hali maqsadlar bilan yashash ta'qiqlanganini ko'rib, u yerdagi (adolatli) qonunlarni buzishga, haqiqatga aloqador narsa-lardan uzoqlashishga, (bu qonun - qoidalar, tasavvurlarni) buzib aks ettirishga urinadilar. Ular bunga ikki yo'l bilan erishadilar: ular yuqorida aytilgan bahsli o'rnirlarni o'zlaricha taxmin

qiladilar; ikkinchi-dan, soxta donolik va aldov yo‘liga o‘tadilar. Ular jaholat va tuban maqsadlariga erishuviga hech kim to‘sinqlik qilmasligi uchun shunday yo‘ldan boradilar. Bunday odamlarni fazilatli shaharlar jamoasiga qabul qilmaslik kerak” [15; 169-b.].

Mutafakkirning axloqsiz, buzg‘unchi g‘oyalarini targ‘ib etish, ma’naviy xurujning yuzaga kelishi jaholatdagi va adashgan shaharlar aholisining xatti-harakatlari, tutgan yo‘llari fozil shahar aholisi uchun, xavotirli va xatarli ekanligini isbotlab bera olgan.

Ichki tahdidlar va ma’naviy xuruj o‘z mohiyatiga ko‘ra, eng avvalo, talabalar ongi, shuuriga hamda xulq-atvoriga xavf solishda namoyon bo‘ladi. Bu esa talabalar qalbini negativ g‘oyalar, fikrlar bilan to‘ldirishga imkon beradi. Ana shunday g‘oyalar oqibatida o‘zidan, o‘zligidan yiroqlashtirishga, ma’naviyatga zid axloqsiz (axloqsiz kinolarni ko‘rishga qiziqish, giyohvandlik, odam savdosi, SPID, koronavirus kasallikkleri) hayot tarziga bilib-bilmay kirib ketishlariga ta’sir etmoqda. Bu esa talabalarda axloqiy fazilatlarni mensimaslik, milliy meros va qadriyatlarni qadrlash, o‘rganish va o‘rgatishga ishtiyoqning yo‘qolishi, halol mehnat qilishga, kasb sirlarini o‘zlashtirishga, eng achinarlisi talabalarda milliy g‘urur tuyg‘usining yo‘qolishi kabilarda ko‘rinadi.

Ichki tahdidlarning eng xavfli jihat davlat va jamiyatning ma’naviy barqarorligiga rahna solishga imkon beradi. Chunki jamiyat a’zolarining ma’naviy ongi vatan taraqqiyotini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi. Talabalarda ichki tahdidlarning oddiy ko‘rinishlari quyidagi xatti-harakatlarida ko‘rinadi:

ta’lim olayotgan o‘rtoqlarini bemaqsad bezovta qiladilar; muvaffaqiyatga erishgan do‘stlarini muvaffaqiyatini kamsitadi, mazax qiladi; do‘stlariga, yaqinlariga shafqatsiz munosabatda bo‘lish; atrofdagilarni hasad qilish uchun har qanday hazilni bajaradi; har bir fursatda, so‘zları va munosabatlari bilan yomonlikni tarqatishga harakat qiladi.


Mazkur harakatlarni keltirib chiqaruvchi omillar mavjud bo‘lib, ularni quyidagi 2-rasmida keltirib o‘tamiz (2-rasmga qarang).

Mavjud manbalarni o‘rganish va tahlil qilish natijasida quyida keltirilgan omillar talabalarda ichki tahdidga yetaklab boruvchi, uning rivojlanishiga imkoniyat, shart-sharoit yaratib berishiga ishonch hosil qilindi.

Ichki tahdidlarni keltirib chiqaruvchi omillar quyidagilar:

Eng avvalo, talabalarning ijtimoiy kelib chiqishiga; tarbiyalanganlik darajasiga; oilaviy munosabatlarida talabaning o‘z o‘rni va ovozga egaligi


yoki aksi eganligi; talabalarning qiziqishlari, intilishlari aniq maqsadga egaligi; shaxslararo munosabatga kirisha olishiga; xalq



## **2-rasm. Ichki tahdidlarni keltirib chiqaruvchi omillar.**

ma'naviyati, an'ana va qadriyatlariga, urf-odatlariga, udumlariga, marosimlariga hurmat ko'rsata olishi hamda faxrlana olishiga; ichki tahdidlarni keltirib chiqaruvchi omillar milliy qadriyatlarimizga bo'lgan axloqiy me'yirlarga, talabalar qarashlarining tubdan o'zgarganligiga; G'arb madaniyatiga qiziqishning ortib borishi, "madaniyatli" talaba qiyofasining shakllanishiga; talabalarning e'tiqodining mustahkam emasliklariga; tahsil olayotgan ta'lim muassasalarida milliy-ma'naviy qadriyatlarning mazmun-mohiyati bilan tanishtirish o'rniغا shaklga asosiy e'tibor qaratilayotganligiga; pedagog xodimlarning milliy-ma'naviy, axloqiy qadriyatlar (udumlar, urf-odatlar, an'ana, marosimlar)ning tub asosi, ular negizida muayyan xatti-harakatlarning aks etish sabablarini chuqr ekanligi; talabalarning qiziqishlari, intilishlari aniq maqsadga bilmasliklariga; oilada ota-onas, farzandlarning munosabati ijobiy tavsifda emasligi (ayol va erkak pozitsiyasining almashayotgani)ga; talabalarni oilaviy hayotga tayyorlashda ularning mas'uliyatni anglatishga qaratilgan tarbiyaviy tadbirlarning tizimli yo'lga qo'yilmaganligiga; sog'lom turmush tarzi

madaniyatiga amal qilmasligi (spirtli ichimliklar, narkotik moddalar qabul qilish, behayo filmlar va b.)ga; talabalarda mehnatga ongli munosabatni shakllanmaganligi; talabalarning ongida mehnatsiz “tez boylik orttirish” g‘oyasini o‘zida aks ettiruvchi ma’nan sayoz, yuksak ma’naviy-axloqiy qiymatga ega bo‘lmagan, “qo‘l uchida” yaratilgan “badiiy asarlar”ni tarqatish; talabalarni tafakkur qilishga, ijodkorlikka, ixtirochilik va bunyodkorlikka undaydigan ommaviy targ‘ibot-tashviqot ishlarning natijalari kutilgan natija bermasligi; talabalar bir zum ham internet, mobil aloqa vositalaridan uzoqlasha olmay qolishi, uning salbiy ta’siri doirasiga tushib qolayotganliklariga; talabalarning ma’naviy-axloqiy tarbiyaga mos kelmaydigan, so‘zi va mantig‘iga tushunib bo‘lmaydigan rasmlar, qo‘sishlar, kliplarga extiyojining yuqoriligidagi. Bu kabi omillarni tahlil qilish asosida ichki tahdidlarning ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy, ruhiy oqibatlari hamda unga xos bo‘lgan xususiyatlarni sanab o’tish imkoniyati yuzaga keladi (3- rasmga qarang).



### **3-rasm. Ichki tahdidlarning asosiy xususiyatlari.**

Yuqorida ta’kidlangan tahdidlar: e’tiqodsizlik, beparvolik, xudbinlik, loqaydlik, ishyoqmaslik, mahalliychilik, korruptsiya va manfaatparast-lik, boshqalarni mensimaslik, hasad, sotqinlik singari illatlar shaxslar

o‘rtasidagi munosabatlarga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bunday shaxslarning aksariyati jamiyat talablariga bo‘ysunishni istashmaydi. Doimo nimadandir norozi, nimanidir o‘zgartirish kerak deb hisoblashadi. Quyida ularning har biriga batafsil to‘xtalib o‘tamiz.

E’tiqodsizlik - ayrim shaxslardagi xavfli ichki tahdidlardan biri. Bunday shaxslarda muayyan, aniq biron-bir g‘oya yoki shaxslarga nisbatan ishonch shakllanmagan bo‘ladi. Ular bugun bir g‘oyaga, ertaga boshqa bir g‘oyaga ergashib ketaverishadi.

E’tiqodsiz shaxslarning mustaqil fikrashi chegaralangan hamda ular uchun sadoqat va vafodorlik kabi olivjanob fazilatlar muhim ahamiyat kasb etmaydi. Xalqimiz tili bilan aytganda, bunday shaxslar “tuturiqsiz” kishilar hisoblanadi. Ular biron-bir kasbda uzoq faoliyat yurita olmaydilar, chunki sabr va iroda ularda to‘liq shakllanmagan. Ayniqsa, e’tiqodsizlik talabalar hayoti va kelajagiga xavf soladi. Ularning jamiyatda o‘z o‘rinlarini topishida qiyinchilik tug‘diradi. Shu bilan birga, bunday shaxslarning jamoada obro‘-e’tibori bo‘lmaydi.

Falsafiy va boshqa manbalar tahlilidan kelib chiqib, ta’kidlash joizki, e’tiqodsizlik bilimsizlik hamdir. Chunki e’tiqodning mazmunini bilim tashkil etadi. Bilimsiz e’tiqod bo‘lmaydi. Inson kimga yoki nimaga e’tiqod qilayotganligini bilishi muhim hisoblanadi. Shu bois e’tiqodsiz insonlar goh u, goh bu tomonga og‘ib yashaydilar. Ular oldida turgan yo‘lning qaysi biri to‘g‘ri yo‘l ekanligini bilishda qiynaladilar. Shu bois ularning xatti-harakatlarida tavakkalchilik namoyon bo‘lib turadi.

Inson hayoti davomida ko‘p narsalar, kimsa, biron-bir g‘oya, tanlagan kasbiga e’tiqod qiladi. Shaxslarning hayoti davomida ota-onasi, ustozи, Vatani, kasbiga e’tiqod qilishi, ularning o‘z hayotidan mammunlik, xotirjamlik, albatta, farovon yashashini kafolatlaydi. E’tiqodsizlikda esa buning aksi bo‘ladi. Shunday ekan, talabalarda mustahkam e’tiqodni shakllantirish jamiyatimiz ziylilar qatlami, ta’lim muassasalari, mahalla va oila oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir.

Dangosalik - dunyodagi ko‘plab shaxslarda uchraydigan salbiy illatlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, bu illat bugungi kunda Yevropa mamlakatlari xalqlari, jumladan, talabalar o‘ratasida ko‘plab uchramoqda. Dangosalikni keltirib chiqaruvchi ko‘plab salbiy omillar mavjud bo‘lib, ular shaxsning faol harakat qilishiga to‘sinqinlik qiladi. Shulardan biri-bu fan-texnikaning jadal rivojlanishi natijasida insonlar uchun yangi qulayliklarning yaratilishi. Masalan, texnika vositalarini simsiz boshqaruvchi moslamalarni olishimiz mumkin (pult). Ular orqali kishilar o‘rnidan turmasdan televizor, konditsioner kabilarni yoqishi, o‘chirishi,

boshqa kanalga o‘tkazishi, ovozini pasaytirish, ko‘tarish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Albatta, bu kishilar uchun qulaylik hisoblanadi. Biroq shunday insonlar borki, umrini yumshoqqina o‘rindiqda harakat qilmasdan o‘tkazayotganlar ham bor. Bu harakatsizlik ularning sog‘lig‘iga misli ko‘rilmagan darajada xavf soladi. Semizlik qand kasalligi, bepushtlik, yurak kasalliklari va oshqozon-ichak, jigar faoliyatining buzilishi, tayanch-harakat tizimidagi o‘zgarishlar aynan dangasa kishilarda ko‘proq uchraydi.

Bunday insonlar nafaqat sog‘lig‘ini erta yo‘qotadilar, balki jamiyatda faol shaxs sifatida namoyon bo‘lmaydilar. Doimo kimnidir yordamiga muhtoj bo‘ladilar. Talabalar o‘rtasida dangasalik uchrashi ularning ta’lim olishlariga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Izlanish, turli xil tadbirlerda ishtirot etish, do‘srlar orttirish, tashabbuskorlik ular uchun ortiqcha harakatdek tuyuladi. Ular hamma narsaga oson erishish yo‘lini qidiradilar. Afsuski, bugungi davr talabalardan harakatchan, epchil, chaqqon, mehnatsevar bo‘lishlikni talab qiladi.

Xalqimiz bu masalaga barcha davrlarda jiddiy e’tibor berib kelishgan. Ular dangasalikni illat sifatida qoralaganlar va o‘z farzandlarini kichikligidayoq halol mehnat qilishga da’vat etganlar. Darhaqiqat, mehnat insonni ulug‘laydi, yuksaklarga ko‘taradi, farovon yashash imkoniyatini yaratadi, shu bilan birga insonni salomat bo‘lishiga olib keladi.

Tashabbuskorlikning yetishmasligi - bu kuchli ichki tahdidlardan biri. Afsuski, talabalarimiz o‘rtasida ko‘p uchraydigan va ulardagi qobiliyat, ishbilarmonlik, bunyodkorlik, yaratuvchanlik, ijodkorlikning so‘nishiga sabab bo‘luvchi omillardan biri. Afsuski, bu illat talabalar o‘rtasida ham uchrab turadi. Hattoki, shunday talabalar borki, ularning to‘rt yil davomida biror marta oddiygina bir tashabbus bilan chiqqanini, faol bo‘lganini ko‘rmaysiz. Bunday talabalar “menga tegma, men senga tegmayman” qabilida ish tutuvchilar hisoblanadi. Ular yangilik yaratishni yoki yaratgan yangiliklarini boshqalarga taqdim qilishni istashmaydi. Cunki ular hayotda nofaol shaxslar hisoblanadi.

Ommaviy tadbirlar, ko‘rik-tanlovlari, turli bahs-munozara kechalarda qatnashish yoki uyuştirish ular uchun ortiqcha dahmazadek go‘yo. Prezident Sh.M.Mirziyoyev talabalarning tashabbuskorligini qo‘llab-quvvatlash borasida ko‘plab ishlarni amalga oshirib kelmoqda. Shunday ekan, yoshlarimiz har bir sohada tashabbuskor bo‘lmoqlari lozim.

Zero, jamiyatni yuksaltiradigan, uni rivojlangan mamlakatlar qatoridan o‘rin egallashiga olib keladigan-bu tashabbuskorlik. Bir kunda dunyoda tashabbus tufayli minglab, millionlab ezgu ishlar amalga oshiriladi. Yaxshi va tashabbuskor kishilar tomonidan uysiz kishilar

boshpanaga ega bo‘ladilar, ariqlar qazilib, bog‘u rog‘lar yaratiladi, kam ta’minlangan oila farzandlari ta’limni davom ettirish baxtiga ega bo‘ladilar, ota-onasiz, qarovsiz bolalar o‘z oilasiga ega bo‘lishadi, keksalar holidan xabar olinadi. Milliy tarbiyada ham bu borada tahsinga loyiq g‘oya va qarashlar bor. Aynan bu ishlarda xalqimiz talabalar ishtirokidan samarali foydalanib kelganlar. Ularning maqsadi bu oliyjanob fazilatni talabalarga o‘rgatish va kelgusi avlodlarga meros qilib qoldirish bo‘lgan.

O‘zbek mahallalarida doimo tashabbuskor insonlar tufayli yordamga muhtoj oilalarga ham moddiy, ham ma’naviy ko‘mak berib kelinadi. Kimningdir tashabbusi bilan chala qolgan uyning tomi yopiladi, kimningdir tashabbusi bilan pishib yetilgan hosillar terib olinadi Zero, dono halqimizda “Ko‘pdan quyon qochib qutulmas” - degan maqol, mana shunday ezgu ishlarga nisbatan aytilgan bo‘lsa, ajab emas.

Quvonarlisi, bugungi kunda shunday insonlar oramizda ko‘plab uchraydi. Ayniqsa, tadbirkorlar, ishbilarmon va saxiy insonlar tomonidan har kuni turli tashabbuslarga qo‘l uriladi.

Demak, tashabbus faqat yaxshilik, insoniy qadr-qimmat, oliyjanoblik, saxiylik uchun xizmat qiladi. Shuningdek, talabalarni tashabbuskorlik sari yo‘naltirish lozimki, ular yurt va xalq dardi bilan yashashga o‘rganib borishadi.

Befarqlik. Har qanday jamiyatni parokandalikka olib keluvchi illat-bu e’tiborsizlik, loqaydlik va befarqlik. Xalqimiz bunday kishilarni allaqanday hissiz, jonsiz bir narsaga o‘xshatib keladilar. Darhaqiqat, bunday kishilar tevarak-atrofida bo‘layotgan voqeа-hodisalarni ko‘rib, his etib tursa-da, “Bu menga taalluqli emas” yoki “Bu mening muammom emas” deb o‘tib ketaveradilar. Bu bilan ular o‘zlarini guyoki ortiqcha muammolardan xalos etmoqchi bo‘ladilar. Ammo bilishmaydiki, ularning bu befarqligi katta bir falokat yoki muammoga sabab bo‘lishi, hatto yurt tinchligiga rahna solishi mumkin. Shu bilan birga, insonlarning jamiyat hayotidagi o‘zgarishlar, islohotlarga befarqligi, doim “o‘z qobig‘i” ga o‘ralib olishi taraqqiyotga g‘ov bo‘lishi mumkin. “Barchamizga ayon bo‘lishi kerakki, deb uqtiradi I.A.Karimov, - qayerdaki beparvolik va loqaydlik hukm sursa, eng dolzarb masalalar o‘zi bo‘larchilikka tashlab qo‘yilsa, o‘sha yerda ma’naviyat eng ojiz va zaif nuqtaga aylanadi” [10;116-b.].

Shubhasiz, talabalar o‘rtasidagi beparvolikning oldini olishda ma’naviy tarbiyaga e’tiborni yanada kuchaytirish lozim. Avvalam bor, bu masala oiladan boshlanishi, talabalar o‘z oila a’zolarining hayoti va kelajagiga befarq bo‘lmasligi, jamiyatda sodir bo‘layotgan har bir voqeа-

hodisaga o‘zlarini dahldor deb his etishlari kerak. Ayniqsa, globallashuv davridagi muammolar talabalarimizdan yanada hushyor va sergak, aslo beparvo bo‘lmasliklarini talab etadi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida bu masalada yurtimizda ko‘plab tadqiqot ishlari amalga oshirildi. Ya’ni diniy ekstremizm, terrorizm, missionerlik, axborotlar xuruji, ommaviy madaniyat kabi tashqi tahdidlar va ularga nisbatan yoshlar immunitetini oshirish maqsadida barcha ta’lim muassasalari, tashkilot va idoralar, qolaversa, keng jamoatchilik o‘rtasida targ‘ibot-tashviqot ishlari amalga oshirildi. Ayni kunlarda yurtimizda bu targ‘ibot-tashviqot ishlari davom etib kelmoqda. Aytish joizki, qaysidir ma’noda xalqimiz ongida bu masalaga nisbatan hushyorlik shakllandı. Biroq talabalar o‘rtasida ichki tahdidlarga nisbatan beparvolik va loqaydlik hamon mavjud. Bizningcha, talabalarda quyidagi holatlar befarqlikni keltirib chiqarmoqda:

Birinchidan, talabalarda ta’lim va bilim olishga nisbatan befarqlik va loqaydlikning mavjudligi. Bu nimalarda namoyon bo‘ladi, ya’ni berilgan topshiriqlarni o‘z vaqtida bajarmaslik, baho olishda “kimgadir” ishonish, ko‘chirmachilik, do‘stlardan yordam olish va boshqalar.

Ikkinchidan, o‘zini oila va jamiyat oldida burchli ekanligini his etmaslik, faqat o‘zini o‘ylash, o‘z qobig‘iga o‘ralib olish.

Uchinchidan, “o‘z men”ini ustun qo‘yish, o‘z-o‘ziga bino qo‘yish, boshqalarni mensimaslik.

To‘rtinchidan, milliy qadriyatlar ruhida yetarlicha tarbiyalanmaganlik va boshqalar.

Xudbinlik - shaxs xatti-harakatidagi salbiy illatlardan biri. Bu illat o‘z navbatida shaxs hayoti va faoliyatiga tahdid soluvchilardan xavflardan hisoblanadi. Negaki, xudbin inson faqat o‘z manfaati uchun yashaydi, boshqalarning muammosi uni aslo qiziqtirmaydi. Kishilar bilan munosabatga kirishganda ham o‘zini o‘playdi. Samimiylilik, dilkashlik, dardkashlik ular uchun ikkinchi darajali xarakter kasb etadi. Ayrim hollarda bunday shaxslar xatti-harakatida ikkiyuzlamachilik ham kuzatiladi. Chunki ular ikkiyuzlamachilik yo‘li bilan o‘z maqsadlariga oson erishish mumkinligini yaxshi bilishadi. Jamiyatda bunday shaxslar kamchilikni tashkil etsa-da, biroq ularning xatti-harakatidagi xavf har qanday jamoa ahilli va jipsligiga rahna solib turadi. SHu bilan birga, bunday shaxslar oila va jamiyatda o‘z obro‘yiga ega bo‘lmaydi. SHubhasiz, xudbin kishining xatti-harakati har qanday jamoa a’zolarining shu shaxsga nisbatan noroziligi va e’tiborsizligiga olib keladi.

Demak, xudbinlik axloqiy fazilatlarga zid bo‘lgan salbiy illat bo‘lib, saxiylik, oliyjanoblikning teskarisi. Xudbin inson adolatsiz, insofu diyonatsiz, berahm, xasis shaxslar. Ular o‘zlari yaxshi ko‘rgan narsalar, qulayliklarni boshqa kimsalarga ulashishni istashmaydi. Hatto ular o‘z fikrlarini boshqalarga o‘tkazmoqchi, haq ekanliklarini ko‘rsatib qo‘ymoqchi bo‘ladilar. O‘z-o‘zidan savol tug‘iladi, xudbinlik talabalarda qanday paydo bo‘ladi?

Bizningcha, talabalardagi xudbinlikning avj olishiga quyidagi omillar sabab bo‘lishi mumkin:

1. Oilada bolaning kichikligidayoq barcha xohish va istaklarining keragidan ortiq bajarilishi.
2. Bolani taltaytirib o‘stirish, haddan ortiq erkalatish.
3. Bolani boshqalar oldida doimo maqtash, ayblarini xaspo‘shlash.
4. Bolada boshqalar uchun ham mas’ullik hissini tarkib toptirmaslik va boshqalar.

Ushbu omillarga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, ko‘proq bolalardagi xudbinlikning kelib chiqishiga oilaviy tarbiyaning noto‘g‘ri tashkil etilganligi sabab bo‘lmoqda. Shuning uchun ota-onalar o‘z farzandlarini bolaligidayyoq taltaytirib o‘stirmasligi, aksincha, oliyjanob fazilatlar ruhida tarbiyalab borishlari lozim.

Ayniqsa, globallashuv davrida bu masalaga jiddiy e’tibor qaratishimiz lozim. Chunki talabalar bizning kelajagimiz va jamiyatimiz tayanchi. Shu bois talabalarni xalq va yurt ravnaqi yo‘lida yashashga, ota-onalariga, yaqinlariga g‘amxo‘rlik qilishga hamda fidoyi bo‘lishga o‘rgatib borish darkor.

Talabalar ma’naviyatiga o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatayotgan ichki tahdidlardan yana biri - bu milliy o‘zlikdan yiroqlashish hisoblanadi. Bu globallashuv jarayonlarida talabalar tarbiyasida yaqqol namoyon bo‘layotgan salbiy illatdir. Bugungi davr talabalari tarbiyasida milliy qadriyatlarga xos tarbiyadan ko‘ra, turli xil ko‘rinish va shaklga ega bo‘lgan o‘zgacha tarbiya elementlari ko‘p uchraydi. Bu ularning so‘zlashuvidan tortib kiyinishi, o‘zini tutishi va boshqa ko‘plab jihatlariga o‘z ta’sirini o‘tkazib ulgurdi. Masalan, ayni kunlarda talabalar salomlashishning bizning madaniyatimiz va mentalitetimizga xos bo‘limgan o‘nlab turidan foydalanib kelmoqdalar.

Xuddi shunday so‘zlashishda ham bir varakayiga turli millat jargonlaridan foydalanish hollari uchrab turibdi. Ayniqsa, ayrim talabalarning kiyinishi qaysi millatga xos ekanligini bilib bo‘lmas darajaga

yetdi. Bu holat o‘z navbatida o‘zligimizdan begonalashishimizga, milliy xususiyatlardan yiroqlashishimizga olib keladi.

Zero, hech bir millatda uchramaydigan milliy madaniyat bizning xalqimiz qadriyatlarida mujassam. To‘g‘ri, har bir millatning o‘z madaniyati bor. Hatto shunday millatlar borki, ularning madaniyatidan o‘rnak olsa arziydi. Biroq talabalar tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan tayinsiz madaniyatlar ham borki, ular faqat kelajak avlodni jarlik tomon olib boradi. Ayrim talabalarimizdagи axloqsizlik, behayolik, narkomaniya kabi illatlar aynan shu turli madaniyatlar ta’sirida shakllanmoqda.

To‘g‘ri, bu illatlar talabalar o‘rtasida kam uchrasa-da, biroq ular bilan munosabatga kirishib turgan do‘satlari, qo‘ni-qo‘shnilari, qarindoshlari orasida ko‘plab uchraydi. Ota-onaga hurmatsizlik, vatan oldidagi burch va majburiyatni his etmaslik, o‘z holicha yashashni istash kabilar ham afsuski, milliy o‘zlikdan begonalashish.

Zero, bizning ota-bobolarimiz ota-onada va vatan oldidagi burchlarini chuqur anglagan insonlar bo‘lishgan. Demak, bu borada, talabalarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash uchun ma’naviy va moddiy yetarli.

Keyingi yillarda ba’zi talabalarimizda andishasizlik illati ko‘zga tashlanmoqda. Andishasizlik va betgachoparlik illati ichki tahdidlardan biri bo‘lib, ayniqsa, bu illat talabalar o‘rtasida tez-tez namoyon bo‘lib turibdi. Bunda talabalarimiz go‘yo o‘zlaricha o‘z haq-huquqlarini himoya qilayotgandek ko‘rinsalar-da, xatti-harakatlaridagi nomaqbul ishlar andishasizlikdan dalolat berib turadi. O‘zidan kattalarning gapini bo‘lish, baqir-chaqir, boshqalarni tinglamaslik, kimlarnidir nomidan foydalanib, do‘q-po‘pisa qilish kabilar andishasizlik belgisi.

Vaholanki, xalqimiz qadimdan oilada bu masalaga alohida e’tibor bergenlar va ayniqsa, qiz bola tarbiyasiga jiddiy qaraganlar. Ularni andishali, ibo-hayoli, iffatli qilib tarbiyalashda oiladagi katta yoshdagi ayollarga alohida vazifa yuklatilgan. SHu bilan birga, ularning kamtar, odobli, mehribon, mehnatsevar bo‘lib yetishishlari uchun turli tarbiya usullari va manbalardan samarali foydalanishgan. Masalan, oilada ota maqomining yuqori bo‘lishi farzandlar tarbiyasiga misli ko‘rilmagan darajada ijobjiy ta’sir ko‘rsatishini yaxshi bilgan xalqimiz oila boshlig‘i erkak mavqeyini yuksakka ko‘targan. Shu ruhda tarbiya topgan talabalar ota yuziga tik boqmaganlar, uning har bir gapi so‘zsiz ado etilgan.

Farzandlar doimo ota-onada rizoligini olish uchun harakat qilishgan. Mana necha ming asrki, aksariyat o‘zbek oilalarida shunday ijobjiy holat hukmronlik qiladi. Biroq hozirgi zamonda shunday talabalar borki, nafaqat begonalarga, balki ota-onasiga andishasizlik qiladiganlari ham uchrab

turibdi. Ko‘plab yosh oilalarning parokanda bo‘lishiga ham yoshlarning andishasizligi sabab bo‘lmoqda. Ko‘rinadiki, masala ham naqadar jiddiyki, bu keng jamoatchilik, butun xalqimizning ishtiroki va qo‘llab-quvvatlashini talab qiladigan umummilliy masala hisoblanadi.

Ichki tahdid ko‘rinishlarining eng muhim tomonlaridan yana biri - ma’nan zaiflik hisoblanadi. Ma’nan zaiflik - ma’naviy hayot hodisasi, jamiyat, davlat yoki xalqning ma’naviy masalalarda shaxs ishtirokining sezilarli emasligi, ma’naviyatga yetarli e’tibor bermaslik, tarbiya sohasida o‘zibo‘larchilikka yo‘l qo‘yish kabi loqaydlikda namoyon bo‘luvchi ijtimoiy ojizlik holati.

Bizningcha, ma’naviy zaiflik-shaxsning o‘z manfaatlari va ko‘nglidagi orzu-intilishlarini ro‘yobga chiqara olmasligi, kelajagini taraqqiyot sari boshlay olmasligi, maqsadlar yo‘lida fidokorlik, tashabbuskorlik kabi sifatlarning uyg‘unlashmaganligi va puxta o‘ylangan va muntazam olib boriladigan ma’naviy-axloqiy tarbiya tizimining shaxs hayotida amaliy ifoda topmagani natijasida hosil bo‘ladi.

Ma’naviy zaiflik shaxsni parokandalikka olib keluvchi, uning kelajagini barbod qiluvchi oqibatlarga olib kelishiga sabab bo‘la oladi. Ma’nan zaiflik tarkibida giyohvandlik (shaxs ma’naviyatiga zid bo‘lgan, uning ijtimoiy-ruhiy holatini butkul izdan chiqaradigan g‘oyat xatarli illat. Bu shaxs ma’naviy qiyofasida, fe’l-atvorida axloq-odob me’yorlariga bepisandlik, xatti-harakatlarida tajovuzkorlik namoyon bo‘ladi), alkogolizm, turli axloqsizlik kabi shaxs sifatlariga yot bo‘lgan illatlar mavjud. Ushbu illatlar shaxsda e’tiqodsizlik, milliy qadriyatlardan voz kechish, milliy til, urf-odat va an’analarni mensimaslik kabi harakatlar-ni avj oldirib, ma’nan zaiflikning o‘ziga xos ko‘rinishlari sifatida namoyon bo‘ladi. Ma’nan zaiflik o‘z tarkibiga mas’uliyatsizlik, loqaydlik, beparvolik kabi salbiy harakatlarni birlashtiradi.

Bizningcha, mas’uliyatsizlik - axloqiy kategoriya qarama-qarshi ravishda insonning o‘zi va o‘zgalar oldidagi, davlat va jamiyat oldidagi burchini bajarmaslik, irodasizlik va ma’nan zaifligida o‘z ifodasini topadi. Mas’uliyatsizlik talabalarda: o‘z-o‘zini nazorat qilmaslik; atrofdagi voqeahodisalarga e’tibor-sizlik; axboriy ma’lumotlarni tahlil qila olmaslik; o‘z hayotidan doimiy qoniqish; qiziqishning kuzatilmasligi bilan kechadigan psixologik jarayonlarda ko‘rinadi.

Mas’uliyatsizlikning aksi bo‘lgan kategoriya-bu mas’uliyat. Mas’uliyat - ma’naviy, ijtimoy va huquqiy sohalarda keng qo‘llaniladigan tushuncha bo‘lib, ma’naviy jihatdan qaralganda, “ma’naviy burch”, davlat va jamiyat, insoniyat oldidagi “ma’naviy qarzdorlik” ijtimoiy tartibga

solistning turli me'yorlarini amalga oshirishni nazarda tutuvchi jamoatchilik nazoratining namoyon bo'lishi; shuningdek, yuridik javobgarlikni anglatadigan serqirra va keng ma'noli tushuncha.

Mas'uliyat azaldan falsafiy, axloqiy, psixologik sohalarga xos ko'plab masalalarning murakkab majmuini qamrab oladi. Bu esa shaxs murakkabligi va o'ziga xosligi bilan belgilanadi. Har qanday shaxs maqsadga erishishida o'z tabiatiga ko'ra, erkin ekaniga qaramay, uning shaxsiy hayoti butun insoniyat hayoti oldidagi mas'uliyati bilan uzviy bog'liq. Shu sababli mas'uliyat shaxsnинг har bir xatti-harakatida namoyon bo'lib, o'zi va o'zgalar tomonidan baholanadi. Aynan mas'uliyatsizlik mazkur shaxs sifatining aksi hisoblanadi.

Umuman olganda, talabalarni ichki tahdidlardan himoya qilish jamiyatning ma'naviy farovonligi, uning ijtimoiy rivojlanish darajasi ko'rsatkichi. Chunki talabalarning ma'naviy-axloqiy xatti-harakatlari hayot sohasidan qat'iy nazar, jamiyatning barcha muammolari va tashvishlarini ochib beradi. Bugungi globallashuv jarayonida, pedagogik bilimlar doirasida ichki tahdidlar kontseptsiyasi imkoniyati hali to'liq yoritilmagan. Bu holat talabalar ma'naviy xavfsizligining asosi sifatida qator muammolarda muhim o'rinnegallashi bilan tavsiflanadi.

Demak, talabalarni ham tashqi, ham ichki ta'sirlardan himoya qilishning asosiy va yagona yo'li-bu oila va jamiyatda talabalar tarbiyasiga befarq bo'lmaslik. Bu borada, albatta, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayanishimiz darkor. Zero, talabalar tarbiyasi go'zal, tafakkuri yuksak, ma'naviyati yetuk bo'lsa, hech bir tahdid xavf sola olmaydi.

Biz ichki tahdidlarni o'rganar ekanmiz, ular talabalar ma'naviyatiga bir vaqtning o'zida katta kuch sifatida ta'sir ko'rsatishi mumkinligi va talabalarda ham ma'naviy, ham jismoniy og'ishlarni keltirib chiqarishi mumkinligini ta'kidlab o'tmoqchimiz.

Bular quyidagilar:

- a) inson salomatligi va ruhiyatining izdan chiqishi;
- b) qabul qiluvchining irsiyatiga ta'siri, nosog'lom bolalarning dunyoga kelishi;
- v) nosog'lom oilalarning vujudga kelishi yoki oilaning barbod bo'lishi;
- g) shaxsning jinoyat ko'chasiga kirib ketishi;
- d) shaxsning sog'lom turmush tarzidan, ish, jamoadan ajralib qolishi va boshqalar.

Kuzatishlarimizga ko‘ra, ichki tahdidlar iskanjasiga tushib qolgan talabalar sog‘lom hayoti va ma’naviyatini yuksaltirish bir muncha qiyin jarayon hisoblanadi. Tevarak-atrofdagi tashqi ta’sir kuchlari esa xuddi ana shunday kishilarni tarbiyalashdan manfaatdor. Negaki, ma’naviyatida bo‘shliq bo‘lgan har qanday inson tahdidlarga osongina taslim bo‘ladi.

Yuqoridagi tahlillarga ko‘ra, ta’kidlash joizki, globallashuv jarayoni shunday bir murakkab, ziddiyatli, shiddatkor jarayonki, u o‘zida turli tashqi va ichki ma’naviy xuruj, tahdidlarni namoyon etmoqda. Biz ushbu paragrafda ularning turlari, namoyon bo‘lish shakllari haqida batafsil fikr bildirdik. Kuzatildiki, bugungi kundagi talabalar ma’naviyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi tahdidlar o‘ta xavfli, vayronkor va buzg‘unchi. U nafaqat shaxs dunyoqarashi ma’naviyatini izdan chiqaradi, balki, uni jamiyatdan begonalashtiradi, faoliyatini izdan chiqarib sog‘lig‘iga putur yetkazadi.

Shaxsni dastlab ichki tahdidlar o‘rab turadi. Ichki tahdid nima ekanligini biz yuqoridagi fikrlarimizda bildirib o‘tdik. Qachonki, shaxsda ichki tahdidga beriluvchanlik, moyillik bo‘lsa, unga tashqi tahdid o‘z ta’sirini osonlik bilan o‘tkazadi. Masalan, beparvo, dangasa kishi mo‘may pul topish uchun turli oqim va terroristik guruhlarga osongina kirib qolishi mumkin. Yoki shaxsda mustahkam, sog‘lom e’tiqod, mustaqil fikrlashning yo‘qligi, shakllanmaganligi tufayli tashqi tahdidlarga berilishi kuzatilmoqda. Bunday kishilar, ayniqsa, talabalar nafaqat oilasiga, balki o‘zi voyaga yetib, ulg‘aygan ona-Vataniga xiyonat qiladi. Qilayotgan ishining oqibatlarini anglamaydi, ko‘zлari ko‘r, quloqlari kar bo‘lib qoladi. Shu sababli ular tinchlikning qadriga yetmaydilar, o‘z farzandlarining kelajagi va baxti uchun qayg‘urish hissi ham ularga begona hissiyot sanaladi. Sog‘lom turmush tarzi, o‘z sog‘lig‘iga qayg‘urish, hayot go‘zalliklaridan bahra olish, tinch va osoyishta turmush kechirish, oilasi, yaqinlarining porloq kelajagi uchun harakat qilish, yangiliklar yaratish, zavqlanish, boriga qanoat qilish, shukronalik hissini unutib yuboradilar.

Mazkur paragrafda ichki tahidlarning turlari va salbiy oqibatlari haqida fikr yuritar ekanmiz, oldimizda turgan global muammo-bu talabalar tarbiyasi ekanligini yana bir his etdik. Ularni har qanday xurujlar, tahidlardan himoyalashimiz, yot, begona, umummiliy qadriyatlarga zid bo‘lgan g‘oyalarga berilib ketishining oldini olishimiz vatan oldidagi, xalqimiz, dunyo hamjamiyati oldida muqaddas burchimiz ekanligini to‘liq anglab yetdik.

Demak, mamlakatimiz tinchligi, osoyishtaligi va barqarorligi, obodligi talabalarning ma’naviyati yuksak bo‘lishiga bog‘liq. Milliy g‘oya - yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi, milliy va diniy hamjihatlik va

bag'rikenglik tamoyillariga asoslanar ekan, yurtimizga ichki va tashqi tahdidlar rahna sololmaydi.

### **1.3. Talabalarni ichki tahdidlardan himoyalashda xorij tajribasining pedagogik imkoniyatlari**

Mamlakatimizning, xususan, dunyoning barcha davlatlari tarixiy taraqqiyoti bosqichlarida kelajak avlod uchun qayg'urish, talabalarning barkamolligi yo'lida tinimsiz harakatlar olib borilgan. Bu har bir jamiyatning o'z oldiga qo'ygan maqsadi bilan bevosita uyg'unlashadi va quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi:

- 1) talabalarni turli yot g'oyalardan muhofaza qilishda ota-onalarga g'oyaviy-metodik yordam ko'rsatish;
- 2) talabalarning psixologik zo'riqishlarini bartaraf etish uchun moddiy va ruhiy ko'mak berish va ruhiy barqarorliklariga erishish;
- 3) yot g'oyalar ta'siriga beriluvchan talabalarni aniqlash va erta diagnostika qilishni doimiy ravishda nazorat qilib borish (demak, ularning kamol topishlari, ma'naviy-axloqiy sifatlarga ega bo'lishlari, mehnat ko'nikmalarini o'zlashtirishlari, mustaqil shaxs sifatida shakl-lanishlari yuzasidan monitoring olib borish);
- 4) ko'cha bolalari, jinoyat qilishga moyil qarovsiz talabalarni ularga diniy g'oyalar to'g'risidagi bilimlar berish asosida ma'naviy-axloqiy jihatdan qayta tarbiyalash;
- 5) bemor va nogironligi mavjud talabalarga tibbiy yordam ko'rsatish, ularni parvarishlash.

Mamlakatimizda talabalarni turli yot g'oyalar ta'siridan himoya qilish, ularning ma'naviy olamini boyitish masalasi global muammo sanaladi. Bu borada dunyo mamlakatlarining o'tmish tajribasini o'rganish va bugungi kunda ulardan hulosa chiqarish asnosida amaliyotga qo'llash muhim hisoblanadi.

Tarixiy manbalarning tahlili natijasida ko'rishimiz mumkinki, talabalarni ma'naviy tahdidlardan muhofaza etish bir qancha rivojlangan davlatlarda XX asrning 60-70-yillarida mustaqil soha sifatida shakllangan. Jumladan, 1985 yilda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan "Samarali yoshlari siyosatini shakllantirishning asosiy qoidalari to'g'risida"gi rezolyutsiya qabul qilinganidan so'ng bu masala yanada dolzarb ahamiyat kasb eta boshlagan. Har bir mamlakatda o'ziga xos, davlat qurilishi va boshqaruv tizimiga mos ravishda yoshlarning istiqboli, ma'naviyatini boyitish, vatanparvarlik g'oyalari asosida tarbiyalashning turli

mexanizmlari va tizimlari qaror topa boshlagan. Bu esa yoshlarning kamoloti yo‘lidagi harakat hisoblangan [78. 3-b.].

O‘tgan davrlarda yoshlar davlatning qattiq nazoratida bo‘lib, ommaviy ravishda komsomol tashkilotiga a’zo bo‘lishdi. Ushbu tashkilotga a’zolik ixtiyoriy bo‘lsa-da, aslida bunday a’zolik keyingi hayotni to‘g‘ri tashkil etish, kerakli lavozimlarga ko‘tarilish uchun qulay sharoit yaratishi mumkin edi. Komsomolga a’zo bo‘lmagan yoshlarning oliy o‘quv yurtlariga kirishi, biror lavozimni egallashi qiyin edi. SHuning uchun ko‘pchilik yoshlar komsomol bo‘lishga intilardi. Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, sobiq ittifoq hududida 1980-yillar oxirida 14 yoshdan 28 yoshgacha bo‘lgan yoshlarning 65 foizi komsomol a’zosi edi. Markaziy va Sharqiylar Yevropaning ayrim mamlakatlarida bu ko‘rsatkich 80-90% ga yetgan. Mazkur yoshlar tashkiloti o‘z a’zolarini yot g‘oyalardan asrash, ularni fidokor, jamoatchilik ishlarida faollik ko‘rsatish, jamiyat maqsadi yo‘lida mushtarak bo‘lish g‘oyasi asosida tarbiyalangan. Shu bois komsomollar ishonchli vakillar hisoblanganlar.

Rossiyada 1999 yilda “Yoshlar huquqlarini himoya qilish harakati” “Molodyojnoye pravozashitnoye dvijeniye” (MPD) vujudga kelgan. Bugungi kunda mazkur harakat Rossiya, Yevropa va Osiyo (Germaniya, Belorus, Ukraina, Qozog‘iston, Moldova) mamlakatlarining 30 ta hududidagi 60 dan ortiq yoshlar tashkilotlari va guruhlarni birlashtirishga muvaffaq bo‘ldi. MPDning tashkil qilishidan maqsad, huquqni muhofaza qilish, talabalarni inson huquqlarini himoya qilishga yo‘naltirish, ularning ijtimoiy faolligini oshirishga erishish.

Slovakiyadagi AMAVET yoshlar birlashmasi siyosiy yo‘nalishga ega emas, uning maqsadi yoshlarga o‘z qobiliyat va imkoniyatlarini namoyish etishga ko‘maklashishdan iborat. Ayrim tashkilotlar madaniy yo‘nalishda bo‘lib, milliy madaniyatni targ‘ib qilish, tiklash va rivojlantirish maqsadida yoshlarni birlashtirgan bo‘lsa-da, bularning ayrimlari diniy tus olmoqda. Yevropaning ayrim mamlaqatlarida milliy ozchilikning manfaatlarini himoya qilish maqsadida yoshlar tashkilotlari vujudga kelgan. Masalan, Slovakiyada venger va lo‘lilar yoshlarining tashkilotlari mavjud[109; 96 b.].

Germaniya va Fransiyani birinchi yo‘nalishdagi talabalar siyosatini olib boradigan davlatlar sirasiga kiritish mumkin. Ushbu davlatlar o‘z faoliyatini talabalar siyosatini umummiliy, mintaqaviy va hududiy darajalarga qarab ixtisoslashtirish asosida olib boradi. Bunda talabalar siyosati oila, qariyalar, ayollar va talabalar ishlari bo‘yicha vazirlik tomonidan Konstitutsiya va federal qonunlar asosida amalga oshiriladi.

Xususan, Fransiyada talabalar siyosati, talabalar ishlari, sport va jamoat birlashmalari bo'yicha vazirlik tomonidan ishlab chiqiladi.

Talabalar ma'naviyatini boyitish, ularni siyosati sohasida davlat hamda fuqarolik jamiyati tuzilmalari tengligiga asoslangan strategiya Buyuk Britaniya va Shvetsiyaga xos bo'lib, bunda talabalar siyosatining umumiyo'ki ko'rinishi, maqsad va yetakchi vazifalari davlat tomonidan belgilab berilsa, bu vazifalarning ijrosi mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari hamda jamoat birlashmalari tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu davlatlarga xos bo'lgan xususiyat esa talabalar siyosati va talabalar ishlari bo'yicha maxsus davlat organlarining mavjud emasligida namoyon bo'ladi. Yevropa davlatlarining talabalar borasida olib borayotgan siyosatining umumiyo'ki jihatlari inobatga olinib, shuningdek, Yevropa Ittifoqi O'zbekiston demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish natijalari ilmiy salohiyatli talabalarning muhim qarorlarni qabul qilishda faol qatnashishlarida namoyon bo'ladi. Uning institutsional chegaralarini yanada kengaytirish davlat va fuqarolik jamiyati o'rtasida vositachi bo'la oladigan siyosiy jarayonlar omillari sonini oshirish imkonini beradi.

Yevropaning bir qator davlatlarida yoshlar, ayniqsa, talabalarning ichki ma'naviyatini boyitishga e'tibor qaratishning yagona imkoniyati ularning manfaatlari tengligiga asoslanishi hisoblanadi. Bu borada Yevropa Ittifoqi tomonidan yagona siyosatni yuritish maqsadida Fransiya, Vengriya shaharlarida "European Youth Center" lari tashkil etilgan.

Shuningdek, EU "Youth Strategy - Investment and Empowerment" dasturi qabul qilingan. Qabul qilingan dastur asosida Yevropa Ittifoqiga a'zo bo'lgan davlatlarning talabalar ma'naviyati, ularning turmush tarzini qo'llab-quvvatlash borasidagi olib boradigan ishlari bo'yicha hamkorlik amalga oshirilishi ko'zda tutilgan. Shu bilan birga dunyoning ko'plab mamlakatlarida talabalar huquq va burchlarini xalqaro, milliy darajada qo'llab-quvvatlashni maqsad qilgan tashkilotlar faoliyat yuritmokda.

Jumladan, xalqaro darajada talabalar ma'naviyati va manfaatlarini qo'llab-quvvatlovchi Belgiyadagi Flaman yoshlar kengashi, Yevropa yoshlar parlamenti, Shimoliy Irlandiya yoshlar forumi, Shotlandiya yoshlar parlamenti kabi yoshlar parlamentlari Germaniyada xalqaro yoshlar ishlari bo'yicha Germaniya milliy ko'mitasi, Avstriyadagi Avstriya xalqaro yoshlar hamkorligi qo'mitasi, Buyuk Britaniya Birlashgan Qirolligi yoshlar parlamenti, Britan yoshlar kengashi. Bu tashkilotlar yoshlarning huquq va manfaatlarini qo'llab-quvvatlovchi

mexanizmlarni ishlab chiqish hamda har bir davlat mazkur mexanizmlarga kay darajada amal qilayotganiga e'tibor qaratish [109; 98 b.].

Dunyoning yetakchi davlati AQSHda talabalar borasidagi olib borayotgan ishlari, avvalo, talabalarda ichki tahdidlardan himoyalanishga qaratilganligi bilan ahamiyatli. AQSHdagi bu muammoni yechishda o'ziga xosligi shundaki, mazkur muammoni hal qilishda bevosita talabalarining o'zлari ishtirok etishi bilan boshqa mamlakatlardan ajralib turishadi. Chunki bugungi globallashuv sharoitida dunyoning yetakchi davlati hisoblangan AQSH talabalari orasida narkotik moddalar iste'moli, jinoyatchilik va irqchilik bilan bog'liq muammolar avj olgan. Shundan kelib chiqib, ushbu muammolarni hal etishga qaratilgan ko'pgina qonunlar qabul qilinib, amaliyotga tatbiq qilingan. Ayni paytda AQSHda talabalarini qo'llab-quvvatlash va ularni turli ma'naviy tahdidlardan himoya qilish yuzasidan 400 dan ortiq dastur ishlab chiqilgan. Shundan eng ko'p a'zolarga ega bo'lganlari "Youth Defense League" "Students Against Hunger," "Look Out," "Help" hamda "Salvation Army" kabilar hisoblanadi. Mazkur dasturlar AQSHning barcha sohalaridagi kasb-hunar ta'lim muassasalaridagi talabalarini qamrab olgan. AQSHda "Yoshlar siyosati kontseptsiyasi"ni amalga oshirishda davlatning roli birmuncha oz bo'lib, bu jarayonga, asosan, xususiy tashkilotlar keng jalb qilingan. Davlat yordami ijtimoiy himoyaga o'ta muhtoj bo'lgan talabalgarda qat'iy chegaralangan miqdorda ko'rsatiladi. AQSHda yoshlar siyosati davlat idoralarining alohida bir faoliyat sohasi hisoblanmaydi, yoshlar muammolari yuzasidan bir necha vazirliklar ish olib borishadi. Jumladan, Mehnat vazirligi talabalarining bandligi, Adliya vazirligi jinoyatchilik, Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot vazirligi esa talabalar hamda o'smirlarning sog'ligi borasidagi muammolar bilan shug'ullanishadi.

Talabalar bilan ishlashda siyosiy tashkilotlar, sport muassasalari hamda diniy tashkilotlarning o'rni yuqori. "Yosh respublikachilar" milliy federatsiyasi hamda "Amerikaning yosh demokratlari" AQSHdagi katta yoshlar siyosiy birlashmalari hisoblanib, ular mamlakatdagi ikki yirik siyosiy partianing talabalar bo'yicha rasmiy tashkilotlari. Talabalar siyosiy tashkilotlarining asosiy maqsadlaridan biri - bu talabalarini siyosiy hayotga jalb qilish, ularning davlat siyosatidagi o'mini rivojlantirishga qaratilgan. Shuningdek, AQSHda "Lyuteranlik ligasi" va "Katolik yoshlarning milliy federatsiyasi" kabi diniy, milliy yoshlar tashkilotlari ham faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Bu tashkilotlarning asosiy vazifasi Amerika yoshlarini kamolotga erishish imkoniyatini nazarda tutadi. Aynan AQSHda talabalarini ma'naviy tahdidlardan muhofaza qilish

AQSH qonunlari, Konstitutsiyasini qadrlash tuyg‘usini singdiradi. Talabalarga tuyg‘uni singdirish imkoniyatini izlaydilar. AQSHda talabalarni ichki tahdidlardan asrashning eng ishonchli yo‘li sifatida erkin hayotni qadrlash, erkin fikrga ishtiyoq, mustaqil faoliyatni ustun qo‘yish tuyg‘usi shakllantirib boriladi. Shuningdek, AQSH talabalarida ijodkorlik nihoyatda ulug‘lanadi. Har bir talaba o‘zini noyob iste’dod egasi deb biladi. Bu esa talabalarda o‘ziga xos tushunchani: qanday martaba va maqomga ega bo‘lsang, faqat iste’doding bilan erishasan. AQSH talabalarida kimgadir orqa qilish istagi deyarli mavjud emas. Ular o‘z shaxsiga ishonadilar. Bu ishonch esa ularning ruhiy tushkunlikka berilishi, beqaror kayfiyatning ustuvor bo‘lishi kabi illatlardan xalos etadi.

Yaponiyada yoshlarni ma’naviy tahididlardan himoya qilish muammosi yuzasidan olib borilayotgan ma’naviy - ma’rifiy ishlar milliy siyosat darajasiga olib chiqilgan. Yaponiyaning bu borada olib borayotgan xatti-harakatlari asosida talabalar va ularning huquqlarini himoyalash va hurmat qilishga e’tibor qaratiladi. Mazkur mamlakatda yoshlarning har jihatdan rivojlanishiga ahamiyat qaratilgan bo‘lib, Milliy assambleya tashkil etilganligi bilan ahamiyatli. Milliy assambleya asosan quyidagi to‘rtta dastur orqali faoliyatini amalga oshiradi (1-jadval).

1-jadval

Milliy harakat	Hayot yo‘lini tanlashga ko‘maklashish	O‘smirlar orasida huquqbazarlikning oldini olish choralar	OITSga qarshi kurash
Dastur quyidagi maqsadni ko‘zlaydi: Talabalardagi intellektual salohiyatni, assambleyaning faoliyatini rahbatlantirish va qo‘llab-quvvatlashga qaratganligi bilan ahamiyat kasb etadi	Maqsadi. Yoshlarni kasb tanlashga yo‘naltirish, ularning turli iqtidorlarini o‘rganishga qaratilgan.	Maqsadi. Yoshlar orasidagi jinoyatchilikka qarshi kurashishda davlat organlariga yaqindan yordam berish hamda yoshlarning jinoiy xatti-harakatlarini o‘rganish markazlari bilan hamkorlikni amalga oshirishdan	Masadi. Yoshlar orasida ushbu kasallikning kelib chiqish sabablarini o‘rganishga qaratilgan turli maslahatlar berish va boshqa tadbirlar o‘tkazishni nazarda tutadi.

1-jadvaldan ko‘rinadiki, dasturning maqsadlari mushtarak bo‘lib, barchasi tipik xolatda yoshlar tarbiyasi, ma’naviyati masalasiga qaratilgan. Shuningdek, Yaponiya talabalarni ichki tahdidlardan muhofaza qilishda asosan, talabalar ongiga jamoavyi munosabatlarga kirishish, mehnatsevarlik, intizomlilik kabi shaxs sifatlarni singdirdi. Yaponiyada talabalarni kichikligidan boshlab, “Axloqiy tarbiya” tizimi orqali guruhiy birdamlikni tarbiyalashga jidday e’tibor qaratiladi. Bu borada Yaponiyada “jamoaning yutug‘i va kamchiligi har bir yapon yoshlariga bog‘liq ekanligi haqidagi g‘oya singdiriladi. Bu esa har bir yapon yoshlaridan o‘z vazifasini mas’uliyat bilan bajarishni talab etadi. Mas’uliyat esa barcha tahdidlardan himoya qiluvchi qalqon hisoblanadi.

Yaponiyada talabalarni turli yot g‘oyalar ta’siridan himoya qilish, ma’naviyatiga dahl qiladigan salbiy o‘zgarishlardan asrashda eng maqbul yo‘lni, ya’ni kichik yoshdan tarbiyalashni tizimli yo‘lga qo‘yishning ahamiyati muhimligiga to‘xtalib o‘tadi. Bu masalada Masaru Ibuka quyidagi faktlarni taqdim etadi (2-jadval):

2-jadval

T/r	Kattalar	Bolalar
1-fakt	- katta yoshdagilar o‘rganilishi kerak bo‘lgan biron-bir vogelikni mexanik ravishda shoshqaloqlik va xavotir bilan o‘rganadilar. Shu sababli ba’zi bir qiyinchiliklarga duch kelishadi	- bolada biron-bir vogelikni o‘rganishga qiziqish ehtiyoji tabiiy ravishda beriladi.
2-fakt	O‘rganishda kattalar o‘z dangasaliklarini namoyon qilishadi	Bola hamisha qiziquivchan va tayyor
3-fakt	Katta kishilar ko‘nikmaga ega bo‘lgan taqdirda ham qiyin moslashadi	Bu jarayon bolada oson va oddiy kechadi.
4-fakt	Katta kishilarda ko‘proq jur’atsizlik kuzatiladi	Bola doim intiluvchan
Xulosa: tarbiyani kichik yoshdan o‘z vaqtida boshlash lozim		

Dunyoning yetakchi universitetlarida (Oksford, Kembrij, Emlyon maktabi) talabalarni ichki tahdidlardan himoya qilishda ularning ijodiy

tafakkurlari va yaratuvchanlik qobiliyatidan foydalanishadi. Ularga jamiyatdagi muammolarni yechish uchun takliflar ishlab chiqish vazifasi topshiriladi. Bunday muammolar yechimga qatnashish huquqiga ega, talabalarning bo‘sh vaqt samarali o‘tishi bilan birga, kelajak haqida qayg‘urish istagi uyg‘onadi.

## **II BOB. TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA TALABALARНИ ICHKI TAHDIDLARDAN HIMoyalash Texnologiyalari**


### **2.1. Talabalarni ichki tahdidlardan himoyalash komponentlari, mezonlari va ko'rsatkichlari**

Bugungi kunda, albatta, talabalarni mafkuraviy tahdidlardan himoyalash jarayoni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan bir qancha qonunlar va dasturlar doirasida bajarib kelinmoqda. Xususan, 2016 yil 14 sentyabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonuni hamda 2020 yil 30 iyunda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" gi farmoni shular jumlasidandir.

Ta'kidlash joizki, olib borayotgan tadqiqot ishimiz jarayonida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan barcha yoshlarga oid qonun va farmonlar, dasturlar metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, talabalarning ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa huquqiy himoyasida mazkur qonunlarga tayanamiz.

Demak, davlat va hukumatimiz diqqat markazida talabalar tarbiyasi va ularning salomatligini qonuniy himoya qilish masalasi turgan ekan, bu borada pedagogik jarayon o'z oldiga aniq maqsad va vazifalarni qo'yib olishi darkor. Quyida amaldagi pedagogik jarayon tizimini tasvirlab o'tmoqchimiz. (4-rasmga qarang).

4-rasmga e'tibor qaratadigan bo'lsak, hozirgi pedagogik jarayon davlat va jamiyat talablaridan kelib chiqib, yoshlarni turli tahdid va hurujlardan himoya qilish borasidagi ishlar doirasida amalga oshirilmoqda. To'g'ri, davlat va hukumatimiz rahnamoligida shu kunga qadar talabalarni turli tahdidlardan himoyalash borasida tafsinga loyiq ishlar amalga oshirildi, ammo bu ishlar oliy ta'lim jarayonida ma'naviy-ma'rifiy, tarbiyaviy ishlarning bir qismi darajasida qarab kelinmoqda. Mazkur muammo ixtisosliklarda o'qitiladigan biron-bir fan doirasida chuqur o'rganilgan emas.



#### 4-rasm. Pedagogik jarayon.

Bizningcha, ushbu jarayonni takomillashtirish va samaradorligini oshirish uchun aniq bir modelni ishlab chiqish zaruriyati mavjud. Bu o‘z navbatida bizga talabalarni ichki tahdidlardan himoyalashning mavjud tizimini takomillashtirishga xizmat qiladigan modelni ishlab chiqish imkoniyatini yaratdi. Avvalo, shuni e’tirof etish joizki, taklif etayotgan model amaldagi mavjud pedagogik tizimni takomillashtirishga qanday xizmat qiladi? Bizningcha, u quyidagi jihatlari bilan amaldagi pedagogik jarayonni takomillashtiradi, ya’ni bular:

1. Talabalarni ichki tahdidlardan himoyalash maqsadi va vazifalarining aniq qo‘yilganligi bilan. Shu kunga qadar ta’lim- tarbiya jarayonida qaysidir ma’noda talabalarni ichki tahdidlardan himoyalash amalga oshirib kelinmoqda, biroq aniq bir maqsad asosida emas, balki maqsadni samarali bajarish uchun vazifalar belgilanmagan. Taklif etilayotgan modelda esa barcha tadbir va bajariladigan ishlar modelning maqsadi doirasida amalga oshiriladi.

2. Jarayonni amalga oshirish tizimlari o‘rtasidagi integratsiyani kuchaytirish muammosining qo‘yilganligi bilan. Shu kunga qadar bu muammo doirasidagi ishlar oliy ta’lim muassasalari zimmasiga yuklatilgan. Biroq bu jarayonda oila va mahalla, jamoat tashkilotlari, IIB kabilarning ishtiroki sezilmaydi.

3. Mazkur muammo yechimi doirasida bajariladigan ishlarning aniq mexanizmlari, manba va vositalari ishlab chiqilganligi bilan.

4. Talabalarni ichki tahdidlardan himoyalash texnologiyasining takomillashtirilganligi bilan.

5. Pedagogik jarayon samaradorligini oshirish uchun talabalarni ichki tahdidlardan himoyalash tamoyillarining ishlab chiqilganligi bilan.

Demak, taklif etilayotgan model talabalarni ichki tahdidlardan himoyalash jarayonining yaxlit etaloni sifatida xizmat qilmog‘i lozim. Ma’lumki, etalon tushunchasi ko‘plab sohalarda qo‘llaniladi, u biron-bir buyum, narsaning ideal o‘lchovi, namunasi, me’yori sifatida e’tirof etiladi. Xuddi shunday talabalarni ichki tahdidlardan himoyalash jarayoni aniq bir namuna asosida olib borilsa, ko‘zlangan maqsadga erishish mumkin.

Zero, Prezident Sh. M. Mirziyoyev orzusi yoshlarimizni yuksak fikrlaydigan, fidoyi, tashabbuskor, shijoatli shaxslar etib tarbiyalash. Quyida talabalarni ichki tahdidlardan himoyalash modelini tasvirlab o‘tishga harakat qilindi. (5-rasmga qarang).


Mazkur modelda dastlab tahdid omillariga e’tibor qaratildi. Negaki, talabalarni ichki tahdidlardan himoyalashda ularni qanday tahdidlar o‘rab turganligi va mazkur tahdidlar qaysi omillar orqali tarqalishini bilib olish muhim.

Bizningcha, talabalarda ichki tahdidlarga beriluvchanlikni keltirib chiqaruvchi omillar quyidagilar hisoblanadi:

1. Global tarmoq, ya’ni Internet. 2. Ommaviy axborot vositalari. 3. Mobil aloqa vositalari. 4. Kompyuterlar. 5. Saviyasiz va turli g‘oyalarni targ‘ib qiluvchi kitoblar.

Nomlari keltirilgan bu omillarga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, ularning yuqori ta’sir kuchga egasi-bu Internet. To‘g‘ri, biz bugun internetsiz hayotimizni tasavvur qila olmaymiz, uning biz uchun nihoyatda qulay jihatlari ko‘p. Biroq xavflilik darajasi ham yo‘q emas. Bizning muammo doirasida esa internetning xavflilik darajasiga e’tibor qaratiladi. Chunki bugungi kunda aynan internet orqali talabalar turli tahdidlar qurshoviga tushib qolmoqda. Ommaviy madaniyat, diniy aqidaparastlik va terrorizm, odam savdosi, kashandalik kabi illatlar aynan internetdan maqsadsiz foydalanish natijasida kelib chiqmoqda. Xuddi shunday internetdagi turli film, o‘yin va roliklarni tomosha qilish natijasida talabalarda dangasalik, mo‘may pul topishga intilish, andishasizlik kabi illatlar ham kuzatilmoqda.

Talabalarda ichki tahdidlarga beriluvchanlikni keltirib chiqaruvchi omillardan biri-bu ommaviy axborot vositalari. Kuzatishlar natijasida aytish mumkinki, ommaviy axborot vositalarining salbiy ta’siri boshqa



**5-rasm. Talabalarni ichki tahdidlardan himoyalash modeli.**

vositalarga nisbatan kamroq. Ammo mutlaqo yo‘q deb bo‘lmaydi. Ayniqsa, televide niye orqali namoyish etilayotgan turli rukndagi saviyasiz teleko‘rsatuvlar, shoular, seriallar, reklamalar shular jumlasidan. Mazkur teledasturlar natijasida talabalarda sabrsizlik, irodasizlik, shafqatsizlik, egoistlik, manmanlik, qolaversa, real hayotdan uzoqlashish kayfiyati paydo bo‘lmoqda. Xuddi shunday tijorat uchun chop etiladigan gazeta va jurnallar ham bunday salbiy holatlardan mustasno emas. Ayniqsa, ulardagи shov-shuvli yangilik va voqealar, mashhur kishilarning hayotini namoyish qilish kabi ruknlar talabalar tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Ana shular qatoriga mobil aloqa vositalarini ham kiritish mumkin. Bu borada ayni kunlarda mobil telefonlar yetakchilik qilmoqda. Ayniqsa, ulardan maqsadsiz foydalanish natijasida yoshlarda axborotlarga tobeklik, vaqt ni qadrlamaslik kabi salbiy illatlar paydo bo‘lib, bu holat ularning kelajagi va sog‘lig‘iga xavf tug‘diradi. Soatlab telefonda gaplashish yoki turli o‘yinlarni o‘ynash o‘z navbatida yoshlarning ruhiy zo‘riqishiga va asab kasalliklariga chalinishiga olib keladi.

Talabalarda ichki tahdidlarga beriluvchanlikni keltirib chiqaruvchi omillardan biri - bu kompyuter hisoblanadi. Kompyuter ham boshqa omillar qatori salbiy ta’sir doirasiga ega. Bugungi kunda deyarli ko‘plab xonadonlarda shaxsiy kompyuter mavjud. Ularning hammasi ham himoya mexanizmiga ega emas. Yoki ayrim oilalarda ota-onalar tomonidan farzandlarining kompyuterlardan foydalanishi nazoratga olinmaydi. Shu bois boshqa omillar qatori kompyuterlardan maqsadsiz foydalanish natijasida talabalarda ichki tahdidlarga tobeklik kelib chiqadi.

Ichki va tashqi tahdidlarga beriluvchanlikni keltirib chiqaruvchi omillardan biri-bu saviyasiz va turli g‘oyalarni targ‘ib qiluvchi kitoblar hisoblanadi. Afsuski, keyingi yillarda ayrim buzg‘unchi g‘oyalarni targ‘ibotchilari talabalar qo‘liga diniy qadriyatlarimizga zid bo‘lgan, terroristik g‘oyalarni bilan yo‘g‘rilgan kitoblarni tutqazmoqdalar. E’tiqodi zaif, mustaqil fikrga ega bo‘lmagan talabalar bunday kitoblarni o‘qib, to‘g‘ri yo‘ldan adashganlari ham bo‘ldi. SHu bilan birga, tijorat maqsadida keyingi yillarda saviyasiz kitoblar bosmadan chiqarildi. Ularning ayrimlari borki, talabalarga hech qanday ma’naviy ozuqa bermaydi, balki ularni to‘g‘ri yo‘ldan adashtiradi, hayotga yengil nazar tashlashga o‘rgatadi. Ammo e’tirof etish joizki, bizning bu boradagi xazinamiz yetarli. Shu kungacha xalqimiz va uning noyob, tafakkuri yuksak, iqtidorli farzandlari tomonidan nodir asarlar dunyoga taqdim etildi.

Hamon butun dunyo xalqlari mazkur asarlardagi g‘oyalardan samarali foydalanib kelmoqda. Prezident Sh.M.Mirziyoyev yoshlarni kitobxonlikka

jalb etish borasida tahsinga loyiq ishlarni amalga oshirmoqda. Ushbu masala yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2017 yil 13 sentyabrda “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi qarorini qabul qildi. Mazkur qarorning 2-bandida sayoz mazmunga ega bo‘lgan, odob-axloq qoidalari, milliy tarbiya hamda qadriyatlarimizga mos kelmaydigan, shu bilan birga, yoshlar tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan kitoblarni chop ettirishning oldini olish vazifasini qo‘yganlar [3; 2-b.].

Quvonarlisi, ushbu qarorning ijrosini ta’minlash borasida yurtimizda ko‘plab ishlar amalga oshirildi. Ko‘plab yoshlarimiz xalqimiz va dunyoning nodir asarlari bilan yaqindan tanishib, o‘z ma’naviyatini boyitib bormoqdalar. Biroq hamma talabalar ham birdek emas. Ularning aksariyat qismida hamon axborotlar va shov-shuvlarga o‘chlik ustun bo‘lib turibdi.

Umuman olganda, modelda, albatta, bu komponentlar bo‘lishi darkor deb hisobladik. Negaki, talabalarga bu kabi vosita va omillardan maqsadli foydalanishni o‘rgatish - pedagogik jarayon oldidagi asosiy vazifalardan biri.

Ushbu chizmaga ko‘ra, OTMlarda talabalarni ichki tahdidlardan himoyalash va modellashtirishning maqsadini quyidagilar bilan ifodalash mumkin:

talabalarni har qanday yot g‘oyalar, tahdidlardan ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy himoya qilish (masalan, bugungi kunda nafaqat oddiy odamlar, balki talabalarga ham ma’naviy zarar yetqazishni maqsad qilgan turli guruhlar mavjud. Ana shunday guruhlar to‘g‘risida talabalarda tushunchalar hosil qilish va ularning huquqiy bilim darajalarini oshirish); talabalarda tashabbuskorlik va fidoyilikni rivojlantirish, ularning har bir yutug‘ini taqdirlash orqali o‘z-o‘ziga bo‘lgan ishonchni tarbiyalash; turli mafkuraviy va axborotlar tahdidi natijasida paydo bo‘ladigan salbiy holatlarning oldini olish (Turli oqimlarga ko‘r-ko‘rona ishongan yoki boshqa salbiy illatlarga berilgan talabalarni ijtimoiy sog‘lom hayotga qaytarish); talabalarning yashashi, ta’lim olishi, faoliyat yuritishi uchun qulay muhitni yaratishga erishish va boshqalar.

Mamlakatimiz kelajagi bo‘lgan talabalarni yuksak maqsad va istaklar sari yashashga o‘rgatish uchun pedagogik jarayon oldiga bir qancha talablar qo‘yiladi. Mazkur talablarni bajarish jarayonida ma’lum qonun-qoidalari va tamoyillarga amalga qilish lozim. Bu tamoyillar nafaqat bajarmoqchi bo‘lgan ishlar samaradorligini oshirishga yordam beradi,

balki talabalar faoliyatini boshqaruvchi, tartibga soluvchi yo‘riqnomalar bo‘lib xizmat qiladi.

Shu bilan birga, tamoyillar talabalarning jamiyatda sodir bo‘layotgan yuksalishlar, qonun-qoidalarga ongli munosabatini, ularning xatti-harakati va har qanday faoliyatini o‘zida aks ettiradi[136; 155-b.]. Bu tamoyillarni ishlab chiqishda ko‘pgina jihatlarni inobatga olish, ayniqsa, jamiyatdagi holatlar, taraqqiyot, rivojlanish, kishilar dunyoqarashining o‘zgarishi kabi ko‘plab omillarni hisobga olib takomillashib borishni inobatga olish darkor.

Ana shu maqsadda quyidagi tamoyillar ishlab chiqildi:

1. Sog‘lom turmush tarzini tarkib toptirish qoidasi.
2. Talabalar faoliyatini aniq bir maqsadga yo‘naltirish qoidasi.
3. Zararli axborot xurujlaridan himoyalash qoidasi.

4. Talabalarni ichki tahdidlardan himoyalash mexanizmlari o‘rtasidagi integratsiyaning izchilligini ta’minlash qoidasi.

5. Talabalarda har qanday yot g‘oyalarga qarshi immunitetni shakllantirish qoidasi.

6. Tashabbuskorlikni rivojlantirish qoidasi va boshqalar.

Quyida talabalarni ichki tahdidlardan himoyalash qoidalarini batafsil ko‘rib chiqamiz.

Sog‘lom turmush tarzini tarkib toptirish qoidasi. Bugungi shiddatkor zamonda talabalar salomatligini mustahkamlash muhim masala hisoblanadi. Negaki, globallashuv davrida texnikaning jadal rivojlanib borishi qaysidir ma’noda talabalarning tibbiy va ruhiy salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, axborot-kommunikatsiya vositalaridan muntazam va maqsadsiz, pala-partish foydalanish natijasida yoshlar organizmi va ruhiyatida turli kasalliklar kelib chiqmoqda. Oshqozon-ichak faoliyatining buzilishi, nerv sistemasidagi qo‘zg‘aluvchanlik, tayanch-harakat apparatidagi nuqsonlar, vitaminlar yetishmasligi, immunitet zaifligi kabi ko‘plab kasalliklarni misol qilib keltirishimiz mumkin. O‘z navbatida bu kasalliklar talabalarning ta’lim olishi, tengdoshlari qatori sog‘lom hayot kechirishiga to‘sqinlik qilmoqda. Zero, dono xalqimiz ta’biri bilan aytganda, “Sog‘ tanda sog‘lom aql” vujudga keladi.

Talabalarda sog‘lom turmush tarzini tarkib toptirish qoidasi quyidagi tadbirlar doirasida amalga oshirilishi darkor:

1. Salomatlikka ta’sir etuvchi zararli omillardan talabalar ruhiyati va tanasini oldindan himoyalash chora-tadbirlarini ko‘rish.

2. Talabalarga o‘z salomatligini mustahkamlash borasidagi: sog‘lom ovqatlanish, mehnat, dam olish, sport bilan shug‘ullanish kabi muhim qoidalarga amal qilishni o‘rgatib borish.

3. Jamiyatda talabalar salomatligini ijtimoiy muhofaza qilish chora-tadbirlarini kuchaytirish, ayniqsa, joylarda davlatimiz va hukumatimiz tomonidan talabalar uchun qabul qilingan qonun, farmon va farmoyishlar ijrosini kuchaytirish.

4. Talabalar ma’naviyati va ruhiyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi har qanday mafkuraviy tahdidlarni aniqlash va bartaraf etish borasidagi ishlarni kuchaytirish.

5. Talabalar ruhiyatidagi jo‘shqinlik, tetiklik, tashabbuskorlikni qo‘llab-quvvatlash va ularda o‘z hayotidan mumnunlik hissini shakllantirib borish.

6. Talabalarni zararli odatlardan himoyalash usullarini kuchaytirish va bu borada oila hamda mahalla hamkorligini oshirib borish. Demak, talabalar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish qoidasi bir qator mezonlarga ko‘ra amalga oshirilishi kerak: tibbiy va ruhiy, shuningdek, talabalarning botiniy madaniyati, dunyoqarashi va ma’naviyati, jamiyatda yaratilgan shart-sharoitlar bilan bog‘liq holatda amalga oshirilmog‘i lozim[136; 155-b.].

Talabalarni ichki tahdidlardan himoyalashda tarbiya tamoyillariga amal qilish qoidasi. Talabalarni ichki tahdidlardan himoyalashda tarbiya tamoyillariga amal qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, bu jarayonda izchillik va tizimlilik tamoyilining o‘rni va roli nihoyatda katta. Negaki, ichki tahdidlardan himoyalash jarayoni murakkab jarayon hisoblanib, u o‘zining ko‘plab ob’ektiv va sub’ektiv tomonlari bilan ajralib turadi. Ya’ni shaxsnинг individual va psixologik xususiyatlari, temperamenti, jamiyatdagi o‘zgarishlar, atrof-muhit, oilaviy munosabatlar, faoliyat va boshqalar shular jumlasidan. Ushbu omillar o‘rtasidagi muvozanatni tartibga solishda izchillik va tizimlilik zarur bo‘ladi.

Ma’lumki, bugungi kunda talabalarni ichki tahdidlardan himoyalash masalasi tarbiya jarayonining asosiy va muhim muammolaridan biri hisoblanadi. Shu jarayonda izchilikka amal qilmaslik yoki omillar o‘rtasidagi bog‘liqlikning buzilishi uning natijadorligini ta’minlamaydi. Shu bilan birga talabalarni ichki tahdidlardan himoyalash jarayonida ularga beriladigan bilim va tushunchalar izchil va tizimli ravishta taqdim etilishi kerak. Ana shundagina talabalarning atrofdagi tahdidlar haqidagi tasavvur va tushunchalari yaxlit shakllanib, ularning qay darajada o‘z hayoti, kelajagiga rahna solishi mumkinligini anglab yetadilar.

Talabalar faoliyatini aniq bir maqsadga yo‘naltirish qoidasi. Globallashuv jarayonida talabalar faoliyatida turli muammolar yuzaga kelmoqda. Dunyoda ko‘plab talabalar ayrim sabablarga ko‘ra, hayotda o‘z o‘rnini topa olmayapdilar. Xuddi shunday mamlakatimiz talabalari o‘rtasida qaysidir ma’noda bu muammo uchrab turibdi. Talabalarning aniq bir faoliyat turi bilan band bo‘lmasligi yoki tanlagan kasbida muqim ishlamasligi ular hayotiga sezilarli darajada salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Bugun bu ish, ertasiga boshqa bir mashg‘ulot bilan shug‘ullanish insonlarda o‘ziga nisbatan ishonchsizlik, o‘z-o‘zidan qoniqmaslik kabi illatlarni keltirib chiqaradi. Bilamizki, hozirgi davrda ko‘plab talabalar hayotda tez va oson boyib ketishni istashadi. Shu bois ular ozgina maosh beriladigan ishdan tezda bo‘sab, boshqasiga va yana boshqasiga o‘tib ketaverishadi. Natijada, ularda kasbiy qo‘nimsizlik yuzaga keladi. Bu holatning yomon tomoni shundaki, kishilar bir ishning sir-asrorlarini to‘liq o‘rgana olmaydilar, ularda ishga nisbatan ko‘nikma, malaka va kompetentsiyalar hosil bo‘lmaydi, shu bilan birga ishga mehr qo‘yish, shu ishni hayotining bir qismi deb his qilish ularda shakllanmaydi.

Zero, biz bilan birga yashayotgan, o‘z ishidan mammun, kasbini hayotining mazmuni deb biladigan, kasbi tufayli jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lgan, davlat va xalq ardog‘idagi kishilarni hayotimizda ko‘p uchratamiz. Bunday kishilar o‘z kasbining nafaqat mohir ustasi, hatto sevimli ustoz darajasiga erishgan kishilar. Ular o‘z faoliyatini oddiygina ishchilikdan boshlab, yuqori lavozimlarga erishgan kishilar. E’tibor qaratadigan bo‘lsak, ularning hayotiy qarashlarida kamtarlik, halollik, e’tiqod ustunligini ko‘ramiz.

Maqsadimiz talabalarni ana shunday insonlar kabi tarbiyalash bo‘lmog‘i lozim. SHu bois talabalar faoliyatini to‘g‘ri tashkil etishni bugungi jamiyat rivojining asosiy omillaridan biri deb hisobladik. Negaki, talabalar faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish-bu ularning hayotda halol va farovon yashashiga, o‘z oldiga ezgu maqsadlarni qo‘yib dadil harakat qilishiga, kasbi tufayli oila va jamiyatda barchaga namuna bo‘lishiga yordam beradi. Aniq bir faoliyat turi bilan band bo‘lgan talabalar, ayniqsa, vaqtning qadriga yetadi, bekorchi ishlarga berilmaydi, zararli ta’sirlarga tushib qolmaydi. Buning uchun mamlakatimizda talabalarga yetarli shart-sharoitlar yaratilgan bo‘lib, ularning o‘qishi, mehnat qilishi, dam olishini tashkil etilishiga alohida e’tibor qaratilgan. Faoliyat jarayonida talabalarning dunyoqarashi o‘sadi, mustaqil fikrlashga o‘rganadi, yangiliklar yaratib, bunyodkorlik sari intiladi. O‘qish talabalarni ijtimoiy hayotga tayyorlasa, mehnat halollikka, vijdonli bo‘lishga, oila va vatanni

qadrlashga o'rgatadi. Talabalarni faoliyatga yo'naltirishda rejalilik muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bir vaqtning o'zida talabalar bir nechta faoliyat turi bilan shug'ullanishlari mumkin. Ana shunday jarayonda reja asosida ishlar tashkil etilsa, uning natijasi muvaffaqiyatli bo'ladi.

Talabalarni zararli axborot xurujlaridan himoyalash qoidasi. Globallashuv jarayonida talabalarni zararli axborot xurujlaridan himoyalash nafaqat bizning jamiyatimiz oldidagi, balki bugungi kun dunyo hamjamiyati oldida turgan dolzarb muammo. Talabalar ongi, dunyoqarashi, ma'naviyati, e'tiqodiga yeng kuchli salbiy ta'sir ko'rsatayotgan omil-bu axborotlar. Shu bilan birga, ayni kunlarda talabalarda axborotlarga o'chlik va tobelik kundan-kunga avj olib bormoqda. Hatto ayrim talabalar bugungi kunda reallikdan ancha yiroqlashib, o'zlarini virtual hayotda yashayotgandek his etmoqdalar. Real hayotda esa ular umuman, o'zlarini boshqa vaziyatga tushib qolgandek his etmoqdalar.

Shu bois ular tomonidan ko'ngilsiz hodisalar sodir bo'lmoqda. Masalan, talabalarning o'z ota-onalari va boshqa kishilar bilan tez-tez nizolarga borishi, o'qish va mehnatdan bosh tortish, qo'pollik, jizzakilik, axloqsizlik, agressivlik kabi salbiy holatlarni misol qilib keltirsak bo'ladi. Shubhasiz, bu kabi illatlarning talabalar o'rtasida uchrab turishi zararli axborotlar ta'siridandir. Ayni kunlarda axborotlarning ko'لامи shunchalik kengayib ketdiki, ularning qaysi biri zararli-yu, qaysi biri foydali ekanligini bir qarashda ajratish juda mushkul. Hatto oddiygina ko'ringan multfilmning zararli jihatlari talaygina. Shu bois talabalarning axborotlarga tobeliginining oldini olish, ulardan maqsadli foydalanishni o'rgatish lozim. Buning uchun, albatta, oliy ta'lim muassasalarida talabalarga har qanday axborot ular uchun foydali bo'lmashligini, balki ularning qimmatli vaqtlarini o'g'irlayotgani haqida bot-bot ma'ruzalar, davra suhbatlari, mutaxassislar ishtirokidagi uchrashuvlarni o'tkazib borish maqsadga muvofiq. O'z navbatida talabalar o'rtasida ichki tahdidlarga beriluvchanlik ham axborotlarga o'chlik tufayli kelib chiqmoqda. Ana shu jihatlarni inobatga olib, talabalarni zararli axborotlar xurujidan himoyalashni tamoyil sifatida kiritishni tavsiya etamiz. Chunki globalizatsiya o'z nomi bilan axborotlar davri sanaladi. Axborotlardan maqsadli foydalanishni o'rgatish esa ta'lim-tarbiya jarayonining asosiy vazifasi bo'lmog'i lozim.

Talabalarni ichki tahdidlardan himoyalash tizimi o'rtasidagi integratsiyaning izchilligini ta'minlash qoidasi. Bilamizki, talabalarni ichki tahdidlardan himoyalashda ta'lim muassasasi, jamoat tashkilotlari va oila o'rtasidagi aloqadorlikni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Hayotda ko‘pincha talabalar mustaqil harakat qila boshlaganlaridan keyin mazkur tizim o‘rtasidagi aloqa birmuncha pasayadi. Mazkur yoshda ota-onalarning farzandlariga bo‘lgan ishonchi ortadi va yoshlar bir muncha ota-onalari nazoratidan yiroqlashadilar. Biroq barcha talabalarda ham birdek mustaqil fikrlash, e’tiqod yetarli darajada shakllangan deb bo‘lmaydi. Aynan shunday talabalar kimnidir yoki nimanidir ta’siriga tez va oson tushib qolishi ehtimoli yo‘q yemas.

Ayniqsa, OTMga o‘qishga kirgan talabalarning ko‘pchiligi oiladan yiroqda o‘qishiga to‘g‘ri keladi. Demak, qaysidir ma’noda ular bir oz oiladagi nazoratdan yiroqlashadi desak adashmaymiz. Shunda, albatta, oila zimmasidagi nazorat ta’lim muassasiga yuklatiladi. Shu kunga qadar qaysidir ma’noda oliy ta’lim bilan oila hamkorligida ishlar yo‘lga qo‘yilgan. Ammo jamoat tashkilotlari bilan aloqani yuqori darajada deb bo‘lmaydi.

Sir emaski, uzoqdan qatnaydigan talabalar uchun OTMlarida yotoqxonalar yetarli emas. Ana shu sabab talabalar oliy ta’limga yaqin bo‘lgan shaxsiy xonadonlarda ijarada yashashadi. Bizning muammomiz mana shu jarayonda ro‘y beradi. Ya’ni talaba qanday oilada ijarada turmoqda, bu oilada talaba yashashi uchun sharoit yaratilganmi, yo‘qmi, talaba xulq-atvoriga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omil bormi yoki yo‘qmi, mahallada bu masalaga e’tibor qaratiladimi kabi qator muammolar uchrab turadi.

Bir bolaga yetti mahalla ota-onalardan deganlaridek, mahalla ham o‘z faoliyatida mazkur masalaga jiddiy yondashishi kerak, ya’ni har bir mahalla o‘z hududida yashayotgan talabalar haqida to‘liq ma’lumotga ega bo‘lishi, ularning ota-onalari, OTM vakillari bilan yaqindan aloqa o‘rnatgan bo‘lishi lozim. Kerak bo‘lsa, talaba yashayotgan xonodon uning tarbiyasiga salbiy ta’siri borligi yoki yo‘qligiga jiddiy e’tibor berishi kerak. Mahalla faollari va ichki ishlar xodimlaridan iborat shaxslar ham mazkur masala doirasidagi ishlarni birgalikda bajarishlari lozim.

Demak, o‘z-o‘zidan ko‘rinadiki, jamoat tashkilotlari, ayniqsa, oila OTM va mahalla bilan olib boriladigan ishlar izchil tashkil etilmog‘i va ular o‘zaro aloqadorlikda faoliyat olib bormog‘i lozim. Pedagogik tajribalardan ma’lumki, har qanday yoshdagi tarbiyaning izchil va tizimli davom etmasligi uning muvaffaqiyati va samaradorligini ta’minlamaydi. Talabalarni har qanday tahdidlardan himoyalash jarayoni ham ana shu talablarga javob berishi kerak. Zero, talabalarning buguni va kelajagi uchun mazkur tizimning har biri mas’uldir.

Talabalarda har qanday yot g‘oyalarga qarshi immunitetni shakllantirish qoidasi. Globallashuv jarayonida talabalarda har qanday yot g‘oyalarga qarshi immunitetni shakllantirish ularning ichki va tashqi tahdidlarga berilib ketishining oldini oladi. Bilamizki, immunitet tushunchasi ming yillar mobaynida tibbiyot sohasida qo‘llanilib kelingan. U kishi organizmining biron-bir kasallik, virus, mikroblarga qarshi tabiiy va biologik karshi himoyalanishi va kurashchanligi. Kishi organizmidagi bu himoya shu darajada mukammal va intensiv, mustahkam bo‘ladiki, hech bir zamonaviy tibbiyot uning o‘rnini aslo bosa olmaydi. O‘z o‘rnida mazkur tushunchaning keyingi yillarda pedagogik jarayonda qo‘llanilishi o‘rinli. Chunki globalizatsiya jarayonida turli g‘oya va qarashlarning paydo bo‘lishi yuqumli kasallik yoki qandaydir viruslarning tarqalishiga o‘xshaydi. Afsuski, bu illat o‘ta xavfli hisoblanib, u nafaqat har bir inson ongi va ruhiyatiga, shu bilan birga, jamiyat, millat, davlat taraqqiyoti va kelajagiga hujum qiladi.

Xo‘s, talabalarda mazkur muammoga nisbatan immunitetni qanday shakllantiramiz? Albatta, ularga globallashuv jarayonlari va bu jarayonlardagi xavf-xatarlar, ularning inson ongiga salbiy ta’siri, buzg‘unchi g‘oyalarning ko‘rinishlari to‘g‘risidagi asosli bilim va tushunchalarni berish orqali shakllantirib borish mumkin. Ana shundagina talabalarda turli buzg‘unchi g‘oyalarga qarshi immunitet hosil bo‘ladi.

Yuqorida keltirilgan va tahlil etilgan qoidalar talabalarining hayoti, amaliy harakatlari va faoliyati jarayonida qo‘llanadigan barcha holatlarni qamrab oladi. Demak, talabalarni ichki tahdidlardan himoyalash jarayonida ularning birinchi navbatda salomatligini saqlash va mustahkamlash, faoliyatlarini maqsad asosida qo‘rishga ko‘maklashish, har qanday mafkuraviy g‘oyalarga qarshi immunitetni hosil qilish kabi tamoyillarga asoslanish talabalarining ichki tahdidlarga qarshi kurashchanligini oshiradi va ularda o‘z-o‘ziga bo‘lgan ishonchni hosil qiladi.

Modelning manbalari esa quyidagilar hisoblanadi: milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ta’lim-tarbiya jarayoni, xalq pedagogikasi, sog‘lom ijtimoiy muhit va hokazolar[136; 155-b.]. Ushbu manbalar talabalarni ichki tahdidlardan himoyalashda alohida ahamiyatga ega bo‘lib, ularga tayanmasdan jarayonni amalga oshirish mumkin emas. Ya’ni:

1. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar – insonparvarlik, axloqiylik kabi g‘oyalardan tashkil topganligi va asrlar sinovidan o‘tib, talabalar tarbiyasiga samarali ta’sir ko‘rsatish kuchiga ega ekanligi bois mazkur manbadan foydalanish hayotiy zaruriyat. Shubhasiz, milliy va

umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalangan talabalar ichki va tashqi tahdidlarga berilmaydi, e'tiqodi mustahkam, fidoyi, vatanparvar, mehnatsevar, ma'naviyati yuksak, axloqli avlod bo'lib voyaga yetadi.

2. Ta'lim-tarbiya jarayoni-shaxs shakllanishi va rivojlanishida mazkur manbaning o'rni nihoyatda katta. Negaki, ta'lim-tarbiya jarayonidagina shaxsning tabiat va jamiyat haqidagi dunyoqarashi, intellektual salohiyati, ma'naviyati, hayotiy emotsiyalari, e'tiqodi, qadriyatları, tafakkuri, qobiliyati, nutqi hamda jismoniy rivojlanishi yuksalib boradi. Shu bilan birga, mazkur jarayonda shaxs jamiyatda o'z o'rniga ega bo'la boshlaydi.

3. Xalq pedagogikasi yuqori tarbiyaviy ta'sir kuchga egaligi va hayotiy, ijtimoiy masalarning yechimini o'zida aks ettirganligi bilan qadr-qimmatga ega manba hisoblanadi. Xalq pedagogikasi, ayniqsa, talabalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga kuchli ta'sir o'tkazib, ularda oila va vatanga nisbatan mehr-muhabbat, o'ziga bo'lgan ishonch, mardlik va jasurlik, fidoyilik, saxiylik, oliyjanoblikni tarbiyalaydi[136; 155-b.].

4. Sog'lom ijtimoiy muhit - boshqa manbalar qatori shaxs tarbiyasida sog'lom ijtimoiy muhitning ahamiyati nihoyatda muhim. Qachonki, shaxsni o'rab turgan muhit har tomonlama sog'lom bo'lsagina, talabalar o'z e'tiqodlari va qarashlaridan adashmaydilar hamda o'z oldilariga yuksak maqsadlar qo'yib, kelajak sari dadil qadam tashlaydilar. Aks holda nosog'lom muhit yoshlar hayotini izdan chiqaradi, jamiyatda o'g'rilik, kashandalik, firibgarlik kabi illatlar ko'payadi. Sog'lom muhitda kishilar o'rasisidagi munosabatlar o'zaro hurmat va ishonch asosida quriladi. Zero, sog'lom oila va sog'lom mahalla, sog'lom jamiyat davlatning mustahkamligini, farovonligini ta'minlab beradi.

Ichki tahdidlardan himoyalash modelini tuzishda, albatta, uning tizimini aniqlab olish muhim, ya'ni talabalarni ichki tahdidlardan himoyalashga kimlar, qaysi tashkilotlar mas'ul va uning vazifalari nimalardan iborat.

Demak, bu tizimda davlat, jamiyat, oila, ta'lim muassasasi, mahalla, jamoatchilik tashkilotlari ishtirok etadi va ular o'rtasidagi integratsiya ta'minlanishi kerak. Ta'kidlash joizki, bu tizim elementlari o'z vakolatlari doirasida barcha ishlarni to'laqonli bajarishlari va o'zaro bog'liq, bahamjihat faoliyat olib borishlari lozim. Masalan, oila nafaqat ta'lim muassasasi bilan, balki mahalla, jamoat tashkilotlari kabi tizimda ishtirok etuvchilar bilan hamkorlik qilishi shart. Ayni vaqtida esa, oila va ta'lim muassasasi o'rtasida integratsiya mavjud. Umuman olganda, tizim elementlarining har biri o'z oldiga alohida vazifalar qo'ymog'i darkor, xususan:

Oila - jismoniy va ruhiy sog‘lom, ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega yoshlarni tarbiyalash bilan birga, ularni har qanday mafkuraviy g‘oyalar tahdididan himoyalash hamda ularda sog‘lom turmush tarzini tarkib toptirish vazifasini bajaradi. Shu bilan birga, oila azaliy qadriyatlargalasoslangan holda yoshlarda turli tahdidlarga qarshi immunitetni hosil qilishda ishtirok etadi. Ayniqsa, oila talabalar ongi va amaliy faoliyatiga turli yo‘l va usullar yordamida ta’sir ko‘rsatib, ijtimoiy faol, mustaqil fikrlovchi, biron-bir kasb egasini tarbiyalashni o‘z zimmasiga oladi.

Davlat va jamiyat talabalarning huquqiy, iqtisodiy va siyosiy muhofazasini amalga oshiradi. O‘z vakolati doirasida talabalarni turli tahdidlardan himoyalash chora-tadbirlarini ishlab chiqadi va amaldagi ijrosini nazorat qiladi. Talabalarning ta’lim olishi, sport bilan shug‘ullanishi, madaniy dam olishi, davlat imtiyozlaridan foydalanishining huquqiy imkoniyatlarini kengaytiradi. Eng muhimi davlat va jamiyat ijtimoiy buyurtmachi hisoblanadi.

Mahalla-davlat va jamiyat talablari asosida talabalarni oilaviy hayotga tayyorlashda ishtirok etadi. U talabalarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ishsizlik va talabalar o‘rtasidagi ko‘ngilsiz holatlarning oldini olish hamda talabalarni turli ma’naviy tahdidlardan himoyalashda oila, IIB va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikni amalga oshiradi.

OTM - talabalarning kasbiy tayyorgarligini amalga oshirish bilan birga, ularda ilmiy, siyosiy, axloqiy, mafkuraviy dunyoqarashni shakllantiradi. Shu bilan birga, u talabalarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, sog‘lig‘ini mustahkamlash, turli ichki va tashqi tahdidlardan himoyalash mexanizmlarini ishlab chiqadi hamda amalda qo‘llaydi. Shuningdek, oliy ta’lim muassasasi talabalarini ichki va tashqi tahdidlardan himoyalash tizimidagi asosiy ijrochi hisoblanadi.

Jamoat tashkilotlari - talabalarni ijtimoiy hayotga tayyorlash, ularning tashabbuskorligini qo‘llab-quvvatlash, huquqiy madaniyatini shakllantirish, tibbiy bilimlarini rivojlantirish, ijtimoiy va moddiy qo‘llab-quvvatlashni amalga oshiradi. Shu bilan birga, jamoat tashkilotlari ham talabalarni turli tahdidlardan himoyalash ishtirok etadi.

Ushbu tizim elementlarining vazifalariga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, ularning vazifalari o‘rtasidagi umumiy bog‘liqlik mavjud. Albatta, shunday bo‘lishi ham darkor. Zero, maqsad talabalarni vatanning fidoyi va tashabbuskor, mustaqil fikrlaydigan, e’tiqodi mustahkam shaxslarga aylantirish.

Biz taklif etayotgan modulda talabalarni ichki tahdidlardan himoyalashning shakllari, metodlari, yo'llari, usullari aks etgan. Demak, bular quyidagilar:

Talabalarni ichki tahdidlardan himoyalash shakllari, albatta, shu kunga qadar talabalarga ta'lim-tarbiya berish jarayoni bir necha shaklda amalga oshirilib kelinmoqda. Bugungi kunga kunga kelib, uning yangi shakllari davr ehtiyojiga ko'ra yaratilmoqda. Shunday ta'lim-tarbiya shakllaridan biri masofaviy ta'lim shakli. To'g'ri, masofiy ta'lim an'anaviy ta'lim-tarbiya berish shaklidan keskin farq qilsa-da, biroq uning o'ziga xos imkoniyatlari mavjud. Mobil ta'limda bilim olish ko'proq talabaning qanchalik tarbiyalanganlik darajasi bilan bog'liq desak, adashmaymiz. Ya'ni masofaviy ta'lim olish jarayonida ham talabalarning turli tahdidlar ta'siriga berilib ketish xavfi yuqori. Shu sabab biz pedagoglar ta'limni tashkil etishning bunday shakllaridan foydalanganimizda talabalarga internet va boshqa vositalardan foydalanish madaniyatini o'rgatishimiz, faqat bilim olish lozimligini qayta-qayta uqtirishimiz darkor. Albatta, bu jarayonda moduldagи tizimlar integratsiyasi o'z vazifasidagi ishlarni bajarishi darkor. SHu bilan birga masofaviy shakldan foydalangan holda, talabalar o'rtasida ichki tahdidlardan himoyalash mavzusidagi ko'rik-tanlov va ko'rgazmalarni o'tkazish maqsadga muvofiq. Bular "Biz tashabbuskor yoshlarmiz", "Odam savdosi-davr muammosi", "Biz terrorizm va diniy ekstremizmga qarshimiz", "Internet va men" kabi mavzulardagi maqolalar, insholar, rasmlar ko'rik-tanlovlар bo'lishi mumkin.

Talabalarni ichki tahdidlardan himoyalash yo'llari esa quyidagilar: davra suhbatlari, bahs-munozaralar, uchrashuvlar, ma'ruzalar, sayohatlar va boshqalar.

O'z navbatida himoya metodlari ham mavjud bo'lib, ularga quyidagilar kiradi: "Kontseptual jadval", "Assesment", "Insert", "Aqliy xarita", "Motivatsion rolik" va boshqalar.

Demak, biz taklif etayotgan modelda talabalarni ichki tahdidlardan himoyalash maqsadi, tamoyillar, manbalar, tizim, shakllar, usul va boshqalar aks etgan bo'lib, ular biz tadqiq etayotgan muammo samaradorligining oshishiga olib keladi.

## 2.2. Talabalarni ichki tahdidlardan himoyalash tizimi

Talabalarni ichki tahdidlardan himoya qilish-maxsus kasbiy kompetentsiyaning asosiy komponentlaridan biri. Shu bois talabalar ma'naviyatini boyitish, ma'naviy bo'shliqlarni to'ldirish, talabalarda

o‘zligini anglatish, qadr-qimmatini asrash, fidoyilik, qat’iyatlilik, mas’uliyatlilik, ijodkorlik kabi sifatlarni tarbiyalash, rivojlan-tirishni ta’lim-tarbiya jarayonining tarkibiy asosi sifatida qarash lozim.

Talabalarda ichki tahdidlarni bartaraf etishda ularning ijtimoiy salomatligini, qiymat ierarxiyasini, umuman, ma’naviy holatini aks ettiruvchi kategoriya sifatida ko‘rib chiqish muhim. Talabalarning ijtimoiy salomatligi to‘g‘risidagi ob’ektiv ma’lumotlar, shuningdek, uning har tomonlama rivojlanishidagi ma’naviy madad va yoshlarning ma’naviy muhitini “tozalash” sohasidagi muammolarni hal qilishda sifat jihatidan yangi yondashuv zarurligini ko‘rsatadi. Bunda talabalarga mustaqil mavqega ega bo‘lishi maqsadga muvofiq. Chunki sub’ekt sifatida o‘zlarining ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlarini anglay olmaydigan talabalar rivojlanishidagi qarama-qarshi shart-sharoitlar ular faolligini pasaytirishning asosiy omili. Bu omillar esa talabalar faolligida noaniqlik, befarqlik va loqaydlik kabi ichki tahdidlarni kuchayishiga sabab bo‘ladi.

Bizningcha, talabalar ichki tahdidlardan ximoyalanishda, avvalo, quyidagi jihatlarni o‘zida aks ettirishi lozim:

1) ichki tahdid, ma’naviy taxdid kabi tushunchalarning mazmun va mohiyatini anglab yetishi; 2) ma’naviyatga oid asosiy atamalarni hayotiy va ta’limiy vaziyatlarda o‘z o‘rnida, nutqda to‘g‘ri qo‘llay olishi; 3) ichki tahdid, uning shaxs va jamiyat manfaatlariga ta’siri nuqtai nazaridan tahlil qila olishi; 4) ma’naviyat va uning amal qilishi qonuniyatlarini tushuntira olishi; 5) hayotiy va ta’limiy vaziyatlarda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan muammolarga to‘g‘ri yechim topa olishi; 6) milliy va umummilliylar ma’naviy meroslarimizni tahlil qilishi va ulardan o‘rinli foydalana olishi; 7) ma’naviyatning kasbiy va ta’limga oid boshqa sohalar bilan aloqadorligini anglab yetishi.


Bugungi globallashuv sharoitida talabalarни kasbiy faoliyatga tayyorlash, ularda ichki tahdidlarga nisbatan immunitetni hosil qilish ko‘nikma, malaka va kompetentsiyalarni rivojlantirishni taqozo etadi. Mazkur vazifaning dolzarbligini quyidagi ijtimoiy omillar orqali asoslash mumkin:

1) ichki tahdidlarning talabalar ongi va tafakkuriga, uning istiqboliga ta’siri jamiyat hayotining rivojlanishiga to‘sinqlik qilishi;

2) talabalarda “soxta ma’naviyat” (turli o‘yinlar, )ning yangi shakllariga qiziqishning ortib borishi.

Ta’kidlab o‘tilgan omillarga asoslanib, pedagogikada shaxs rivojlanishining keng tarqalgan uch sohasi (kognitiv, affektiv, xulq-atvorga

doir)ga asoslangan holda, talabalarning ichki tahdidlardan himoya qilishning quyidagi komponentlari aniqlashtirildi (6-rasm).



### **6-rasm. Talabalarni ichki tahdidlardan himoya qilish komponentlari.**

Quyida talabalarni ichki tahdidlardan himoyalash tuzilmasiga kiruvchi komponentlar:

1. Maqsadga yo'nalganlik-shaxsning jamiyatdagi me'yorlar bilan o'z ehtiyojlari uyg'unlashuvining aks etishi, qadriyatli qurilmada shaxsning amaliy faoliyatda mazkur munosabatlari tizimini ro'yobga chiqarishga tayyorligi tushuniladi. Maqsadga yo'naltirish va rejalarshirish, g'oyalarni ishlab chiqish va baholash, harakatlar unumdarligi, muammoli vaziyatlarni hal etish bilan izohlanadi.

2. O'zbek tilining izohli lug'atida "mustaqil - arabcha so'zdan olingan bo'lib, erkin, ozod, tobe, qaram bo'lman, alohida, ixtiyori o'zida bo'lган ma'nolarni bildiradi. O'zganing yordamisiz yoki rahbarligisiz ish qila oladigan, o'zicha fikr yurita oladigan, yashay oladigan", deb izohlangan [104; 652-b.]. Mustaqillik muntazam nazoratsiz va boshqalarning yordamisiz muammoni aniqlash va shakllantirish, maqsad qo'yish va unga erishish yo'llarini belgilay olish qobiliyati sifatida talqin qilinadi. O'z xatti-harakatlarini nazorat qila oladigan, ezgu maqsadlarini mustaqil ravishda amalga oshiradigan inson jamiyat taraqqiyotiga o'z xissasini qo'shadi.

3. Tadqiqot natijalari talabalarni ma'naviy ichki tahdidlardan himoya qilish, eng avvalo, ularda tashabbuskorlik xislatlarini tarkib toptirish bilan bog'liqligini ko'rsatdi. Ma'lumki, topqir, tashabbuskor talabalar

psixologik xususiyatlariga ko‘ra, xilma-xil faoliyat turlarida bu xususiyatlarini namoyon etishi mumkin. Uddaburonlik, tashabbuskorlik sifati talabalarni ichki tahdidlardan muvaffaqiyatli himoya qilish garovi bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Boshqa tomondan, tashabbuskor insonlar nafaqat ma’naviy yetuk, balki ilmiy, madaniy, siyosiy jihatdan, barcha sohalarda ham yetakchilik qilishadi. Bu borada A.M.Omarov: “tashabbuskorlik-keng va istiqbolni ko‘zlab fikrlaydigan, g‘ayratli, qarorlar qabul qilishda qat’iylikni namoyish etish, tavakkal qila olish” ekanligini ta’kidlaydi. Psixolog R.Xizrach ichki tahidlarni bartaraf etishda tashabbuskorlik inkor etilmaydi va unga quyidagicha ta’rif beradi. “Tashabbuskorlik, eng avvalo, fikr mustaqilligi, nostandardligi, o‘z taqdiriga egalik hissi, tavakkalchilikka qobiliyatlilik degan ta’rif bilan tavsiflanadi [19; 62-b.].

O‘zbek tilining izohli lug‘atida “tashabbuskor - biror ishni, tashabbusni boshlab beruvchi, boshlovchi, tashabbus egasi”; “tashabbuskorlik - tashabbus ishi, tashabbus ko‘rsatish; biror ishda boshlovchi bo‘lish”, deb izohlangan [105; 19-b.].

Tashabbuskorlik - shaxsda muloqotda ijobiy aloqalarni oson o‘rnatish va qo‘llab-quvvatlash, atrofdagilarga o‘zaro harakatga tayyorgarligi hamda tashkilotchilik sifatlarining mavjudligi.

4. O‘zbek tilining izohli lug‘atida “qat’iylik - qat’iy holat, qat’iy holatga egalik, qat’iy ekanlik”, deb izohlangan [106; 266-b.]. Demak, qat’iylik-shaxsning tavakkalchilikka tayyorligi, mustaqilligi va mas’uliyatliligi bilan aloqador. Talabalarda qat’iylikni shakllantirish orqali ezgu maqsadlariga erishishda har qanday to‘sislarni yengib o‘tishga o‘rgatib boriladi.

5. Mas’uliyatlilik ijtimoiy zarurat kasb etib, shaxsning jamiyat tomonidan qo‘yiladigan axloqiy tamoyillar va huquqiy me’yorlarga ongli amal qilishini anglatadi. Mas’uliyatlilik shaxs xususiyati sifatida ijtimoiy qadriyatlar, me’yorlar va qoidalar interiorizatsiyalanadigan birgalikdagi faoliyat jarayonida shakllanadi [89; 356-b.].

6. Vatanparvarlik – bu kishilarning ona-Yurtiga, o‘z Vataniga muhabbati va sadoqatini ifodalaydigan tushuncha. Vatanparvarlik barcha kishilar, xalq, millatlar uchun umumiyligini bo‘lgan asrlar davomida sayqallanib kelgan umuminsoniy tuyg‘u, ma’naviy qadriyatlardan biri. Tarixiy jihatdan vatanparvarlik kishilarning o‘z vatanlari taqdiri bilan bog‘liq ijtimoiy rivojlanish, xalqlarning o‘zlari yashayotgan hudud daxlsizligi va mustaqilligi yo‘lidagi kurashi jarayonida takomillashib kelgan his-tuyg‘ular jamlanmasi ham. Bu vatanning o‘tmishi va hoziri

bilan faxrlanishda, manfaatlarini himoya qilishda namoyon bo‘ladi [86; 72-b.].

Talabalarda vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish va qo‘llab-quvvatlash: bunda ijtimoiy bo‘g‘inlarni - oila va oliy ta’lim muassasalarini ichki tahdidlardan himoya qiluvchi asosiy vosita sifatida mustahkamlash; zamonaviy talabalarning ongi va xatti-harakatlariga ichki tahdidning kuchli vositalaridan biri Internet tarmog‘idan unumli foydalanish qadriyatlari va ustuvorliklarini, ommaviy axborot vositalarining halokatli ta’sirini cheklashni ta’minalash.

7. E’tiqodlilik – bu shaxs, jamoa, guruh, jamiyat tomonidan muayyan g‘oyalarga, baho va me’yorlarga ikkilanmasdan, shubha qilmasdan, qat’iy ishonch asosida shakllangan eng muhim va birinchi darajali sobit tushuncha-lar, tasavvurlar va qarashlar (ilm), ularni faol aqliy va hissiy qabul qilish, sevish (ishq), ularga ixlos qilish, vafodor bo‘lish, o‘z ideallarini, ijtimoiy intilishlari va amaliyotini moslashtirish” [28; 29-b.].

8. Vijdonlilik – bu faqat insonga xos ma’naviy - axloqiy tushuncha. Vijdonlilik (arabcha «vajada» (topmoq)) bu insonning ichki olami, o‘zi va ma’naviy quvvati. Vijdonlilik- bu his-tuyg‘ular, reaksiyalar, xohish-istaklar, biror narsani yaxshi ko‘rish, yomon ko‘rish, moyil bo‘lish, nafratlanish, biror holatdan ma’naviy lazzat olish yoxud alamlanish kabi insoniy tuyg‘ular majmuasi.

9. Irodalilik - (arabcha istak. xohish)-inson tabiatidagi mustah-kamlik, qat’iyatlilik, o‘z xohishini boshqara oladigan, turli hoyu-havaslariga qarshi tura olishni anglatuvchi tushuncha.

Irodalilik “so‘rash, talab qilish, tanlash, afzal ko‘rish” degan ma’nolarni anglatadi. Iroda insonni biron-bir narsani qilishga yoki qilmaslikka undaydigan ichki kuchni anglatadi. Boshqacha qilib aytganda, iroda odamlarning harakati va xatti-harakatlarini boshqarish uchun kuchdir. [56; 21-b.]. O‘z navbatida, iroda kuchi “ongli o‘ylash va qaror qilish qobiliyati, shuningdek, teng ravishda shunday qilish usullaridan birini tanlash va tanlash uchun kuch” hisoblanadi.

Irodalilik talabalarni ichki tahdidlardan asrashning muhim komponenti. Irodalilik sifati ichki tahdididan ximoyalanishda samarali kuchga ega ekanligiga ishongan holda, bu borada muvaffaqiyatga erishishning birinchi shartini belgilaydi. Ichki tahdidlarda yagona quroq irodalilik. U bo‘shlik, dangasalik va loqaydlik kabi ichki dushmanini yo‘q qiladi. Irodasi zaif insondan muvaffaqiyatga erishgan birorta misolni namoyish etib bo‘lmaydi, chunki muvaffaqiyatli bo‘lish - bu mehnat qilish orqali amalga oshadi. Mehnat esa irodaviy sifat. G‘ayrat - bu tayyorlik

natijasi.

A.F.Boshgil iroda va iroda xatti-harakatlarini insonning instinkтив xatti-harakati, odati va taqlididan farq qiladigan xatti-harakat sifatida baholaydi. Irodalilik odamlarni ajratib turadigan asosiy xususiyat ekanligini ta'kidlab, quyidagicha ta'riflaydi: "inson aqli va bilimi bilan emas, balki iroda bilan irodalilik odamni hayvondan ajratib turuvchi xususiyat emas, balki odamni bir-biridan ajratib turadigan yagona ruhiy kuchdir" [56; 21-b.]

Ichki tahdid ildiz otgandan va negativ xatti-xarakatlar shakllanganidan so'ng, tarbiyaviy harakatlarning ta'siri tobora qiyinlashadi va natijaga erishish uchun sabrli bo'lish talab etiladi. Bu borada talabalarda irodaviy sifatlarni rivojlantirish maqsadga erishishni kafolatlaydi.

Talabalarning ichki tahdidlardan himoya qilish komponentlarini tasdiqlash uchun QarDU, TerDU, BuxDU, NamDU talabalari o'rtasida tajriba-sinov o'tkazildi. O'tkazilgan so'rov nomalariga jarayonida 1177 nafar talaba ishtirok etdi. Talabalarga quyidagi savollar berildi: 1. "Ichki tahdid" tushunchasining lug'aviy ma'nosi nimani anglatadi? 2. Ichki tahdiddan himoyalanish uchun insonda qanday xususiyatlar tarkib topishi zarur?

1-savolga 30% talaba – inson ma'naviyatiga yot g'oyalarning kirib kelishi oqibatida shaxs axloqiy qarashlarining buzilishi, deb javob berishgan; 28% talaba ma'naviy qaramlik; 23% talaba ma'naviy zaiflik; 14% talaba fikr bildirishga qiynalishgan.

Talabalarning "Ichki tahdiddan himoyalanish uchun insonda qanday xususiyatlar tarkib topishi zarur?" degan savolga javoblari quyidagi jadvalda ko'rsatib o'tildi (3-jadval).

### 3-jadval

#### **Talabalarni ichki tahdidlardan himoyalashda rivojlanishi kerak bo'lgan xususiyatlarning baholanishi.**

Xususiyatlar	Baho (%) hisobida)
Vatanparvarlik	60
Mas'uliyatlilik	40
Kitobxonlik	20
Irodalilik	60
Tashkilotchilik	30
E'tiqodlilik	60
Maqsadga yo'nalganlik	40
Sogлом turmush tarzi	26

Axborotni idrok etish	10
Tashabbuskorlik	64
Qat’iylik	24
Mehnatsevarlik	38
Mustaqillik	52
Vijdonlilik	62

Talabalarni ichki tahdidlardan himoya qilishda tarkib toptirish lozim bo‘lgan komponentlarga doir tegishli aniq shaxsiy xususiyatlar shartli tavsifga ega. Shaxsning barcha xususiyatlari o‘zaro aloqador.

3-jadvaldan ko‘rinadiki, ichki tahdidlardan himoyalanishning asosiy komponenti tashabbuskorlik qobiliyati.

Ilmiy adabiyotlarni o‘rganish va tajriba-sinov jarayoni asosida talabalarda ushbu komponentlar mezonining uchta darajasi aniqlashtirildi. Mazkur darajalar bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lib, biri ikkinchisini to‘ldiradi va tarkibiy qismiga kiradi.

Aniqlangan belgilariga ko‘ra, har bir mezonning qisqacha tavsifini past darajadan yuqori ko‘rsatkichlar bo‘yicha o‘zgarish dinamikasini namoyish etish uchun jadval ko‘rinishiga keltirildi (4-jadval) [19; 18-b].

#### 4-jadval

#### **Talabalarni ichki tahdidlardan himoya qilish komponentlari, mezonlari va darajalari.**

Ichki tahdidlardan himoyalash komponentlari	Darajalar		
	Yuqori	O‘rta	Past
Mas’uliyatlilik - shaxsning jamiyat tomonidan qo‘yiladigan axloqiy - huquqiy qonuniyatlarga ongli amal qilishi	Topshiriqni bajarishga ishtiyoq bilan tayyorlik, ishni bajarishda mas’uliyatni zimmasiga olish	Ichki norozilik bilan topshiriqni bajarish, guruh bilan ishlashga tayyorlik, yakka tartibdagi topshiriqlardan qochish	Topshiriqni bajarishni xohlamaslik
Irodalilik – oldiga qo‘ygan	Maqsadni to‘g‘ri qo‘ya	Har doim ham qat’iylikning	Aniq maqsad qo‘ya olmaslik,

maqsadiga erishish uchun intilish, motivatsiya va ishonch	olish, mustaqil qaror qabul qilish, ularni bajarishga qat'iyatlilik	yetishmasligi, qiyinchilikka bardosh sizlik	qat'iylikning yetishmasligi
Vatanparvarlik-har bir kishining o‘z uyiga, tug‘ilib o‘sgan yurtiga, eng yaqin kishilari ota-onas, aka-uka, opa-singillariga bo‘lgan munosabati.	Shaxsning vatanparvarlik hissi bilan yashashi. Atrof-muhit, yaqinlari bilan qadriyatli munosabatda bo‘lishi	Milliy qadriyatlarga e’tiborsizlik, loqaydlik,	Ko‘p hollarda o‘zini o‘yash, g‘arb madaniyati-ning ustuvorligi
E’tiqodlilik - shaxsning o‘z qarashlari, tamoyillari, dunyoqarashiga mos ravishda harakat qilishga undovchi, anglanilgan ehtiyojlar tizimi.	Topshiriqlarni bajarishga sidqidildan kirishish, mustaqil harakat qilish, kreativ yondashish	Topshiriqlarni tez bajarishga kirishish, biroq xatolarga yo‘l qo‘yish, mulohaza yuritish	Doimiy ikkilanishning mavjudligi
Tashabbuskorlik - insonning kreativ fikrlashi, ijodkorligi, o‘z g‘oyalarida sobit tura olishi, so‘z va harakatining birligi	Ijtimoiy hayotda sodir bo‘layotgan voqelikka ongli munosabatda bo‘lish	Yo‘riqnomasiz, buyruqlarsiz ishning zarur qismini bajarish	Ko‘rsatmaga tayangan holda vazifani bajarish
Mustaqillik - muammoni aniqlash va hal qilish, maqsadga erishish yo‘llarini topish, teran va ijobiy fikr yuritish	Topshiriqlarni mustaqil bajarish, samarali natijaga erishish malakasi,	Topshiriqlarni bajarishda boshqalarning ko‘magiga ehtiyoj sezish	Ishni bajarishda o‘zgalarning yordamiga tayanish

	atrofdagilarni ishontira olish		
Tashkilotchilik - maqsadga erishish yo‘lida o‘zining hamda atrofdagilarning faoliyatini tashkil etish malaka va kompetentsiyasi	Liderlik qobiliyatini namoyon qilish, o‘z guruhini tuzish, ezgu g‘oyalarni targ‘ib qilish	Asosiy topshiriqlarni bajarishda ishonchning yetishmasligi, vazifalarni oxirigacha yetqazmaslik	Jamoada muloqotga kirisha olmaslik va ruhan yaqin bo‘lomaslik

Aynan talabalarda shaxs sifatlarini rivojlantirish ichki tahdidlarni bartaraf etish omili sifatida maydonga chiqadi. Keyingi paragrafda talabalarni ichki tahdiddan himoya qilish metodikasini taklif etamiz.

### **2.3. Talabalarni ichki tahdidlardan himoya qilishning pedagogik mexanizmini takomillashtirish**

Talabalar ma’naviyatini yuksaltirish, ichki tahdidlardan himoya qilish mexanizmini takomillashtirish ishi shaxsning faoliyatli yondashuv asosida amalga oshirishni ko‘zda tutadi. Tahlil natijalari faoliyatli yondashuvning bir qancha kontseptsiyalari mavjudligini ko‘rsatdi. Mazkur kontseptsiyalarning asosida pedagog va talabalarning o‘zaro birgalikdagi harakatiga asoslangan subyekt-subyekt tizimini yaratishda tarbiya jarayoniga barcha ishtirokchilarining qiziqish va ehtiyojlarini hisobga olish g‘oyasi yotadi, degan xulosaga kelindi.


Tadqiqot natijalari talabalarni ichki tahdidlardan himoyalashning bir qator bosqichlarini faoliyatga taklif etish lozimligini ko‘rsatdi: ta’lim jarayoni+tarbiyaviy tadbirlar+muvaffaqiyatga intilish+o‘z-o‘zini anglash+individual xulq-atvor strategiyalarini tanlay olish; ma’naviy-axloqiy me’yorlarni qabul qilish va faoliyatda namoyon etish shaklida namoyon bo‘ldi (7 -rasmga qarang).

Talabalarning ichki olamini boyitish, ma’naviyatini yuksaltirish, turli ichki tahdidlardan himoyalash texnologiyasi quyidagi majmuali vazifalarni hal etishga imkon beradi:

Ta’lim-tarbiya jarayonida neogen (yangicha) topshiriqlardan foydalanish asosida talabalarda ichki tahdidlar va ularning talaba shaxsiga ta’sirini anglashga yo‘naltirish. Neogen topshiriqlar talabalarni mustaqil va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga imkon beruvchi treninglar yakka, guruhiy va jamoaviy shakllarda taklif etilib, interfaol texnologiyalar, assesmentlar vositasida faoliyatda amalga oshiriladi [18; 165-b.]. Talabalar

o‘z ichki olamida yuzaga keladigan muammoli vaziyatlarga yechim topish, qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Neogen topshiriqlarni bajarish uchun talabalarning o‘zlarini o‘z “men”i nuqtai nazaridan tahlil qilishadi (7-rasm).

Shuningdek, mazkur topshiriqlarni bajarish uchun zarur manbalardan axborotlarni izlab topish va o‘quv topshirig‘ini bajarish jarayonida manbalardan oqilona foydalanish talab etiladi. Foydalanilgan manbalarning o‘z hayotlarida



### **7-rasm. Talabalarni ichki tahdidlardan himoyalash metodlari.**

ahamiyat kasb etishi to‘g‘risida mulohaza yuritishadi. Xullas o‘z-o‘zining ma’naviyat darajasini baholab boradi.

Talabalarda ichki tahdidlarning mazmun-mohiyatini tushunish ko‘nikmasini shakllantirish uchun tanlangan kasb sohasining amaliy jihatlari bilan aloqador o‘quv topshiriqlarini ishlab chiqish hamda talabalarning interfaol metodlar orqali topshiriqlarni bajarish jarayonidagi faol ishtirokini ta’minlash. Bu orqali talabalar, bir tomonidan, ichki tahdidlarning shaxsga ta’siri va uning oqibatlarini o‘z tajribasiga asoslangan holda o‘zlashtirishadi; ikkinchi tomonidan, birgalikdagi hamkorlikdagi faoliyat malakasiga ega bo‘lishadi, ichki qiziqish, mas’uliyat bilan yondashish, o‘rtoqlari bilan nizoli vaziyatlarni bartaraf etish layoqatini egallaydi. Bu talabada ijtimoiy moslashish, axloqiy me’yorlarga amal qilish ko‘nikmasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Talabalarni ichki tahdidlardan ximoya qilish tarbiyaviy tadbirlar orqali rivojlantirib borishilishini ta’minlash lozim. Bunda talabalarda ichki hissiyotlarni rivojlantirish auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarni uyg‘unlashtirish asosida ta’limning faol hamda interfaol metodlaridan foydalanishni talab etadi.

Tadqiqot doirasida talabalarda ichki tahdidlarga qarshi tura olish ko‘nikmalarini rivojlantirishning ta’limiy-tarbiyaviy didaktik ta’minoti

ishlab chiqildi. Mazkur didaktik ta'minot “Umumiy pedagogika”, “Tarbiyaviy ishlar metodikasi” fanlari va auditoriyadan tashqari tarbiyaviy mashg‘ulotlarda foydalanish imkoniyati mavjud (mazkur texnologiyalar Ma’naviy tarbiya.uz-saytiga joylashtirilgan). Quyida didaktik ta'minotdan tajriba-sinov ishlari jarayoniga tatbiq etilgan interfaol ishlanmalarning namunalarini keltirib o’tamiz:

Muammoli vaziyat. Hayotdagi har bir odam samimiylilikni o’rnatadigan va his-tuyg‘ulari va qayg‘ularini baham ko‘radigan do‘stlarga muhtoj. Do‘st orttirishda saxiy bo‘lishi kerak. Chunki hech bir qaysar odamning do‘sti yo‘q. Do‘stlik haqiqiy do‘stlik bo‘lishi uchun nima qilish zarur?

U shaxsiy manfaatlarga asoslanmasligi kerak. Yaxshi do‘st sizning do‘stligingizni yomon kuningizda ko‘rsatadi. Do‘stlikni mustahkam va uzoq umr ko‘rish uchun seving va u samimiylikka asoslangan bo‘lishiga astoydil harakat qiling. Bu barcha istagan do‘stlik shakli. Bunday do‘stlar xatolarning oldini olishi, insonga kamchiliklarni yashirishda, albatta, yordam beradi. Yoshlikda orttirilgan do‘stlik yanada mustahkam bo‘ladi, deb o‘yaydiganlar bu masalani quyidagicha izohlaydi: “Yoshligingda yaxshi do‘st qozon. Qarilikda orttirilgan do‘stlik mustahkam emas. Chunki zanglagan qalay yelimni ushlab turmaydi ” [19; 139-b.]

Talabalar quyidagi 5-jadval asosida tuzilgan kontseptual jadvalni to‘ldiradilar:

**5-jadval**  
**“Kontseptual jadval” GO bilan ishlash uchun ish qog‘izi.**


		<i>Muhim belgi (yoki tavsif)lar</i>		
<i>“Zanglagan qalay yelimni ushlab turmaydi”</i>		<i>1-belgi (tavsif)</i>	<i>2-belgi (tavsif)</i>	<i>3-belgi (tavsif)</i>
<i>1-jihat</i>	<i>Yoshlikda olingen bilim toshga o‘yilgan naqsh</i>	<i>Do‘stlikni mustahkam va uzoq umr ko‘rishi uchun uni sevish hamda u samimiylikka asoslangan bo‘lishi kerak.</i>		<i>Shaxsiy manfaatlarga asoslanmasligi</i>
<i>2-jihat</i>	<b>“Yoshligida</b>	<b><i>Do‘st boshga kulfat</i></b>		<b><i>Yoshlikdagi</i></b>

	<i>yaxshi do'stning e'tiborini va mehrini qozonish lozim.</i>	<i>tushsa sinaladi</i>	<i>do'st jon do'st.</i>
<i>3-jihat</i>	<i>Do'st do'stning oynasi</i>	<i>Do'stning kamchiliklarni yashirish</i>	<i>Xatolarning oldini olish</i>

## **5-jadval. “Kontseptual jadval” GO.**

**Idrok xaritasi-** fikrlashning vizuallashgan ko‘rinishi. T. Byuzen va B. Byuzenlar tomonidan kishilarda fikrlash qobiliyatini intellekt xaritalar orqali rivojlantirish g‘oyasi ilgari surilgan. idrok xaritalaridan o‘z faoliyatini tahlil etishda, o‘quv materiali tarkibini o‘rganish, tushunish va eslab qolishda, muammolarni tahlil qilish, qaror qabul qilish, ma’lumotlarni o‘zlashtirish, taqdimot o‘tkazish kabi jarayonlarda yuqori samaradorlikka erishiladi.

Muammo. Harakat va munosabatlarning ba’zi shakllari mavjud va ular individual va ijtimoiy deb ikkiga bo‘linadi. Shaxsiy axloq - bu insonning o‘z vazifasi va ichki axloqi, boshqa odamlar oldidagi burchi. Axloq va ma’naviyat tushunchalari o‘zaro bog‘liq.



## 8-rasm. Idrok xaritasi.

Inson ma'naviyatiga ikkita - Ma'naviy va Axborot xuruji ta'sir etadi. U insoniy aloqalarning mustahkamlanishi va axloqqa jiddiy ta'sir etadi.

Topshiriq. Ma'naviy xuruj va axborot xurujini qanday idrok etasiz?

## “Shaxs qadriyatini aniqlash” metodikasi.

Rokach tomonidan taklif etilgan, tadqiqotchi olima M. Artiqova adaptiv qo'llashga erishgan mazkur metodikadan biz o'z tadqiqotimiz doirasida talabalar faoliyatiga moddiy va ma'naviy hayotga qadriyatli munosabatning shakllanganligini aniqlashda foydalanish mumkin deb hisobladik. Mazkur metodika talabalarning ijtimoiy muhitda, hayotning turli jabhalarida o'zini o'zi anglash chegaralarini kengaytirish, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar asosida o'quv-tarbiyaviy jarayonidagi faoliyati, shuningdek, o'qishdagi faollikkaga undashda samaralidir.

Ma'lumki, inson hayotida muhim o'rin tutadigan ikki turdag'i qadriyatlarni ajratib ko'rsatish mumkin.

1) talaba shaxsining o'z hayotida ma'naviy-axloqiy dunyoqarashiini rivojlantirish va mustahkamlashda asosiy o'rin tutuvchi ijtimoiy maqsad, muhim hayotiy qarorlari hamda o'z xatti-harakatining to'g'rilingiga bo'lgan ishonch, ya'ni terminal qadriyatlar; 2) shaxsning bir-biridan ajratib turuvchi irodaviy sifatlarining namoyon bo'lishi, ularning faoliyat samaradorligini ta'minlashdagi ahamiyatini ta'minlovchi instrumental qadriyatlar.

Mazkur metodikadan quyidagi tartibda foydalaniladi: har bir talabaga yakka tartibda shaxsga yo'naltirilgan hamda faoliyatga yo'naltirilgan qadriyatlar ro'yxati (jadvalda) taqdim etiladi. Ular ro'yxat bilan tanishib chiqib, dastlab shaxsiy, keyin esa faoliyatga yo'nalgan qadriyatlarning talabaning o'z tajribasi, yashash imkoniyati, aniq maqsadi va maqsadi va harakatlariga qay darajada daxldor hamda ahamiyatli ekanligini belgilaydilar. Bunda har ikki guruhda berilgan qadriyatlar 1-, 2-, 3- va ... 10-o'rin tarzida qayta tartiblanadi. [19; 142-b.]

Sinov jarayonida respondentlarning erkinliklari ta'minlanadi, ularga hech qanday maslahat berilmaydi, shuningdek, ularning shaxsiy fikrlari tahlil qilinmaydi. Quyida metodikaning mazmuni yoritilgan jadval keltiriladi (6-jadvalga qarang).

#### **6-jadval**

#### **"Shaxs qadriyatini aniqlash" jadvali.**

Shaxs xos qadriyatlar	ASI holdagi	Qayta Tartibla	Amaliy (harakatga yo'naltiruvchi) qadriyatlar	Asosiy tartib	Qayta tartiblas h
Jo'shqin hayot	1		Tartiblilik (intizom)	1	
Hayotiy tajriba	2		Axloqiylik	2	
Salomatlik	3	1	Hayotiy ehtiyoj	3	
Qiziqarli kasbiy faoliyat	4		Quvnoqlik	4	

Tabiat (san'at) go'zalligi	5		Mustaqillik	5	
Muhabbat (sevgi)	6		O'ziga va o'zgalar xarakatlariga nisbatan tanqidiy yondashuv	6	
Iqtisodiy farovonlik	7	2	Bilimlilik	7	
Haqiqiy do'stga ega bo'lish	8		Javobgarlik	8	
Jamoada o'z o'rniga ega bo'lish	9		O'z-o'zini nazorat qilish	9	
Keng tafakkur	10		O'z fikriga egalik	10	
Ma'naviy jihatdan kamolotga erishish	11		Kuchli iroda	11	
Keksalik huzur- halovati	12		Ratsionalizm	12	
Erkinlik	13		Sabrlilik	13	
Baxtli oilaviy hayot	14		Dunyoqarash kengligi	14	
Mustaqillik	15		Vijdonlilik	15	
Yaqinlarning baxti	16		Odillik	16	
Ijod	17		Ish unumдорлигi	17	
O'ziga nisbatan ishonch	18		Sinchkovlik	18	

Mazkur metodika orqali talabalarning shaxs sifatlari, ularning iroda kuchi haqida taassurot hosil bo'ladi. Shuningdek, talabalar metodika orqali o'zлari anglamagan, lekin shaxs uchun xayotiy zarurat bo'lgan sifatlar bilan to'qnash keladilar va o'z-o'zini baholay boshlaydilar. Baholash esa shaxsdagi ijobiylar va salbiy hususiyatlarni tahlil qilish imkoniyatini yaratadi.

### **SWOT - tahlil texnikasi.**

Uning nomi inglizcha so'zlarning birinchi harfidan olingan bo'lib:

**Strengths** - kuchli tomonlar.

**Wearnesses** - ojizlik yoki muammolar.

**Opportunetiss** - ichki imkoniyatlar.

**Threats** - tashqi xavf-xatar, tahdidlar.

## 7-jadval

### “Men o‘qigan badiiy asar” mavzusi bo‘yicha SWOT tahlili

<b>S</b>	<b>Strengths - kuchli tomonlar</b>	-irodali bo‘lishga yordam beradi (kitob o‘qish, uni nihoyasiga yetkazish insondan irodani talab qiladi); -asar qahramonlari hatti-xarakatlari tahlil qilinadi, baholanadi; -o‘qilgan asarni boshqa asarlar bilan solishtirib, tahlil qilish mumkin; -insonning ichki muammolariga yechim topishga va harakat rejasini tuzishga imkon yaratadi. -muloqotga kirishish jarayonini osonlashtiradi.
<b>W</b>	<b>Wearnesses - ojizlik yoki muammolar</b>	-mutolaa uchun har doim vaqt ajratishga imkon bo‘lmashigi; -asar mohiyatini har kim o‘z dunyoqarashiga moslab olishga urinishi.
<b>O</b>	<b>Opportunetiss -ichki imkoniyatlar</b>	Yana qo‘srimcha quyidagilarni qayd etish mumkin: -o‘qilgan asarni o‘z yaqinlariga, do‘stlariga tavsiya etishi yoki taqdim qilishi; -asarni nechta kishi o‘qigan bo‘lsa munozara qilish istagini ustuvorligi; -asar qahramonlari qiyofasini o‘zlashtirish
<b>T</b>	<b>Threats - tashqi xavf-xatar, tahdidlar</b>	Asar mazmunidan bexabar o‘quvchiga noto‘g‘ri ma’lumot berilsa, kitob haqida salbiy fikrlarning paydo bo‘lishi, qitobxonlik darajasining pasayishi, ma’naviyatiga zarar yetishi .

### „SCAMPER“ metodi.

**Vaziyat:** talaba sifatida sizda ichki tahdidlar paydo bo‘ldi. Bu albatta sizni rivojlantirishga to‘siqlik qiladi. Siz o‘zingizdagи irodasizlik, dangasalik, yaxshilik istamaslik, o‘zingizni o‘ylash istagini ustuvorligi kabi ichki tahidlarni qanday bartaraf etsam ekan, deb o‘ylanib qoldingiz („SCAMPER“ jadvalini to‘ldiring).

## 8-jadval

### „SCAMPER“ metodi

<b>Ichki tahdidlardan himoyalanish mehanizmi</b>		
<b>SCAMPER savollari</b>	<b>SCAMPER savollari (yangi g‘oyani ishlab chiqish)</b>	<b>Muqobil imkoniyatlar</b>
<b>S - Substitute</b>	Nima bilan almashtirish mumkin?	„O‘z-o‘zini anglash“ dasturi
<b>C - Combine</b>	Nima bilan birlashtirish mumkin?	Boy tarixiy tajriba bilan
<b>A - Adapt</b>	Nimaga moslashtirish kerak?	Innovatsion faoliyatga
<b>M - Modify</b>	Qanday yaxshilash mumkin?	?
<b>P - Put</b>	Nimalarni o‘zgartirish mumkin? (shakl, tur, belgi, rang va boshqalar)	Ta’lim faoliyatli yondonoshuv asosida tashkil etilishi
<b>E - Eliminate</b>	Yana qanday holda qo‘llash mumkin	Jamoaviy
<b>R- Reverse</b>	Nimani qayta tiklash mumkin?	?

„SCAMPER“ savollariga berilgan javoblar natijasiga ko‘ra, qaysi savolga javob berish qiyinroq ekanligini aniqlang. Xuddi shu narsa sizdagi ichki tahdidlardan himoya qilishga imkon berishi mumkin. Shuningdek, yoningizda o‘tirgan o‘rtoqlaringiz bilan javoblariningizni taqqoslang. Nima sababdan javoblar turlicha bo‘lib chiqdi?

### Keyslar

**1-keys.** “Odatlarga qarab qo‘yadigan birinchi qadamningizga juda ehtiyyot bo‘ling, yaxshilab o‘ylang va irodangizga tayaning; yomon yo‘ning loyiga tushmaslikka harakat qiling. Keyin oyoqlaringizni yuvishda qiynalmaysiz. O‘z hayotini qimor stolida va pivo burchagida o‘tkazgan baxtsiz odamlar doimo birinchi qadamning qurbanlari bo‘lishadi” [56; 21-b.]

Keys bo‘yicha topshiriqlar:

1. Odatlar deganda, nimani tushunasiz?
2. Nega irodaga tayanish lozim?
3. “Baxtsiz odam” degan iboraga qanday izoh berasiz?
4. Qanday xulosa berasiz?

**2-keys.** Galadagi qushlardan biri undan chetga chiqib ketsa, u shu zahotiyoy uchish tezligini yo‘qota boshlaydi va shu bois tezda galadagi o‘z joyiga qaytadi. CHunki bir o‘zi uchayotgan vaqtida qush havoning kuchli

qarshiligiga uchraydi, gala bo‘lib uchayotganda esa u gala yetakchisi hosil qila boshlagan “ko‘tarish kuchining” afzalligidan foydalanib, parvoz qiladi.

Keys bo‘yicha topshiriqlar.

1. Qush nega galadan chetga chiqishi mumkin?
  2. Uchish tezligini yo‘qotish insonlarga nisbatan ishlatilsa inson qanday hissiyotni boshidan kechirishi mumkin?
  3. Galaga qaytgan qush yana o‘z o‘rnini topadimi?
  4. Inson kamolotida jamoaning ahamiyati qanday?
- Quyidagi 9-jadvalni to‘ldiring.

### **9-jadval**

t/r	“Men”ing maqsadim	Jamoa maqsadi
1.		
2.		
3.		

**3-keys.** Mehnatga ongli munosabatda bo‘lish talabalar kamolotida yetakchi omil hisoblanadi. Talabalarga mehnat qilish bo‘yicha quyidagi maslahatlarni berish muhim:

Mehnat qilish uchun tegishli kun yoki vaqtini kutmaslik kerak, shuni yodda tutish kerakki, ishslash uchun har kun, har soat eng maqbul vaqt hisoblanadi. Bugungi ishlar ertangi kunga qoldirilmasligi kerak, har bir kunning o‘z ishi va muammosi bor. Uni olib tashlamaslik kerak. Boshlangan ishni ikki barobar kamaytirish kerak, chunki tark etilgan ish hech qachon boshlanmaganligini anglatadi. O‘sha kuni ish tugagach, ertasi kuni nima qilish kerakligi haqida reja tuzilishi kerak. Doimiy va muntazam ishslash, har kuni bir xil soatlarda ishslashga e’tibor berish ko‘rsatilishi kerak, dam olish bahonasida hech qachon bo‘sh qolmasligi kerak. Zero, “bo‘sh o‘rindiqda ishlamaydigan temir zangni ushlab turadi”.

1. Talaba sifatida sizning kun tartibingiz mavjudmi? Amal qilasizmi?
2. Kundalik ish boshlanganida sabrsizlik namoyon bo‘lmasligi kerakmi?
3. “Bo‘sh o‘rindiqda ishlamaydigan temir zangni ushlab turadi” iborasini tajribangiz asosida qanday tushunasiz?

Globallashuv jarayonida ta’lim tizimining ham taraqqiyotida tezkor va sifatli o‘zgarishlarni talab etadi. Chunki ta’lim orqali keng tafakkurga ega, tanqidiy mushohada qila oladigan yangi avlodni shakllantira olishimiz mumkin. Bunda esa “Assesment” texnologiyasining ahamiyati katta.

Quyida namuna sifatida tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan assesment topshiriqlarini namuna sifatida 10-jadvalda keltirib o'tamiz.

## 10-jadval

### 1-assesment topshirig'i

MUAMMOLI VAZIYAT	TOPSHIRIQ
<p>Xazrati Rumi o'zining mashhur "Ichindagi ichindadur" asarida quyidagi savol-javobni keltiradi:</p> <p>Dediki: "Onangni nechun o'ldirding?"</p> <p>Dedi: "Unga yarashmagan bir ishni ko'rdim".</p> <p>Dediki: "Ammo onangni emas, yetti yot begonani o'ldirsang bo'lmasmidi?"</p> <p>Dedi: "Har kuni bittadan o'ldirayinmi?" mazmunidagi savol-javobining mohiyatini anglash yoshlar ma'naviyatida ahamiyatga ega. (Jaloliddin Rumi. Ichindagi ichindadur. T: Kamolot kutubxonasi.2016. 3-bet)</p> <p>Talaba sifatida usha mashhur savol-javob sizning hayotingizdagi ahamiyati nimalardan iborat?</p> <p>1. Inson ma'naviyatiga biror xavfli jixati mavjudmi? Qanday xulosaga keldingiz?</p> <p>2. "Onani o'ldirish" bilan nimaga erishish mumkin. Bu qo'lingizdan keladimi? sharhlang.</p>	<p>Qush to xom hayolga bormaguncha ovchining to'riga ilinmaydi va sayyodning to'ri-yu sochgan doniga mayl qilmaguncha, unga ajal qafasi ochilmaydi. (Alisher Navoiy. maxbub ul qulub. -T.: Sano standart, 2018. - 131 bet)</p> <p>Sizningcha, xom hayol nima?</p> <p>Sizdagi xom xayollar nimalarda o'z aksini topadi?</p> <p>Xom xayollar insonni nimaga yetaklaydi?</p> <p>Ma'naviyatga ta'siri qanday?</p>
<p>Har bir insonda ma'naviy xurujga qarshi immunitet shakllangan. Kimda yuqori, kimda past. Sizningcha, ma'naviy xurujdan himoyalanish omillari mavjud. Quyidagi keltirilgan ro'yxatda muayyan omillar keltirilgan bo'lib siz ularning ichidan asosiy 4 ta omil raqamini jadvalga ketma ketlikda joylashtiring:</p> <p>*maqsadning aniq qo'yilishi;</p> <p>* yomon fe'l-atvorlarni tark etish;</p> <p>*aql, zehn va farosat;</p>	<p>Yoshlarga oid Davlat siyosati to'g'risida"gi Qonun qachon qabul qilingan?</p> <p>A. 2016 yil, 14 avgust  B. *2016 yil, 14 sentyabr  C. 2017 yil, 14 sentyabr  D. 2017 yil, 14 avgust</p>

\*go‘zal tarbiya;  
 \*millat tarixi, an’analari va urf-odatlariga  
 hurmat;  
 \*mufavvaqiyatsizlikdan qo‘rmaslik;  
 \*mehnatga ijobiy munosabat;  
 \*ilm ahliga hurmat;  
 \*har bir vazifani o‘z vaqtida bajarish;  
 \*irodalilik sifatiga egalik;  
 \*o‘z-o‘zini baholash.

## 11-jadval

### 2-assesment topshirig‘i

MUAMMOLI VAZIYAT	AMALIY KO‘NIKMA													
<p>“Bir filni sug‘ormoq uchun suv bo‘yiga keltirdilar. U o‘z aksini suvda ko‘rib xurkidi. Lekin u boshqasidan qo‘rqdim deb o‘ylar,o‘zidan cho‘chiganini bilmasdi. Inson o‘z kalligidan va chipqonidan irganmas. U yarali qo‘lini bemalol ovqatga uzatadi va yalaydi. Ammo birovning qo‘lida kichik bir chipqon yohud yara ko‘rsa, bas, ovqat yeyishdan to‘xtaydi, jirkanadi.</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Insondagi yomon fe’llar nimaga o‘xshaydi?</li> <li>2. Nega o‘z aybi ko‘rinmaydi?</li> <li>3.”Mo‘min-mo‘minning oynasi” hadisini qanday izohlaysiz?  <a href="http://ulugbekhamdam.uz/?p=206">http://ulugbekhamdam.uz/?p=206</a></li> </ol>	<table border="1"> <tr> <td>Go‘zal odatlar</td><td>Salbiy odatlar</td></tr> <tr><td></td><td></td></tr> <tr><td></td><td></td></tr> <tr><td></td><td></td></tr> <tr><td></td><td></td></tr> <tr><td></td><td></td></tr> </table>		Go‘zal odatlar	Salbiy odatlar										
Go‘zal odatlar	Salbiy odatlar													
TOPSHIRIQ	Test													
Donolar demishlarkim: «Sen o‘zingni ko‘rmoq istaysanmi? U holda ko‘zgudagi tashqi qiyofangga emas, ichingdagi ko‘zguga boq» jadvalni to‘ldiring	Assertivlik nima? A. O‘zgalar shaxsiyatini hurmat qilish. B. O‘zgalar mulkini hurmat qilish. C. O‘zini hurmat qilish.													
Tashqi qiyofa	Ichki qiyofa													
Tashqi va ichki qiyofangizni tasvirlab														

bering. Aytilgan so‘zlar faoliyatingizda qay darajada ahamiyatli ekanligiga doir hayotiy misollar keltiring.

## 12-jadval

### 3- assesment topshirig‘i

<b>MUAMMOLI VAZIYAT</b>	<b>SIMPTOM</b>												
<p>Dovud Toiydan: «Nega insonlar bilan osh-qatiq bo‘lmaysan?» deb so‘ralganida shunday javob bergandi:</p> <p>Menga ayb va qusurlarimni aytmaydigan insonlar bilan yaqin yurib nima qilaman? (Toxir Malik. Odamiylik mulki. T. Istiqlol. 2005.128 bet)</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>1. Sizning kamchilicingizni ko‘rsatishsa qanday munosabat bildirasiz?</li> <li>2. Sizchi? Biror do‘stingizning kamchiliginini ayta olasizmi?</li> <li>3. Kimningdir kamchiliginini aytish uchun insonda qanday sifatlar bo‘lishi kerak deb o‘ylaysiz?</li> </ul>	<p>Inson uchun eng yomon xususiyatlar nima?</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Dangasalik.</li> <li>2. Yolg‘onchilik</li> <li>3. .....</li> <li>4. .....</li> <li>5. .....</li> <li>6. .....</li> </ol> <p>Fikringizni tezkorlikda bayonetning.</p>												
<p><b>TOPSHIRIQ</b></p> <p>Ma’naviyat, axloq, ruhiyat, iroda, mehmondo‘stlik, sabr, mustaqillik, vatanparvarlik, mas’uliyat, sadoqat, Berilgan so‘zlarni ma’naviyat va axloqqa tegishli ekanligini ajrating va mos raqamlarni jadvalning javob raqamlari qismiga yozing.</p> <table border="1" style="width: 100%; border-collapse: collapse;"> <tr> <td style="padding: 5px;">Ma’na viyat</td><td style="padding: 5px;"></td><td style="padding: 5px;"></td><td style="padding: 5px;"></td><td style="padding: 5px;"></td><td style="padding: 5px;"></td></tr> <tr> <td style="padding: 5px;">Axloq</td><td style="padding: 5px;"></td><td style="padding: 5px;"></td><td style="padding: 5px;"></td><td style="padding: 5px;"></td><td style="padding: 5px;"></td></tr> </table>	Ma’na viyat						Axloq						<p><b>Test</b></p> <p>Tarbiya nima?</p> <p>A. Shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma’naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayon.</p> <p>B. Bilim berish, malaka va ko‘nikmalar hosil qilish jarayoni, kishini mehnatga tayyorlash vositasi.</p> <p>C. Bilim, ko‘nikmalarni notanish vaziyatlarda qo‘llash</p>
Ma’na viyat													
Axloq													
<p>Bergan javobingizni izohlab bering. Nega shunday o‘ylaysiz? Hayotiy tajribaga tayanib javob berishga harakat qiling.</p>													

Talabalarni ichki tahdidlarga qarshi tura olishida ma'naviy-axloqiy tadbirlarni ahamiyati katta hisoblanadi. Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar bajaradigan eng muhim vazifa - bu tarbiyaviy funktsiya. Bu funktsiya globallashuv jarayonlari tezlashib borayotgan hozirgi murakkab davrda yana ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Globallashuv faqat iqtisod va siyosat sohasida emas, balki ma'naviyat va mafkura sohasiga ham tez kirib kelmoqda. Buning sababi - o'z manfaatlarini ko'zlayotgan ba'zi vayronkor g'oya tarqatuvchilar ma'naviyat orqali tezda inson ongini egallah va uni manqurtga aylantirish mumkinligini yaxshi biladilar. Chunki ma'naviyatsiz inson boshqalar fikri bilan ish tutadigan, e'tiqodsiz, mustaqil fikrdan yiroq kishilar bo'ladilar. Shu bois ular qilayotgan ishlarining oqibatini o'ylab ko'rish darajasida aqli bo'lmaydilar. Ular shu darajada manqurtga aylanadiki, portlat degan joyni portlatadi, o'zingni o'ldir desa, o'ldiradilar. Muammoning eng jiddiy tomoni ham shunda.

Bu muammoni bartaraf etish, talabalarni har qanday ma'naviy xurujlardan himoyalash borasida mamlakatimizda tahsinga loyiq ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu jarayon nafaqat oliv ta'lim muassasalarida balki, barcha sohalarda kasb-hunar kolejlari, akademik litseylar, maktabgacha tarbiya muassasalari, mahalla, kutubxona, klub, madaniyat saroylari, istirohat bog'lari, muzeylar, ijodkor o'quvchilar uylari, sport to'garaklarida ham amalga oshirilmoqda.

Talabalar ma'naviy tarbiyasini milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirish asosida shakllantirishga yo'naltirilgan auditoriyadan tashqari o'quv-tarbiyaviy tadbirlarning qurilish mazmuni, shakl, usul, metodlar natijasi aqliy va tarbiyaviy ahamiyati zanjiri samaradorligi unga rahbarlik va nazorat qilish bilan tavsiflanadi.

Talabalarni axloqiy jihatdan tarbiyalashda unga rahbarlik qilishning mazmun-mohiyati, shakl va metodlarning tizimliligi, uning natijasini hisobga olish metodikasi, ta'lim-tarbiyaning izchilligini yaxlit amalga oshirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Demak, buning uchun bugungi kun o'qituvchisi nafaqat o'z mutaxassisligi doirasidagi bilimlarga, balki faol tashkilotchilik xislatlariga ham ega bo'lishi kerak bo'ladi. Bu borada professor M.Quronovning quyidagi fikrlari diqqatga sazovor: "O'zbekiston o'qituvchisi nafaqat matematika, adabiyot va h.k.larni keng va chuqur bilishi, balki tarbiyaviy jarayonning mohir tashkilotchisi, o'quvchilarning ustozи bo'lishi, milliy

g‘oya talablaridan kelib chiqib, o‘quvchilarning ma’naviy dunyosini shakllantira bilishi talab qilinadi” [75; 238-b.].

Auditoriyadan tashqari o‘tkaziladigan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni pedagogik talablarga tayangan holda, ta’lim texnologiyalari bilan (shakl, vosita va usullarni) birgalikda amalga oshirish kerak. Bu tadbirlarni ommaviy (guruhlararo); guruhlar bilan; yakka (individual) tartibda o‘tkazish mumkin (13-jadval).

### **13-jadval**

#### **Talabalarni ichki tahdidlardan himoyalashni targ‘ib etuvchi tadbirlar rejasi.**

T/r	Tadbirlar nomi	Tadbirlar rejasi
1.	Ma’naviy xuruj va men	<p>I. Kirish nutqi</p> <p>II. Nazariy tushunchalarni aniqlash uchun beriladigan savollar:</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. “Ma’naviyat nima?</li> <li>2. Ma’naviy kamolot deganda nimani tushunasiz?</li> <li>3. Ma’naviy xurujning ko‘rinishlarini bilasizmi?</li> <li>4. Shaxslararo munosabatlarning ma’naviyatga ta’siri bormi?</li> </ol> <p>III. Bildirilgan mulohazalarni umumlashtirish va yakuniy xulosani shakllantirish.</p> <p>IV. Yakuniy nutq</p>
2.	Nik Vuychich iroda timsoli (mutaxassis bilan uchrashuv)	<p>I. Kirish nutqi</p> <p>II. Nik Vuychich-iroda timsoli. Mutaxassis fikr-mulohazalari</p> <p>III. Talabalarning inson irodasi haqida, irodasizlik, shaxsning ichki olami haqida qarashlari</p> <p>IV. Bildirilgan mulohazalarni umumlashtirish va yakuniy xulosani shakllantirish.</p> <p>V. Yakuniy nutq</p>
3.	Men nega qo‘rqaman (psixolog bilan uchrashuv)	<p>I. Kirish nutqi</p> <p>II. Mutaxassisning talabalik davridagi o‘zgarishlar va uning kechishi to‘g‘risidagi fikrlari</p> <p>III. Talabalarning o‘ziga xos xususiyatlariga oid savollar</p>

		<b>IV. Mutaxassisning berilgan savollarga javoblari</b> <b>V. Yakuniy nutq (xulosa)</b>
4.	Men, oilam va do'stlarim (urolog bilan uchrashuv).	I. Kirish nutqi II. Mutaxassisning talaba organizmida kechadigan o'zgarishlar va fiziologik o'zgarishlarning inson ruhiyatiga ta'siri to'g'risidagi fikrlari. III. talabalarning mavzuga oid savollari IV. Mutaxassisning berilgan savollarga javoblari V. Yakuniy nutq (xulosa)
5.	Tarixiy, qadimiy obidalarga sayohat	

Tadbirlarning yuqorida keltirilgan mavzular asosida tashkil etilishi talabalarda e'tiqodli bo'lish va uning fazilatlarini, inson ma'naviy olamiga oila va do'stlarining ta'siri, tarixiy shaxslarning hayot tarzi ulardagi milliy iftixor tuyg'usining shakllanishiga va o'z-o'zini anglashi, tahlil qilishi va baholashiga imkon berdi. Talabalar o'z-o'zini anglash jarayonida:

tanlagen kasblari sir-asrorlarini chuqurroq o'zlashtirib borish; tanlagen kasbiga va faoliyatga tanqidiy va ijodiy yondashish; o'z tanlagen kasblari doirasida ijodiy hamkorlikni yo'lga qo'yish; ishchanlik qobiliyatini rivojlantirish; o'zlaridagi salbiy odatlarni bartaraf etib borishga erishadilar.

Talabalarning o'z-o'zlarini anglashlari o'zlarining xatti-harakatlarini tahlil qilishlariga imkon beradi. Ya'ni atrofdagilarga bo'lgan munosabatlarini, o'z amaliy harakatlari mohiyatini tushunib yetadilar. Bu talabalarda o'zini o'zi xolisona baholash imkoniyatini beradi. O'z xatti-harakatlarini baholashda talabalar, eng avvalo, o'zlarini tushunishlari osonlashadi (o'zlari haqida aniq ma'lumotlarga ega bo'lishadi).

Ikkinchidan, inson sifatida o'z qadr-qimmatini bilish (o'zidagi ijobiy xislatlarni shakllantirish).

Uchinchidan, o'zini o'zi baholash, nazorat qilish (o'zi haqidagi shaxsiy fikrning atrofdagilardan unga berilayotgan bahoga to'g'ri kelishi)ga erishadilar.

Ichki tahdidlardan himoya qilishda talabalarning o'z-o'zlarini anglashlari, tahlil qilishlari, ichki va tashki xatti-harakatlarini baholashlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu mavzularga e'tibor qaratiladigan bo'linsa, ularning barchasi umummmiliy qadriyatlarni yoshlarda shakllantirishga qaratilgan. Zero, umummilliylar qadriyatlar har qanday xurujlarga qarshi kurashishning yagona va ishonchli vositasi.

Talabalarni ichki tahdidlardan himoyalashda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning samarali shakli sayohatlar. Sayohatlarni talabalar bilan tashkil etishda ko'proq ularning qiziqishlarini o'rganish muhim hisoblanadi. Sayohatlar nafaqat talabalar uchun tarbiya vositasi, balki ular uchun ko'ngilochar mashg'ulot ham. Bu bilan ularning darslarda olgan toliqish va zerikish holatlari bartaraf etilib boriladi. SHu bois ularni o'quv yilida kamida 1- 2 marta tashkil etish maqsadga muvofiq. Bunda ayniqsa, talabalarni tarixiy obidalarga boy shaharlarga olib borish, ularning tarixi va tabiatini bilan tanishtirish muhim hisoblanadi.

O'zbekiston sharoitida bunday tarixiy obidalarga boy shaharlar ko'p. Masalan, Samarqand, Buxoro, Xiva, Qarshi, Shahrisabz kabi shaharlar shular jumlasidan. Bu kabi shaharlarga uyushtirilgan sayohatlar natijasida talabalarda umummilliylar qadriyatlar bo'lmish vatanparvarlik, milliy g'urur, iftixor, san'atga havas, tarixga qiziqish, ota-bobolar mehnatini qadrlash kabi fazilatlar tarbiyalanadi.

O'quv-tarbiya jarayonida o'tkaziladigan tarbiyaviy tadbirlarning guruhlarda ishslash shakli - ijodiy to'garaklar ta'lim oluvchilar faoliyatlarini tashkil qilishning shunday shaklici, u o'quv jarayonini bevosita to'ldiradi, talabaning o'quv mashg'ulotlarida egallagan bilimlarini amalda sinab ko'rish, boyitishga xizmat qiladi, kasbiy bilimlarini boyitadi. Ayniqsa, talabaning bo'sh vaqtini to'garak mashg'ulotlarida samarali tashkil etiladi.

To'garak ishlarida ko'pincha talaba bilan individual ishslash talab etiladi. Mana shu berilgan barcha korrektsiyalash usullari va metodlari talabalarni ichki tahdidlardan himoyalash, ularning shaxsiy fazilatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Albatta, talabalarni ichki tahdidlardan himoyalashda bu kabi usullardan foydalanilganda, o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi munosabat halollikka, javobgarlikka, mas'uliyatlilikka, bir-birlarini qo'llab-quvvatlashga, hurmat qilishga asoslangan bo'lishi lozim.

Shunday qilib, pedagogik tajriba-sinov ishlarining yakuniy bosqichida olingan natijalar samaradorligi asosli ekanligi isbot qilindi. Tadqiqot ishining umumiyligi g'oyalari dissertatsiya ko'rinishida bayon qilindi. Dissertatsiya materiali turli OTMlari kafedra professor -

o‘qituvchilari, mutaxassislar, amaliyotchi professor - o‘qituvchilar, uslubchilar, OTMlar rahbarlari ishtirokida muhokamalardan o‘tkazildi.

Olib borilgan pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalari talaba-larda ichki tahdidlarga beriluvchanlik, jumladan, turli axborotlarga tobelik, o‘z imkoniyatlaridan to‘g‘ri foydalana olmaslik kabi quyidagi kamchiliklar mavjudligini namoyon etdilar:

1. Talabalar bilan o‘tkazilgan so‘rovnomalarga ko‘ra, ular o‘z xattiharakatlari va faoliyatlarida uchraydigan kamchiliklarni o‘zлari ham qayd etadilar, biroq ushbu kamchiliklarning xavflilik darajasini chuqur xis etmaganliklari kuzatildi. Zero, ichki tahdidlarga beriluvchanlik yoshlarni jamiyatning sog‘lom va faol a’zosi bo‘lishdek sharaflı nomdan yiroqlashtiradi.

2. Talabalarda ichki tahdidlarga beriluvchanlikning oldini olishga qaratilgan qator mashg‘ulotlarni o‘tkazish jarayonida, xususan, tajriba-sinov ishlarning dastlabki bosqichida ularning ikki guruhi ham (nazorat va tajriba) bir xil bilim, tushunchaga ega bo‘ldi, tajriba yakunida esa tajriba guruhi ichki tahdidlarning xavflilik darjasini haqidagi tasavvurlari to‘g‘risidagi umumiylar bilimlari darjasini yuqori bo‘ldi.

3. Talabalarni ichki tahdidlardan himoyalashda o‘quv mashg‘ulotlari va auditoriyadan tashqari ishlarning ahamiyati yuqori bo‘lib, mazkur jarayonda ular bilan do‘stona munosabat o‘rnatildi, shu bilan birga talabalarda o‘z-o‘ziga bo‘lgan ishonch hosil qilindi, mustaqil fikrlash, ijodiy faolliklari qo‘llab-quvvatlandi.

4. Tajriba yakunida tajriba guruhi ichki tahdidlarining xavflilik darjasini haqidagi tasavvurlari to‘g‘risidagi umumiylar bilimlari darjasini yuqori ekanligi aniqlandi.

5. Pedagogik tajriba-sinov natijalarini matematik-statistik metodlar yordamida tahlil qilinishi talabalar bilan tashkil etilgan amaliyotda sinab ko‘rilgan metodikaning samarali ekanligini isbotladi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Talabalarni ichki tahdidlardan himoyalashda oila, ta’lim muassasasi, mahalla va jamoat tashkilotlari o‘z faoliyatlarini nafaqat davlat va jamiyat talablari asosida tashkil etishlari, balki ular ham o‘z harakat dasturlariga ega bo‘lishlari va ulardan foydalanish yo‘llarini takomillashtirish.

2. Talabalarning bo‘sh vaqtlarini maqsadli yo‘naltirish, tanlagan kasbiga doir amaliy tajribalarni takomillashtirish, har bir talaba bilan individual ishlashni kuchaytirish, ularda moddiy va ma’naviy qadriyatli munosabatni ta’minlash hamda rag‘batlantirish.

3. Talabalarni ichki tahdidlardan himoyalashda boshqa rivojlangan mamlakatlar tajribasini o‘rganish va amaliyotda sinab ko‘rish, xorijiy tajribalardan unumli foydalanish.

4. Pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markaz professor-o‘qituvchilari uzluksiz kasbiy ta’lim o‘quv kurslari ma’ruzalari va videodarslarida hamda elektron platformasida foydalanish.

## XULOSALAR

Talabalarni globallashuv jarayonida ichki tahdidlardan himoyalash maqsadida o'tkazilgan ilmiy-tadqiqot ishimiz quyidagicha xulosalar qilish imkonini berdi:

1. Globalizatsiya qamrovining jadal sur'atlarda kengayib borishi jamiyat hamda ishlab chiqarish, qolaversa, ta'lim sohasi oldiga qator muammo va talablarni keltirib chiqarmoqda. O'rganilgan falsafiy, psixologik va pedagogik manbalar tahliliga ko'ra, globalizatsiya texnologiyalarining rivojlanib borishi, jahon xalqlari o'rtasidagi integratsiya kuchayishiga sabab bo'lsa-da, biroq shaxs ma'naviyati, dunyoqarashi, psixikasi va sog'lig'iga xavf solayotgani barchani birdek tashvishga solmoqda. Ayniqsa, jamiyatning tezkor axborotlashuvi va ularning talabalar tarbiyasiga ko'rsatayotgan salbiy ta'siri yoshlarning ichki tahdidlarga berilish muammosi bilan o'zaro bog'liqligini namoyon etdi.

2. Bugungi oliy ta'lim maqsad-mazmuni talabalarga zamonaviy ta'lim berish bilan birga, ularning ichki salohiyatini ro'yobga chiqarish, har qanday mafkuraviy tahdidlardan himoya qilish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, huquqiy madaniyatni yuksaltirish, erkinliklarni himoya qilishga qaratilgan. Maqsad talablarni salbiy illatlar ta'siriga tushib qolishining oldini olish usullarini izlab topishdan iborat.

3. Mamlakatimiz barcha sohalarda talabalarga shu darajada e'tibor qaratmoqdaki, ulardan talab etiladigani birgina - Vatan va xalq uchun fidoyi, tashabbuskor, ilmli, zakovatli, e'tiqodli, ijobiy xususiyatlarga ega insonlar bo'lish. Ammo olib borilgan kuzatishlarga ko'ra, talabalar ongi va xatti-harakatida ichki tahdidlarga beriluvchanlik ustunlik qilib kelmoqda. Dangosalik, beparvolik, laqaydlik, andishasizlik, e'tiqodsizlik kabi illatlar ularni jamiyat talablari asosida yashashi va faoliyat yuritishiga to'sqinlik qilishi aniqlandi.

4. Talabalarni ichki tahdidlardan himoyalash jarayonini samarali tashkil etish uchun talabalar hayoti va faoliyatidagi mavjud muammolarni chuqur o'rganish, tahlil qilish hamda to'plangan ma'lumotlar asosida pedagogik jarayonni amalga oshirish zaruriyati mavjudligi aniqlandi.

5. Butun dunyo talabalarining ichki tahdidlarga beriluvchanligi barcha xalqlarni tashvishga solmoqda. O'z navbatida xorijiy davlatlar olimlari bu masalaning yechimiga o'z e'tiborlarini qaratishgani sir emas. Shu bois xorijiy tajribalarni o'rganish va ularning amaliy tajribalaridan

o‘zimizning milliy xususiyatlarimizni inobatga olgan holda foydalanish yo‘lga qo‘yildi.

6. To‘plangan ilmiy dalil va hayotiy tajribalarni tahlil qilish talabalarni ichki tahdidlardan himoyalash tizimini takomillashtirishga xizmat qiladigan modelъ va uning elementlarini aniqlashga yordam berdi. Mazkur modelъ elementlari bo‘lgan tamoyillar, manba va vositalar, himoyalashning turli usul va metodlari amaldagi pedagogik jarayonning tavsifiy xususiyatini boyitishga xizmat qiladi.

7. Talabalarni ichki tahdidlardan himoyalashga qaratilgan tamoyillar pedagogik jarayon muvaffaqiyati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Talabalarni ichki tahdidlardan himoyalashga qaratilgan ishlar nafaqat o‘quv va auditoriyadan tashqari ishlar jarayonida, balki ularning butun faoliyatlari davomida izchil va tizimli tashkil etilishi hamda ularga o‘z hayotlarini maqsad asosida qurishga o‘rgatish muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalar bilan o‘tkazilgan so‘rovnomalarga ko‘ra, ular o‘z xatti-harakatlari va faoliyatlarida uchraydigan kamchiliklarni o‘zлari qayd etadilar, biroq ushbu kamchiliklarning xavflilik darajasini chuqr tahlil etmaganliklari kuzatildi. Zero, ichki tahdidlarga beriluvchanlik talabalarni jamiyatning sog‘lom va faol a’zosi bo‘lishdek sharaflı nomdan yiroqlashtiradi.

